

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI
KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 330.115:31:631.1(575.1)

ZAKIROVA UMIDA MAXAMADAMINOVNA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘IDAGI
TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI STATISTIK USULLARDA BAHOLASH**

08.00.06-Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
D I S S E R T A S I Y A**

**Ilmiy rahbar: i.f.d., professor
B.K. G‘oyibnazarov**

TOSHKENT – 2023

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI STATISTIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI...	13
1.1. Qishloq ho‘jaligi tarmog‘ini milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari	13
1.2. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining tarkibiy o‘zgarishlarini statistik o‘rganishning nazariy asoslari	22
1.3. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining tarkibiy faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi va ularning tavsifi	30
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	42
II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING TARKIBIY FAOLIYATINI IFODALOVCHI STATISTIK KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	44
2.1. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi asosiy tendensiyalar va ulardagi tarkibiy o‘zgarishlarni iqtisodiy-statistik tahlili	44
2.2. Qishloq xo‘jaligida tarkibiy-tuzilmaviy o‘zgarishlarni statistik baholash	54
2.3. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklari tomonidan yaratilgan mahsulot va qo‘shilgan qiymat hajmi dinamikasini statistik baholash	64
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	92
III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING TARKIBIY O‘ZGARISHLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	94
3.1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini statistik baholash	94
3.2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish jarayonlarini dinamika qatorlari usulidagi tahlili	112
3.3. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarni prognozlashtirish	124
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	129
XULOSA VA TAKLIFLAR	131
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	138
ILOVALAR.....	145

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global raqobatning keskinlashuvi sharoitida qayta ishlash sanoati tarmoqlari va aholining qishloq xo‘jaligi xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondiruvchi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ahamiyati oshib bormoqda. Statistika ma‘lumotlarga ko‘ra, “bugungi kunda jahon qishloq xo‘jaligi iqtisodiy faol aholining 1 mlrd. kishidan ziyodining bandligini ta‘minlamoqda, shuningdek, jahonda ishlab chiqarilgan jami mahsulotlarning 5 foiziga yaqini mazkur tarmoq hissasiga to‘g‘ri keladi. Prognoz ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2050 yilga borib, jahon aholisi 9,1 mlrd. kishiga yetishi mumkin. Bu holatda jahon aholisining go‘sht va sut mahsulotlariga bo‘lgan talabi hozirgi kunga nisbatan 2,5-3,0 barobarga ortishi kutilmoqda”¹. Ushbu jarayonda Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Yaponiya va Isroil davlatlari tajribalarida tarmoqda ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish, ilg‘or innovatsiyalarni joriy etish, tarmoqni iqtisodiy-statistik tadqiq etish orqali qabul qilingan davlat dasturlari ijrosini ta‘minlash, ularni tizimli shakllantirish, agrar sektorni klasterlash kabi zamonaviy shakllarda xo‘jalik yuritish amalga oshirib kelinmoqda.

Jahonda global beqarorlik holatining yuzaga kelishi oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratishni va bu borada kengaytirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Mazkur tadqiqotlarda agrar sektorning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, aholi soni va talablari o‘shishini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan mutanosibligini ta‘minlash, agrar sektorni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ixtisoslashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va uslublarni qo‘llash orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish, ularning faoliyatiga ta‘sir qiluvchi

¹ <http://mcx.ru>

omillarni kompleks statistik tadqiq etish, raqobatbardoshligini ta'minlash bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda agrar sektor sohasi aholining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlash bilan birga mamlakat eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilib, o'tgan yillar davomida sohaga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "... taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan eng ustuvor vazifalardan biri milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qishloq xo'jaligi samaradorligini tubdan oshirish va uni diversifikatsiya qilish, ya'ni agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq joylarida yashayotgan aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, fermer va dehqonlar daromadini 2 barobar ko'paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atini kamida 5 foizga yetkazish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning ijrosini samarali ta'minlash agrar sektor xo'jaliklari tarkibiy o'zgarishlarini iqtisodiy-statistik tahlil qilish, ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks statistik baholash, rivojlanish istiqbollarini o'rta muddatli prognozlash bo'yicha asoslangan ilmiy taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2022 yil 7 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni. www.lex.uz.

chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 fevraldagi 104-son "Qishloq xo'jaligi sohasida statistik ma'lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Agrar sektorni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari xorijlik olimlardan L.Sfu, S.Fan, L.Chjou, J.M.Shurbax, S. Shiona, S.S.Shenoylar tomonidan tadqiq qilingan³.

Mustaqil Davlatlari Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan agrar sektorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, iqtisodiy modellashtirish va prognozlash masalalari L.V.Agarkova, I.A.Baranov, N.A.Popov, A.V.Afanaseva, M.A.Solomaxin, N.I.Grekov⁴ tomonidan o'rganilgan.

³Лин Цфу, Цой Фан, Ли Чжоу. Китайское чудо: экономическая реформа, стратегия развития. – М., 2001. С.68.; Jan Mathis Schopbach "Foreign direct investment in agriculture the impact of out grower schemes and large-scale farm employment on economic well-being in Zambia" Master of Arts, University of Zurich accepted on the recommendation of Prof. Dr. Rolf Kappel, examiner Prof. Dr. Isabel Gonther, co-examiner Prof. Dr. Jann Lay, co-examiner, diss. eth no. 22287 2014. – p. 21-28.; Susan Chiona, BSc "Technical and allocative efficiency of smallholder maize farmers in Zambia" A thesis submitted to the University of Zambia in partial fulfillment of the requirements of the degree of Master of Science in Agricultural Economics, The University of Zambia Lusaka, 2011. – p.64.; Sajna S. Shenoy. Food tourism and the culinary tourist. Clemson University, 2005.

⁴Агаркова Л.В. Формирование механизма устойчивого развития плодоовощного подкомплекса: теория и практика. – Ставрополь: Ставролит, 2007. –С.168.; Баранов И.А. Совершенствование коммерческой работы торговых и заготовительных организаций потребительской кооперации. Автореф. дисс.д-ра экон. наук. – М.: РГБ, 2003. – С.39.; Попов Н.А. Экономика сельского хозяйства. – М.: Дело и сервис, 2005. – С.56.; Афанасьева А.В. Статистическая оценка динамики производства сельскохозяйственной продукции в системе государственного регулирования продовольственного рынка. Автореф. дисс. на соиск.канд. экон. наук. – Самара. 2008. –С.26.; Соломахин М.А. Основные направления совершенствования системы ведения садоводства в условиях развития агропромышленной интеграции. //Организационно-экономические проблемы стабилизации и развития аграрного сектора экономики. Том 1: Материалы научно-практической конференции, 9-10

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining tarkibiy tuzilmasini iqtisodiy-statistik tahlil etish hamda samaradorligini oshirish, ekonometrik modellashtirish va prognozlash masalalari N.M.Soatov, Yo.A.Abdullaev, B.Berkinov, T.Sh.Shodiev, A.Abdug‘aniev, G‘.X.Qudratov, A.M.Jo‘raev, R.H.Husanov, A.Qodirov, F.Dusmatov, Q.Choriev, N.S.Xushmatov, N.R.Asadulina, A.X.Burhonov, M.Mirzaev, Ch.Murodov, F.Nazarova, U.Umurzoqov, U.S.Muxiddinova, I.K.Jumaev, Sh.T.Ergasheva, M.Raxmatov⁵ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

ноября 2005 г. – Мичуринск: Изд-во ФГОУ ВПО МичГАУ, 2005. Том 1. -С.153-159.; Греков Н.И. Основные направления и факторы интенсификации садоводства. //Организационно-экономические проблемы стабилизации и развития аграрного сектора экономики. Том 1: Материалы научно-практической конференции, 9-10 ноября 2005 г. – Мичуринск: Изд-во ФГОУ ВПО МичГАУ, 2005. – Том 1. -С.164-166.

⁵ Соатов Н.М. Статистика. Дарслик. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2003. – 743 б; Абдуллаев Ё.А. Статистика назарияси. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2002. - 592 б.; Беркинов Б.Б., Ахмедов У.К. Уй хўжаликлари ривожланиши ва оила даромадларини ошириш истикболлари. – Т.: Фан ва технология, 2013.-144 б; Шадиёв Т.Ш. Экономические модели развития сельского хозяйства. – Т.: Фан, 1986. -С.168.; Абдуганиев А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти.–Т.: Адабиёт жамғармаси. 2007. –340 б.; Қудратов Ғ.Х. Бозор иқтисодиёти шароитида Ўзбекистон ғаллачилигидаги иқтисодий мунасобатлар. Монография. – Т.: Иқтисод-молия. 2006. –Б. 250.; Қудратов Ғ.Х., Акрамов Э. Реформирование сельского хозяйства Республики Узбекистан: задачи принципы и основы направления реформ. //Сельское хозяйство Узбекистана. – Т., 2000. № 6. –С. 2-4.; Жўраев А.М., Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы. – Т.: Узбекистан, 2002. –С.766.; Хусанов Р.Х., Дўстмуродов Р. Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда Андижон тажрибаси. – Т.: Янги аср авлоди. 2008. –49 б.; Кадыров А.М., Дусматов Ф.Д. Инновационные инвестиционные факторы развития агропромышленного комплекса. – Т.: ИЭАНРУз, 2009. – С.52.; Чориев Қ.А., Хушматов Н.С. Дехкон ва фермер хўжаликлари фаолиятини режалаштириш. – Т.: Шарк, 2002. –132 б.; Асадулина Н.Р. Механизм регулирования эффективности плодовоощного комплекса Республики Узбекистан на основе логистического подхода. Дисс.на соис. учен. степ. канд. экон. наук. – Т., 2006.– С.158.; Бурхонов А.Х. Турли мулкчилик шаклидаги қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш иқтисодий самарадорлигини ошириш. Иқт. фан. ном. илм. дар. олиш учун ёзилган дис.– Т.: ЎзБИИТИ, 2000. –117 б.; Мирзаев М.М. Мевали дарахтлардан юқори ҳосил етиштириш. – Т., 2006. Р.Р.Шредер ИТИ–Б.100.; Муродов Ч. Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида бозор инфратузилмасини ривожлантириш. Иқт.фан. докт. илм. дар. олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т., 2001. –46 б.; Назарова Ф. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида Ўзбекистон аграр секторини ривожлантириш истикболлари. Иқт. фан. док. илм. дар. олиш учун ёзилган дис. – Т., 2001.- 290 б.; Умурзаков У.П. Пути повышения эффективности использования ресурсного потенциала аграрного сектора экономики (на материалах Республики Узбекистан). Автореф. дисс. на соис. учен. степ. д-ра экон. наук. – Т., 2003. – С.43.; Мухитдинова У.С. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида мева-сабзавотчилик маҳсулотлари бозорини ривожлантириш йўналишлари. Иқт.фан.док.илм.дар.олиш учун ёзил. дис.автореф. – Т., 2010. –36 б.; Жумаев И.К. Фермер хўжаликлари ривожланиш тенденциялари ва истикболларини эконометрик башоратлаш. Иқт.фан.док.илм.дар.олиш учун ёзил. дис.автореф. – Т., 2011. –43 б.; Очилов С., Эргашева С. Қишлоқ ва сув хўжалиги статистикаси. Ўқув қўлланма. –Т., 2008. –192 б.; Рахматов М. Развитие плодовоощного подкомплекса в Ферганской области. Автореф. дисс. на соис. кан. экон. наук. – Т., 1989. – С.24.

Yuqorida qayd etilgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy yondashuvlari agrar iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilmalar va samaradorlik masalalarini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy o'rganishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ammo mazkur tadqiqotlarda milliy qishloq xo'jaligi tarmog'ining statistik tahlilini amalga oshirishda axborotlar bazasini takomillashtirish, ko'rsatkichlar tizimi va statistik hisobga olish masalalariga yetarli e'tibor berilmaganligi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlari institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'idagi tarkibiy o'zgarishlarni statistik usullarda baholash hamda istiqbollarini prognozlash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agrar sektorning tarkibiy o'zgarishlarini statistik tadqiq etishning nazariy asoslarini yoritish;

qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ulardagi tarkibiy o'zgarishlarni o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

qishloq xo'jaligi tarmog'ining iqtisodiy rivojlanishi va asosiy tendensiyalaridagi tarkibiy o'zgarishlarni statistik usullarda tahlil qilish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

mamlakat agrar sektorida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning tarkibiy tuzilmasining ko'p omilli statistik tahlilini amalga oshirish;

xorijiy davlatlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish asosida ulardan mahalliy darajada samarali foydalanish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy rivojlanish holati, tarkibiy tuzilmasi va samaradorligini statistik jihatdan tahlil qilish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish va istiqbollarni prognozlash;

qishloq xo'jaligi faoliyatining tarkibiy tuzilmasini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi va uning axborotlar bazasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi faoliyati istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha prognoz variantlarini tuzish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini qishloq xo'jaligining tarkibiy o'zgarishlarini statistik baholash, ko'p omilli tahlil qilish jarayonlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statistik kuzatish, guruhlash, taqqoslash, dinamika qatorlari, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy indekslar, korrelyatsion-regression tahlil, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalqaro standartlarga muvofiq keluvchi iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2) asosida agrar tarmoqdagi tarkibiy o'zgarishlar hamda dinamik jarayonlarni iqtisodiy indeks usuliga ko'ra baholash orqali qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlari asoslangan;

qishloq xo'jaligi tarmog'idagi tarkibiy o'zgarishlar va ularning samaradorligini xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy va mulkchilik bo'yicha alohida shakllari salmog'idan kelib chiquvchi jamlanma ko'rsatkichlarga ko'ra statistik baholash taklif etilgan;

qishloq xo'jaligida agrosanoat klasterlari faoliyatini statistik baholash ular tarkibidagi fermer xo'jaliklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini statistik

ifodalashda yangidan paydo bo'lgan aralash ishlab chiqarish va xizmat turlarini hisobga olish orqali takomillashtirilgan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'i asosiy rivojlanish tendensiyalaridagi natijaviy ko'rsatkichlarning ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2026 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy statistika amaliyotida mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi subyektlari iqtisodiy faoliyatidagi tarkibiy o'zgarishlarni baholovchi ko'rsatkichlardan samarali foydalangan holda agrar sektor faoliyatini kompleks statistik baholash bo'yicha integral ko'rsatkichlar tizimi taklif etilgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'ining hozirgi davrdagi dinamikasini tizimli statistik tahlili asosida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash, dinamik jarayonlarni baholash qamrovini kengaytiruvchi jamlama statistik ko'rsatkichlaridan xo'jaliklar faoliyatida foydalanish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'i tarkibiy tuzilmasini iqtisodiy-statistik jihatdan o'rganish, ixtisoslashgan xo'jaliklar faoliyatini statistik baholash va iqtisodiy samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari baholangan;

statistik kuzatish usullarini keng qo'llash hisobiga qishloq xo'jaligi subyektlari iqtisodiy faoliyatini statistik hisobga olishning uslubiy jihatlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalari va xulosalarining ishonchliligi muallif tomonidan tadqiqot ishiga doir xorijiy hamda mahalliy olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, uslubiy tadqiqotlari asosida, foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi bilan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi hududlarda qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishga doir qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarni vakolatli vazirlik, tuzilma va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, qishloq xo'jaligi faoliyatini iqtisodiy rivojlantirish

bo'yicha dasturlar qabul qilish, tarmoqdagi iqtisodiy muammolarni bartaraf etish va ularni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, agrar sektordagi statistik hisob-kitoblarni takomillashtirishda uslubiy jihatdan asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ishida qishloq xo'jaligi sohasini statistik tadqiq qilish usullari, ixtisoslashgan dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatining zamonaviy ilg'or innovatsiyalarini joriy etgan holda statistik jihatdan baholash, ilmiy-nazariy xulosalaridan oliy o'quv yurtlarida "Statistika", "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Ekonometrika asoslari" hamda "Iqtisodiy statistika" fanlaridan o'quv dasturlari ishlab chiqishda, o'quv adabiyotlari tayyorlashda hamda ta'lim jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agrar sektorda tarkibiy o'zgarishlarni statistik baholash va ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

xalqaro standartlarga muvofiq keluvchi iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2) asosida agrar tarmoqdagi tarkibiy o'zgarishlar hamda dinamik jarayonlarni iqtisodiy indeks usuliga ko'ra baholash orqali qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi tomonidan tarmoq statistikasini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqishda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022 yil 22 dekabrda 01/1-11-19-214-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar agrar sektorda amalga oshiriladigan tadbirlarning samaradorligini oshirishda, xususan mamlakatda statistika tizimini tubdan isloh qilish maqsadida olib borilayotgan islohotlar qatorida 2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasining agrar sektor yo'nalishidagi vazifalari ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'idagi tarkibiy o'zgarishlar va ularning samaradorligini xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy va

mulkchilik bo'yicha alohida shakllari salmog'idan kelib chiquvchi jamlanma ko'rsatkichlarga ko'ra statistik baholash taklifi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi tomonidan tarmoq statistikasini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqishda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022 yil 22 dekabrda 01/1-11-19-214-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrda PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq qishloq xo'jaligi subyektlarining rivojlanish darajasi, ularning asosiy tendensiyalaridagi tarkibiy o'zgarishlarni kompleks statistik baholash imkoniyatlarini oshirgan;

qishloq xo'jaligida agrosanoat klasterlari faoliyatini statistik baholash ular tarkibidagi fermer xo'jaliklari faoliyati asosiy ko'rsatkichlarini statistik ifodalashda yangidan paydo bo'lgan aralash ishlab chiqarish va xizmat turlarini hisobga olish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi tomonidan tarmoq statistikasini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqishda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022 yil 22 dekabrda 01/1-11-19-214-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrda PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq agrosanoat klasterlari faoliyatidagi tarkibiy o'zgarishlarni kompleks statistik baholash hamda xo'jalik yuritishning yangi maqbul shakllarini qo'llash imkoniyatlarini oshirgan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'i asosiy rivojlanish tendensiyalaridagi natijaviy ko'rsatkichlarning ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2026 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Davlat

statistika qo‘mitasining Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi tomonidan tarmoq statistikasini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqishda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022 yil 22 dekabrda 01/1-11-19-214-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 avgustdagi PQ-4796-sonli “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “2020-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 24.2-bandida e‘tiborga olinib, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi subyektlari iqtisodiy faoliyatidagi tarkibiy o‘zgarishlarni baholashga imkon yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ish natijalari 5 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.


Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xalqaro jurnallarda 1 ta, mahalliy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 156 betni tashkil etadi.

I BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI STATISTIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Qishloq ho‘jaligi tarmog‘ini milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlangan dunyo mamlakatlarining qariyb barchasi iqtisodiy rivojlanishining yuqori cho‘qqilariga erishmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida fuqarolarning farovonlik darajasining ortishi ularning turli sohalarda samarali faoliyat olib borishlariga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularni yangiliklarga intilishini rag‘batlantiradi hamda bunday holatda inson kapitali kuchli raqobat ta’sirida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishga intilishini oshiradi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i taraqqiyoti tarmoqda ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali mamlakatda qayta ishlash tizimi rivojlanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari qishloq aholisi uchun ish o‘rinlari sonining ko‘payishiga xizmat qiladi. Shulardan kelib chiqib, dunyoda hanuz davom etayotgan global iqtisodiy inqirozga bog‘liq jiddiy muammolar sababli jahon bozorida yalpi talab hajmining keskin pasayib ketishi, raqobatning jiddiy ko‘rsatkichlarda kuchayib borishi milliy iqtisodiyotimizni sifat jihatdan tarkibiy o‘zgartirish va tarmoqlarni diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatlarini qo‘llab quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali bandlikni ta’minlash, yurtimizda aholi daromadi va hayot farovonligini yaxshilashning eng samarali va tizimli yo‘nalishlarini joriy qilishni taqozo qilmokda. O‘z navbatida, bu kabi tadbirlar yukorida keltirilgan masalalarni ijobiy hal qilish yo‘llarini aniqlashda ularning joriy holati va istiqboldagi ko‘rsatkichlarini statistik metodlar yordamida o‘rganish va takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida fermer xo‘jiliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar faoliyat yuritadi (1.1-rasm).



1.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning tarkibiy tuzilishi (2021 yil 1 yanvar holatiga)⁵

Fermer xo‘jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir. Fermer xo‘jaligining boshlig‘i shu xo‘jalikning muassisi - fermerdir. O‘n sakkiz yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi fermer bo‘lishi mumkin. Boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fermer xo‘jaligi nomidan ana shu xo‘jalik boshlig‘i ish ko‘radi. Fermer xo‘jaligi boshlig‘ining huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlanadi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda va zaxira yerlarda tashkil etiladi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida 30 gektarni, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 5 gektarni tashkil etadi⁶. Yer uchastkalari berilganda fermer xo‘jaligi o‘z zimmasiga qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o‘rtacha yillik hosil hisobida) yerning kadastr bahosidan

⁵O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

⁶O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 25 dekabrda O‘RQ-240-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2009 y., 52-son, 555-modda

kam bo‘lmasligini ta’minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo‘yiladi.

Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo‘lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo‘jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaligi – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiruvchi va sotuvchi xo‘jalik huquqining subyektidir. Dehqon (**shaxsiy yordamchi**) xo‘jaligi faoliyati “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi⁷. Dehqon (**shaxsiy yordamchi**) xo‘jaligi dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon (**shaxsiy yordamchi**) xo‘jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda u davlat ro‘yxatiga olinganidan va unga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi. Yer uchastkasi berish to‘g‘risidagi ariza so‘ralayotgan yer uchastkasining joylashgan joyi, maydoni, dehqon xo‘jaligining tarkibi hamda yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanish ko‘rsatilgan holda qishloq xo‘jaligi (mahalla fuqoralar yig‘iniga) boshqaruviga yoxud boshqa qishloq xo‘jaligi yoki o‘rmon xo‘jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining ma‘muriyatiga beriladi. Dehqon (**shaxsiy yordamchi**) xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas. Dehqon (**shaxsiy yordamchi**) xo‘jaligi boshlig‘i qonun

⁷ O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2021 yil 13 yanvarda qabul qilingan. Senat tomonidan 2021 yil 12 martda ma‘qullangan.

hujjatlarida belgilangan tartibda yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilgan oila boshlig'i yoki oilaning muomalaga layoqatli a'zolaridan biridir. Dehqon (**shaxsiy yordamchi**) xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish dehqon (**shaxsiy yordamchi**) xo'jaligining doimiy yashash joyidagi tuman hokimligi tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur hujjatlar bilan birgalikda ariza berilgan paytdan e'tiboran uch kun ichida amalga oshiriladi. Dehqon xo'jaligi yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashda fermer xo'jaliklarining o'rni beqiyosdir. Yurtimizda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy subyekti hisoblanadi. Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda fermer xo'jaliklari bilan bir qatorda dehqon (**shaxsiy yordamchi**) xo'jaliklari ham o'z o'rniga ega. O'z navbatida, bu ikki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-biridan farqli jihatlari ham mavjud. "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkasidan foydalanib qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir⁸. Ya'ni, fermer xo'jaligi albatta yuridik shaxs sifatida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi. Dehqon xo'jaligi esa, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga binoan "dehqon xo'jaligi meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining shaxsiy mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatini bog'dorchilik va uzumchilikka yoki sabzavot va poliz ekinlarini yoxud

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni 30.04.1998 y. n 602-i (yangi tahriri)

boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashish asosida amalga oshiradi. Dehqon xo'jaligining faoliyati tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi va dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda ham, yuridik shaxs tashkil etmasdan ham amalga oshirilishi mumkin⁹.

Quyidagi 1.1-jadvalda qishloq xo'jaligida yaratilgan mahsulot va ekin maydonlarining yillar davomida o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida yaratilgan mahsulot va ekin maydonlarining yillar davomida o'zgarishi¹⁰, mlrd.so'm/ ming gektar.

Ko'rsatkichlar	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2020 y	2021 y
Ekin maydoni	3778,3	3647,5	3708,4	3694,2	3396,1	3260,7
Qishloq xo'jaligi mahsuloti	1387,2	5978,3	30856,7	99604,6	250250,6	303415,5

Ushbu jadvalda ekin maydonlari bilan yetishtirilgan mahsulot hajmi o'zgarishi keltirilgan bo'lib, unda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish yillar davomida o'sgan va ekin maydonlari kamayib borganligi kuzatishimiz mumkin.

Quyidagi 1.2-jadvalda O'zbekiston hududlari miqyosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish dinamikasi keltirilgan.

1.2-jadval

O'zbekiston hududlari miqyosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish dinamikasi¹¹, foizda

Hududlar	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2020 y	2021 y
O'zbekiston, jami	103,1	105,4	106,3	106,1	102,7	103,9
Qoraqalpog'iston	65,6	104,6	121,3	109,8	102,3	104,2
Andijon	110,2	104,7	108,0	106,3	101,1	104,5
Buxoro	106,3	109,2	107,6	107,1	101,9	104,7
Jizzax	100,1	104	106,4	106,7	102,7	104,2
Qashqadaryo	89,4	109,6	107,0	106,1	103,7	101,3
Navoiy	105	107,5	105,9	106,6	103,3	104,4
Namangan	111,5	103,1	105,8	106,3	104,0	107,0
Samarqand	104,8	103,9	107,0	107,1	102,5	103,1
Surxondaryo	106,7	100,5	105,2	106,3	105,3	104,2
Sirdaryo	101,9	112,9	105,6	105,5	101,8	103,8
Toshkent	114,9	103,8	102,9	103,3	100,1	104,1
Farg'ona	113,5	107,2	106,1	105,7	104,9	103,2
Xorazm	82,8	103,2	102,5	105,5	101,7	102,9

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2021 yil 13 yanvarda qabul qilingan. Senat tomonidan 2021 yil 12 martda ma'qullangan.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonchilik sohasi 49,9%, chorvachilik sohasi 50,1 foizlik ulushni tashkil qilgan. Bunda Andijon viloyati dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda eng yuqori ulush (61,9%, 38,1%)ga ega bo‘lgan bo‘lsa, Navoiy viloyati eng kam ulushga (34,2%, 65,8%) ega bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

1.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi,¹² foizda

Ko‘rsatkichlar	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2020 y	2021 y
Jami -barcha toifadagi xo‘jaliklar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Jami –fermer xo‘jaliklari	5,5	24,3	36,3	30,7	28,2	29,3
Jami -dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	66,7	61,7	61,6	66,9	67,4	65,5
Jami qishloq xo‘jaligi tashkilotlari	27,8	14,0	2,1	2,4	4,4	5,2
Dehqonchilik – fermer xo‘jaliklari	9,7	41,6	59,1	52,0	52,0	53,1
Dehqonchilik -dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	43,9	37,1	39,4	46,2	42,3	40,0
mahsuloti ishlab chiqarish	46,4	21,3	1,5	1,8	5,7	6,9
Chorvachilik –fermer xo‘jaliklari	1,3	2,7	3,9	4,0	4,9	5,3
Chorvachilik -dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	89,7	92,6	93,1	92,9	92,0	91,1
Chorvachilik -qishloq xo‘jaligi tashkilotlar	9,0	4,7	3,0	3,1	3,1	3,6

Yuqoridagi 1.3-jadvalda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining tarkibi yillar davomida o‘zgarishi keltirilgan bo‘lib, unda fermer xo‘jaliklari va dehqon fermer xo‘jaliklarini o‘sib borishi hisobiga jami qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining ulushi kamayib borishini kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimizda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar ulushi (65,9%), fermer xo‘jaliklari ulushi (29,2%), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi (4,9%) ko‘rinishda taqsimlangan. Bunda asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari ulushi sut (93,8%), go‘sht (tirik vaznda) (89,3%), kartoshka (74,7%), sabzavotlar (60,7%) hamda tuxum (60,5%) bo‘yicha yetakchilik qilmoqda.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

1.4-jadval**O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlar¹³,
ming tonnada**

Mahsulot turi	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2020 y	2021 y
Don va dukkakli ekinlar	4 101,4	6 540,9	7 504,3	8 173,5	7 636,0	7 634,6
Kartoshka	731,1	924,2	1 694,8	2 586,8	3 143,8	3 285,6
Sabzavotlar – jami	2 644,7	3 517,5	6 262,4	9 390,0	10 431,4	10 850,2
Oziqbop poliz	451,4	615,3	1 182,4	1 853,6	2 134,4	2 285,3
Mevalar va rezavorlar	790,9	949,3	1 676,3	2 467,9	2 812,6	2 852,6
Uzum	624,2	641,6	979,3	1 518,2	1 606,9	1 695,3
So‘yish uchun mol va parranda (tirik vaznda)	841,8	1 061,5	1 461,4	2 033,4	2 519,6	2 635,1
Sut	3 632,5	4 554,9	6 169,0	9 027,8	10 976,9	11 274,2
Olingan tuxum	1 254,4	1 966,7	3 061,2	5 535,4	7 781,2	7 788,4
Asal, tonna	2 685,0	2 115,7	3 171,9	10 157,0	13 357,8	14 066,9
Qirqib olingan jun, tonna	15 849	20 081	26 510	36 029	35 422	36 345
Olingan qorako‘l terilar	747,6	688,7	934,9	1 032,0	1 152,1	1 252,4
Pilla, tonna	16 479,0	16 211,0	25 151,8	26 293,0	20 941,9	22 769,9

Yuqoridagi 1.4-jadval ma’lumotlaridan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish yillar davomida o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda o‘tgan yillar davomida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i asosan paxta va g‘alla ekinlari uchun ixtisoslashganligi sababli, yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlarida don va dukkakli don ekinlari tarkibida g‘alla judda katta ulushga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi o‘rinlarda makkajo‘xori doni, sholi va boshqa turdagi dukkakli ekin (no‘xat, loviya, yasniq)larni yetakchilik qilib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda 2000 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan davrda mamlakatimizda yetishtirilgan texnik ekinlar to‘g‘risida statistik ma’lumotlar keltirilgan(1.5-jadval).

1.5-jadval**O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan texnik ekinlar¹⁴, ming tonnada**

Mahsulot turi	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.
qand lavlagi	-	-	-	-	3,1	2,4
tamaki	24,4	10,2	10,4	7,1	5,6	3,9
don uchun kungaboqar	5,0	10,5	27,2	50,1	36,7	39,4
kunjut	2,2	2,3	3,9	6,1	12,8	15,7
maxsar	1,1	7,1	20,6	28,9	8,9	5,5
Yer yong‘oq	11,3	9,0	7,6	7,2	32,5	31,7

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.


Yuqoridagi jadvaldan 2000-2021 yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan texnik ekinlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu jadvalda o‘tgan yilga nisbatan don uchun kungaboqar hamda kunjutni istisno qilganda keltirilgan barcha texnik ekinlarda pasayishni kuzitishimiz mumkin.

1.6-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan sabzavotlar¹⁵,
ming tonnada**

Mahsulot turi	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.
Pomidor	1 011,1	1 317,1	2 042,1	2 562,3	1 928,5	2 206,6
Bodring	153,8	200,2	336,8	840,2	812,7	890,4
Baqlajon	-	-	-	-	188,0	210,3
Qalampir	-	-	-	-	271,5	260,5
Sabzi	367,1	505,8	1 310,7	2 055,4	2 876,0	3 155,7
Piyoz	431,3	546,3	822,5	1 206,6	1 256,1	1 200,0
Sarimsoq	-	32,1	45,7	165,8	223,7	195,5
Karam	206,2	287,3	585,3	952,6	658,6	680,6
Qo‘ziqorin	-	-	-	-	0,02	0,0
Jami	2 644,7	3 517,5	6 262,4	9 390,0	10 431,4	10 850,2

O‘rganilayotgan davr mobaynida mamlakatimizda yetishtirilgan sabzavotlar orasida milliy an‘analarimizdan kelib chiqib, sabzi eng yuqori o‘rinni, pomidor va piyoz navbatdagi o‘rinlarni egallagan.



1.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mevalar¹⁶, ming tonnada

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Yuqoridagi rasmdan, olma, o‘rik va shaftoli qolgan mevalarga qaraganda ancha katta ulushga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi (1.2-rasm).

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida go‘sht va go‘sht mahsulotlari ham yuqori o‘ringa ega hisoblanadi. Quyidagi 1.7-jadval ma‘lumotlarida go‘sht uchun yetishtirilayotgan mol va parrandalar haqida statistik ma‘lumotlar keltirilgan.

1.7-jadval

O‘zbekiston Respublikasida so‘yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar (tirik vaznda)¹⁷, ming tonnada

Mahsulot turi	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.
Jami	841,8	1 061,5	1 461,4	2 033,4	2 519,6	2 635,1
yirik shoxli qoramol	674,0	836,3	1 115,6	1 517,1	1 925,9	1 987,5
qo‘y va echki	138,2	169,5	270,4	386,8	394,8	409,6
Cho‘chqa	6,4	21,6	23,6	22,5	3,9	3,2
Parranda	18,1	27,3	42,9	90,7	181,1	220,7
otlar, tuyalar, quyonlar va boshqalar	5,1	6,8	8,9	16,3	13,9	14,1

Yuqorida keltirilgan jadvaldan, yirik shoxli qoramollar eng asosiy o‘rinni egallaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Quyidagi jadvalda eksport qilingan qishloq xo‘jaligi asosiy mahsulotlari dinamikasi keltirilgan.

1.8-jadval

O‘zbekiston Respublikasida eksport qilingan qishloq xo‘jaligi asosiy mahsulotlari dinamikasi¹⁸, ming AQSh doll.

Nomi	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2020 y.
Jami	3 260 822,4	5 403 977,1	13 023 390,0	12 507 618,1	15 102 281,2
Tirik hayvon	124,5	266,0	1 265,6	2 586,2	5 295,4
Go‘sht va parranda yarim tayyor mahsulotlari	4,8	1 036,1	0,0	1 008,8	44,4
Baliq va suv hayvonlari	2,1	295,2	3 037,2	4,5	594,9
Sut, parrnada tuxumi va tabiiy asal	518,3	515,6	1 066,0	1 124,0	7 750,8
Daraxt va o‘simliklar	3 248,5	416,8	2 125,6	2 596,6	64 157,1
Kofe va choy	617,2	677,1	5 174,8	5 223,0	14 783,8
O‘simlik va hayvon yog‘ va moy mahsulotlari	6 699,7	12 309,2	1 417,5	479,4	30 860,0
Go‘sht va baliqdan tayyorlangan tayyor mahsulotlar	152,4	253,4	0,1	245,0	294,6
Ipak	34 578,6	10 457,9	20 371,0	20 235,7	74 927,4
Jun	14 850,5	2 167,4	2 886,1	1 529,5	1 348,1
Paxta	1 014 875,2	1 189 938,2	2 019 429,6	1 324 390,0	1 200 084,1

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

Yuqoridagi jadvalda 2000 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan davrda qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan ayrim eksport mahsulotlarning o‘shish dinamikasi keltirilgan bo‘lib, barcha tahlil qilinayotgan mahsulot turlari bo‘yicha o‘shish dinamikasini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi (1.8-jadval).

O‘zbekiston iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida kuzatilayotgani kabi, agrar sohada ham keng islohotlar natijasida rivojlanishning yangi yo‘nalishlari kengaymoqda hamda qishloq joylarda ishsizlik darajasi pasayib, aholining daromadlari o‘smoqda.

1.2. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining tarkibiy o‘zgarishlarini statistik o‘rganishning nazariy asoslari

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham «qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish, agrologistik markazlarni rivojlantirish, zamonaviy laboratoriyalar sonini ko‘paytirish, urug‘chilik va ko‘chat yetishtirish bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish, xalqaro qishloq xo‘jaligi universitetini tashkil etish, sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish»¹⁹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar samarali ijrosini ta‘minlash maqsadida respublika hududlarida agrar tarmoqda faoliyat yuritayotgan subyektlar faoliyatini iqtisodiy-statistik tahlil qilish, ularning iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni tadqiq etishning dolzarbligi ilmiy ishimizning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Yuqorida keltirilgan tadbirlarning samaradorligini oshirishda albatta statistik tahlillar o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Shu boisdan, mamlakatimizda statistika tizimini tubdan isloh qilish maqsadida olib borilayotgan islohotlar qatorida 2020-

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60 sonli Farmoni. Lex.uz

2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida statistikasi rivojlantirishning milliy strategiyasi²⁰ning ishlab chiqilganligi va ushbu strategiyada aynan agrar sektor ham diqqat markazida bo‘layotganligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5853-son Farmoniga muvofiq qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini 2023 yilda amalga oshirilishini belgilab qo‘yilganligi bilan izohlashimiz mumkin bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan Strategiyaning keng qamrovli, dinamik va yuksak maqsadlarni o‘z ichiga olgan milliy islohotlar dasturidir va mamlakatning barqaror rivojlanishini jadallashtirishning muhim poydevori hisoblanib, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish deb nomlangan uchinchi ustivor yo‘nalishida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagi chora tadbirlar qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish va davlat agrar siyosatining asosiy maqsadlarini ifodalab beradi. Shu bilan birga tarmoqning rivojlanishiga davlat tomonidan beriladigan e‘tibor va yaratiladigan iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoit yaratilishi va huquqiy himoya qilinishiga bog‘liq hisoblanadi. Bunda qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish uchun turli maqsadlarni ko‘zlab, davlat agrar siyosat yuritadi (1.9-jadval).

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilmasi va uni shakllantiruvchi omillar obyektiv iqtisodiy qonuniyatlar asosida shakllanadi. Bularning eng asosiylari quyidagilar hisoblanadi: iste‘molchilarning talabi; sanoat ishlab chiqarishning erishilgan darajasi; tabiiy-iqlim, yer-suv mehnat resurslarining mavjudligi; qishloq xo‘jaligidagi fan texnika taraqqiyoti darajasi; ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi; mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari; xalqning milliy va an‘anaviy qadriyatlarini; mahsulotlarga davlat buyurtmalari ta‘siri; mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega tarmoqlar va oziq-ovqat havfsizligi; investitsiyalarning yo‘naltirilishi va kirib kelishi.

²⁰ 2020-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida statistikasi rivojlantirishning milliy strategiyasi.

1.9-jadval

Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish va davlat agrar siyosatining asosiy maqsadlari²¹

Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish	Davlat agrar siyosati
1. Qishloq xo‘jaligini mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish	1. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mulkiy resurslarni ishlab chiqarish hajmini ta‘minlash. Ishlab chiqaruvchilarni mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta‘minlashi
2. Daromadlar o‘sishi va kredit resurslari hisobiga qishloq xo‘jaligi subyektlari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash	2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan tabiiy resurslardan foydalanishni saqlash va ko‘paytirish
3. Qishloq xo‘jaligining ustuvor sohalarini jadal rivojlanishini ta‘minlash	3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining samarali faoliyat yurituvchi bozorini shakllantirish, agrar tarmoq subyektlari rentabelligini oshirishni ta‘minlash va ushbu bozor infratuzilmasini rivojlantirish
4. Agrar tarmoq subyektlari asosiy fondlarini yangilash, tarmoqni texnik va texnologik modernizatsiyalashni ta‘minlash	4. Qulay investitsiya muhitini yaratish va qishloq xo‘jaligiga investitsiya hajmini oshirish
5. Tashqi savdo va monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solish	5. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish
6. Qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, qishloq aholisining bandligi va turmush darajasini oshirish	6. Qishloq xo‘jaligini kadrlar bilan ta‘minlash
7. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga konsalting xizmatlarini ko‘rsatish, innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish	7. Yerdan va qishloq xo‘jaligining mulkiy majmuasidan foydalanishini ta‘minlash
8. Davlat agrar siyosatini amalga oshirishda axborot ta‘minoti	8. Agrar tarmoq bo‘yicha axborotlar bazasini shakllantirish va uni doimiy yuritish.

Xalqaro standartlarga muvofiq qishloq xo‘jaligi statistikasining ishonchli tizimini ishlab chiqish 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish milliy strategiyasi³³da strategik maqsadlar va tadbirlarni amalga oshirishdagi yutuqlarni baholashni ta‘minlaydigan asosiy strategik ustuvor yo‘nalish

²¹ Muallif tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar asosida tuzilgan.

³³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5853-son Farmoni

sifatida belgilangan. Ushbu strategiyaga muvofiq, 2023 yilning birinchi choragida qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish rejalashtirilgan.

Ushbu Strategiya³⁴ga muvofiq, 2023 yilning I choragida qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish rejalashtirilgan bo‘lib, unda, agrotexnika tadbirlari, ayrim turdagi qishloq xo‘jalik ekinlarning vegetatsiya davri, ularni yetishtirish, iqlim sharoitiga va boshqa sabablarga ko‘ra I chorakda qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish samarasiz ekanligi bois, 2024 yilda qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish maqsadga muvofiqroq bo‘ladi. Shu bilan birga uy xo‘jaliklari, biznes bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi tanlama kuzatuvlari rasmiy statistik ma‘lumotlarni olish uchun eng muhim vosita ekanligi belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, fermer xo‘jaliklari kuzatuvlari doirasida qishloq xo‘jaligi (dehqonchilik va chorvachilik) mahsulotlari, shuningdek, chorva mollari va parrandalar soni bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni tayyorlash nazarda tutilgan.

Davlat statistika qo‘mitasi korxonalar va tashkilotlarning statistik hisobotlari, qishloq xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlari, qishloq xo‘jaligi va fermer xo‘jaliklari kuzatuvlari asosida qishloq xo‘jaligi statistikasini shakllantirishi hamda davlat statistika qo‘mitasi FAO (Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) bilan oziq-ovqat balansini tuzishda yaqindan hamkorlik qilishi ushbu strategiyada ko‘rsatib o‘tilgan.

Mamlakatimizning YaIMining 28,8% hamda ishchi kuchining 28% qishloq xo‘jaligi hisobiga to‘g‘ri kelishi uning iqtisodiyotning muhim sektori ekanligini belgilaydi va bu qishloq xo‘jaligi statistikasiga ehtiyoj katta ekanligini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi statistikasi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xarajatlar usuli bilan YaIM hisoblab chiqish uchun qishloq xo‘jaligi sohasiga oid ko‘rsatkichlardan ma‘lumotlar manbasi sifatida foydalanish mumkin bo‘ladi.

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5853-son Farmoni

Qishloq xo‘jaligi statistikasini shakllantirishda ishonchli va keng qamrovli milliy qishloq xo‘jaligi statistikasi tizimini ishlab chiqish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat statistikasining ishonchliligini oshirish, qishloq xo‘jaligida tendensiyalar va bozor narxlari bo‘yicha ma’lumotlarning mavjudligini oshirish, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyati unumdorligi bo‘yicha ma’lumotlar ko‘lamini oshirish, qishloq xo‘jaligi kuzatuvining tashkiliy va metodologik asoslarini ishlab chiqish, ro‘yxatga olish natijalarining to‘liqligi, o‘z vaqtida va sifatini oshirish uchun ro‘yxatga olishni o‘tkazishga zarur infratuzilmani yaratish va yangi texnologiyalardan (masalan, mobil qurilmalar, geomanzilli axborot tizimlari va boshqalar) joriy qilish, qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishda ishtirok etuvchilarning salohiyati va malakasini oshirish maqsadida kadrlarni tayyorlash sohasida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur bo‘ladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi tizimning barcha elementlarini qamrab oladigan murakkab, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ushbu hodisaning to‘liq tavsifini tuzishda hisobga olish juda muhimdir. Ko‘pgina iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun tizimni rivojlantirish muammosi, xuddi iqtisodiy o‘sinh yalpi mahsulot hajmi bilan baholanganidek, uning iqtisodiy tuzilishidagi o‘zgarishlar qonuniyatlarini o‘rganish bilan cheklanishi mumkin.

Iqtisodiyotdagi samaradorlikni oshirish jarayoni tuzilmaviy siljishlar jarayoni bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, samaradorlikni oshirish iqtisodiyotdagi tuzilmaviy siljishlarni keltirib chiqaribgina qolmay, balki tuzilmaviy siljishlar ham iqtisodiy samaradorlikni oshirishga imkon tug‘diradi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalardan amaliyotda keng foydalanish va rivojlanish yo‘nalishlarini oldindan statistik baholagan holda joriy etish masalari ilmiy tadqiqotimizning kelgusida ham dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Rossiyalik iqtisodchi olim M.A.Xolodova³⁶ qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishdagi tarkibiy o‘zgarishlar muammosini o‘rganishga bag‘ishlagan hamda qishloq xo‘jaligi va qazib olish sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlarni, shuningdek, fermer xo‘jaliklarining alohida toifalari kontekstida qishloq xo‘jaligi sohasini hisoblash usuli qo‘llab, qishloq xo‘jaligi tashkilotlari, dehqon (fermer) xo‘jaliklarida tahlillarni amalga oshiriladi. Rossiya iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi sektorini tuzish muammosi agrar tuzilma elementlari va ularning rivojlanishi o‘rtasida maqbul nisbatlarni shakllantirishga qadar qisqartirilgan sanoatni davlat boshqaruvining tizimli vazifasi sifatida qaraydi.

U³⁷ o‘zining ilmiy izlanishlari yakunida o‘rta muddatli istiqbolda qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlarning intensivligi Rossiyada kichik agrobiznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari, ularning qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi tizimi orqali integratsiyasi, bozorda yirik oziq-ovqat sotuvchilarining xatti-harakatlari, shuningdek ushbu masala bo‘yicha hukumat siyosati bilan belgilishi hamda hozirgi iqtisodiy sharoitda davlat agrar siyosatini amalga oshirish doirasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tarkibiy o‘zgarishlar strategiyasini ishlab chiqish zarurati mavjud bo‘lib, uning vektori milliy ustuvorliklarni rivojlantirishga – kichik formatdagi sektorni qayta qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi kerak. ish bilan ta‘minlaydigan qishloq xo‘jaligi, qishloq qashshoqligiga qarshi kurash, strategik maqsad va vazifalarga erishishini xulosa qilgan.

F.R.Gazimagomedova³⁸ rahbarligidagi iqtisodchi olimlar guruhi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish jarayonlarining xususiyatlari va ishlab chiqarish o‘sishini to‘xtatuvchi salbiy omillar ustida statistik taxlil o‘tkazganlar.

³⁶Холодова М.А.Структурные сдвиги развития аграрного сектора россии в рамках реализatsii natsionalnykh prioritetov.Научный журнал Российского НИИ проблем мелиорatsii,№4(40),2020г.256–272

³⁷Холодова М.А. Структурные сдвиги развития аграрного сектора россии в рамках реализatsii natsionalnykh prioritetov. Научный журнал Российского НИИ проблем мелиорatsii,№4(40),2020г.256–272

³⁸ Газимагомедова Ф.Р.Реформирование аграрного сектора экономики//Вестник Евразийской науки,2019 №2

Qirg'izistonlik iqtisodchi olim A. Turdalieva³⁹ o'zining ilmiy izlanishlarida Qirg'iziston misolida iqtisodiy ishlab chiqarish tarkibini kirim-chiqim usuli bilan tahlil qilgan bo'lib, kirim-chiqim modellari doirasida ishlab chiqarish tarkibini davrlararo taqqoslash tarmoqlararo o'zaro bog'liqlik, ishlab chiqarish texnologiyasi, oraliq mahsulotlar va asosiy xom ashyolardan foydalanish kabi mavzularni o'z ichiga olishini kelirib o'tgan.

Iqtisodchi olimlardan O.A. Suxarev⁴⁰, R.M. Uzyakov⁴¹ va T.A. Dubrova⁴²lar iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektoridagi tarkibiy o'zgarishlar ishlab chiqarish usullarining o'zgarishi bilan bog'liq ekanligini, ular kelib chiqish xususiyatiga ko'ra ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarning boshqa tizimiga tayanishi hamda uning tarkibiy elementlari, iqtisodiy subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va ehtiyojlari o'rtasidagi muayyan munosabatlar va nisbatlarni tavsiflashini va ularning miqdoriy ko'rsatkichlariga olib kelishi hamda agrar dinamikaning sifat o'zgarishlari bo'lishini ta'kidlaganlar.

V.Ya. Uzun⁴⁴ yirik qishloq xo'jaligi xoldinglarida ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash qishloq joylarida bandlikning qisqarishi va qishloq infratuzilmasining notekis rivojlanishi bilan bog'liq ijtimoiy keskinlikning rivojlanishiga sabab bo'lishi, mamlakatda kichik agrobiznesning rivojlanishi nafaqat mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga, balki qishloq joylarida dehqonchilikning ko'p qatlamli shakllarini rivojlantirishga, qishloq aholisining o'zini o'zi ish bilan ta'minlashga, qishloq infratuzilmasini yaxshilashga, qishloq aholisining real pul daromadlarining dinamik

³⁹ A. Турдалиева, Анализ структурных изменений в экономике Кыргызстана за период 2005-2010 гг. <https://dergipark.org.tr>

⁴⁰ Сухарев, О. А. Структурная динамика экономики России: к новой модели роста / О. А. Сухарев // Вопросы территориального развития. – 2016. – Вып. 4(34). – С. 1–15

⁴¹ Узяков, Р. М. Метрики структурных сдвигов и необходимость учета межотраслевых связей / Р. М. Узяков // Проблемы прогнозирования. – 2020. – № 2. – С. 25–32.

⁴² Дуброва Т. А. Статистический анализ структурных сдвигов в распределении объемов добычи и экспорта нефти и газа стран – членов ОПЕК / Т. А. Дуброва, Д. Ш. Ботани // Бухгалтерский учет и статистика. – 2009. – № 9(58). – С. 308–313.

⁴⁴ Узун, В. Я. Продовольственная безопасность в условиях пандемии: риски и меры по их снижению / В. Я. Узун // Научные труды Вольного экономического общества России. – 2020. – Т. 233, № 3. – С. 502–514.

o'sishiga yordam beradi. aholi va qishloq joylarda o'rta sinfning shakllanishi, tarixiy merosni saqlashi kerakligini ta'kidlagan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarimizdan Yu.Yusupov⁴⁵ yurtimizda qishloq xo'jaligi boshqaruvida davlatning roli yuqori ekanligini va buni bartaraf etish uchun chuqur isohotlar olibborish zarurligini ta'kidlagan. Jumladan, tarmoqda faoliyat yuritayotgan dexqon va fermer xo'jaliklari o'z mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishdagi muammolar va ularning yechimlari borasida aniq ilmiy taklif va fikr-mulohazalarini keltirib o'tgan.

Taniqli iqtisodchi olimlarimizdan M.Q.Pardaev⁴⁷ning ilmiy tadqiqot ishida iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'lga o'tishda iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'ida mavjud muammolar va ularning bartaraf etish yo'llari bilan birga ushbu tarmoq oldidagi asosiy vazifalarni ham ko'rsatib bergan.

Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan ayrim mamlakatlar iqtisodiyotiga nazar tashlasak, Qozog'istonda qurg'oqchilik davrida g'alla hosildorligi keskin pasayib ketgan bo'lsada, so'nggi paytlarda yalpi g'alla hosili ortishi va yuqori eksport salohiyatiga ega bo'lishi Qozog'iston agrar sektorida barqaror moliyaviy natijalarga erishilishiga zamin yaratmoqda. Belarus qand lavlagi va texnik ekinlarni sotish bo'yicha MDH mamlakatlari orasida yetakchilik qilmoqda hamda sut va go'sht yetishtirish sohasi qayta ishlash sanoatida ustunlikka egaligi bilan ajralib turadi.

Jahonning eng yirik agrar sektori rivojlangan va yirik agrar ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi bo'lgan AQShda ushbu tarmoqni rivojlantirish va modernizatsiya qilish doimiy davlat nazoratida bo'ladi hamda agrobiznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqadi. AQShda agrar sektorni mustahkamlashda davlat proteksionizmidan keng foydalaniladi hamda qishloq joylarda rivojlangan infratuzilmani yaratish va ularning mahsulotlari bozorlarini kengaytirish orqali

⁴⁵ ЮЮсупов Ўзбекистон аграр сектори: асосий муаммолар, хусусиятлар, ислохотлар заруряти. 25.03.2019 й. [https://cabar.asia/ru/uzbekiston-agrar-sektori-\[9\].asosij-muammolar-hususiyatlar-islo-otlar-zaruriyati](https://cabar.asia/ru/uzbekiston-agrar-sektori-[9].asosij-muammolar-hususiyatlar-islo-otlar-zaruriyati)

⁴⁷ Пардаев М.Қ., Пардаев О.М. Қашқадарё вилояти иқтисодиётини ривожлантиришда инновациялардан фойдаланишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш/Инновацион ривожланиш асосида миллий иқтисодиётни модернизациялаш: муаммолари, ечимлари ва истиқболлари.–2015,22 б

fermerlarning yuqori daromadlarini saqlab qolish, ularning ijtimoiy hayotini yaxshilashdoimiy ta'minlab boriladi.

Xitoy Xalq Respublikasi qishloq aholisining daromadlari darajasi shahar aholisining daromadlari darajasiga yaqin bo'lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda yuqori quvvatga ega qishloq xo'jaligi mashinalarining yangi turlari faol qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, u yerda suvni tejaydigan tuproq sug'orish texnologiyalari qo'llanilmoqda. Bularning barchasi mamlakatda yem-xashak ekinlaridan yuqori hosil olish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlarini statistik tahlil qilishning nazariy asoslari sifatida agrar tarmoqda turli statistik formulalar mavjud bo'lib, ularning ayrimlarining tuzilishi va ulardan foydalanish yo'nalishlari borasida tadqiqot olib boramiz.

Ma'lumki, statistik ma'lumotlarni mutlaq va nisbiy miqdorlarga bo'linadi. Nisbiy miqdorlarda ifodalangan to'plam tarkibini – to'plamning tuzilmasi, uni tavsiflovchi shu nisbiy kattaliklarni esa – tuzilma nisbiy miqdorlari (tuzilma ko'rsatkichlari) deb ataladi. Tuzilma unsurini tavsiflovchi ulush yoki salmoqning o'zgarish dinamikasini kuzish orqali turli tarkibiy siljishlarni miqdoran o'lchash imkoniyati mavjud ekanligini anglashimiz mumkin bo'ladi.

1.3.Qishloq xo'jaligi tarmog'ining tarkibiy faoliyatini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi va ularning tavsifi

Agrar sektorda ikki davrning tarkibiy siljishlarini statistik baholash quyidagi maqsadlar asosida amalga oshiriladi:

1) agrar sektorni tashkil qiluvchi ulushlarining bir davrda boshqa davrga nisbatan o'zgarishini aniqlash;

2) tarkibiy siljishlar kuchini, keskinligini umumlashtirilgan holda miqdoran baholash.

Ikki yoki undan ortiq davrlarda sodir bo'lgan tarkibiy siljishlarni statistik baholash uchun ikki guruh ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

1. To'plamning bir turdagi qismlarini ifodalovchi ulushlar orasidagi farqqa asoslangan ko'rsatkichlar.

2. To'plamning bir turdagi qismlarini ifodalovchi ulushlarning nisbatiga asoslangan ko'rsatkichlar.

Birinchi guruhning dastlabki ko'rsatkichi, to'plamning i -qismini ifodalovchi ulushlarning "mutlaq" qo'shimcha o'sishi bo'lib, bunda ulushlarning "mutlaq" qo'shimcha o'sishini o'rganishda "mutlaq" iborasini qo'shtirnoq ichiga olish qabul qilingan, chunki bu ko'rsatkich o'lchov birligi jihatidan emas, hisoblash usuli jihatidan mutlaq ko'rsatkich hisoblanishi kerak bo'lib, u ma'lum tarkibiy qismning j davrda $j-1$ davrga nisbatan necha punktga ko'payganini yoki kamayganini ko'rsatadi. O.Krasilnikov⁴⁸ bu ko'rsatkichni tuzilmaviy siljishlar massasi deb atashni taklif etib, uni quyidagi formula asosida hisoblashni ta'kidlagan:

$$\Delta d_i = d_{ij} - d_{ij-1} \quad (1.1)$$

Bu yerda d_{ij} – j davrdagi to'plamning i qismini ifodalovchi ulushi;

d_{ij-1} – $j-1$ davrdagi to'plamning i qismini ifodalovchi ulushi;

i – tarkibiy qismni ifodalaydi ($i=1, n$);

j – davriy intervalni ifodalaydi ($j=1, k$).

Tuzilma ulushlarining o'sish sur'ati ko'rsatkichi tarkibiy siljishlar ko'rsatkichlari ikkinchi guruhining dastlabkisi hisoblanib, u j davrda to'plamning i qismini ifodalovchi ulushning $j-1$ davrda xuddi shu qism ulushiga nisbatini ifodalaydi:

$$i_{d_i} = \frac{d_{ij}}{d_{ij-1}} \quad (1.2)$$

Agar to'plamda qandaydir tarkibiy siljishlar o'rin egallagan bo'lsa, barcha siljishlarning bir qismi 1 dan yuqori, qolgan qismi esa 1 dan past bo'ladi.

⁴⁸ Красильников О. Количественные показатели структурных сдвигов в экономике / Современные проблемы экономики России. Деп. в ИНИОН РАН 23.07.2001 № 56644. С. 2– 11. Структурные сдвиги в экономике. Саратов: Изд-во СГУ, 2001. 164 с.)

Ulushlar dinamikasini tavsiflovchi bu ikki ko'rsatkichlar o'zaro bir-birini to'ldirgan holda, tarkibiy siljishlarni har taraflama chuqur o'rganish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ulushlarning «mutlaq» qo'shimcha o'sishi ulushlar o'zgarishining ko'lamini, ulushlarning o'sish sur'ati esa, ulushlar o'zgarishining jadalligini ifodalaydi⁴⁹.

O'rganilayotgan to'planning alohida qismlarini tavsiflovchi ulushlarning mutlaq va nisbiy o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar (ulushlarning «mutlaq» qo'shimcha o'sishi va o'sish sur'ati sifatida Keyinchalik ulushlarning “mutlaq” qo'shimcha o'sishi iborasi o'rniga “mutlaq” tuzilmaviy siljishlar va ulushlarning o'sish sur'ati o'rniga nisbiy tuzilmaviy siljishlar iborasini qo'llaymiz) butun to'plamdagi ulushlar o'zgarishini yaxlit holda o'rganish, tarkibiy siljishlarning ma'lum vaqt mobaynida o'zgarish darajasini aniqlashtirish imkonini bermaydi. Bu borada tarkibiy siljishlar o'zgarishini, ular o'zgarishining keskinligini va kuchini tahlil qilishda tarkibiy siljishlarni umumlashtirilgan holda miqdoriy baholash usuli muhim o'rin egallaydi, bunday baholash umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar tizimi yordamida amalga oshiriladi. Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar tizimini yaratishda statistik olimlar L.S.Kazines, K.Gatev, A.Salai va boshqalarning hissasi katta.

L.S.Kazines “mutlaq” va nisbiy tarkibiy siljishlarning keskinligini umumlashtirilgan holda baholash uchun klassik variatsiya koeffitsientlaridan foydalanadi. U ulushlar farqi orqali hisoblangan “mutlaq” tarkibiy siljishlarning o'rtacha chiziqli va o'rtacha kvadratik koeffitsientlarni, bazis davr ulushi bilan tortilgan nisbiy tarkibiy siljishlarning o'rtacha chiziqli va o'rtacha kvadratik koeffitsientlarini hisoblashni taklif etadi.

«Mutlaq» tarkibiy siljishlarning kvadratik koeffitsienti taqqoslanayotgan to'plam ulushlarining bir-biridan o'rtacha necha foizga farq qilishini miqdoran baholash imkonini beradi:

$$\sigma_{d_i - d_{i-1}} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (d_{ij} - d_{ij-1})^2}{n}} \quad (1.3)$$

⁴⁹ Казинец Л.С. Измерение структурных сдвигов в экономике. –М.: Экономика. 1960. С 29.

bu yerda n -to'plamda ajratilgan qismlar soni.

“Mutlaq” tarkibiy siljishlarning o‘rtacha arifmetigi nolga teng bo‘lganligi sababi ularning chiziqli va kvadratik koeffitsientlari asosida variatsiya koeffitsientini hisoblab bo‘lmaydi.

Nisbiy tarkibiy siljishlarning kvadratik koeffitsientini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$\sigma_{\frac{d_i}{d_{i-1}}} = \sqrt{\sum_{i=1}^n \frac{(d_{ij} - d_{ij-1})^2}{d_{ij-1}}} \quad (1.4)$$

Bu koeffitsient: «alohida indekslarning ularning birga teng bo‘lgan o‘rtacha ko‘rsatkichidan o‘rtacha qanchaga farq qilishini yoki boshqacha qilib aytganda, ulushlar nisbiy og‘ishining o‘rtachasi qanday ekanligini ko‘rsatadi»⁵⁰.

K.Gatevning fikriga ko‘ra «Ulushlar farqining o‘rtacha kvadratigi kabi hisoblangan tarkibiy siljishlar koeffitsientining doimiy yuqori chegarasi yo‘q, ya’ni tarkibiy siljishlarning o‘rtacha kvadratigini baholashning mezoni yoki shkalasi mavjud emas»⁵¹.

T.N.Agapova ham Gatevning fikrini ma’qullaydi va tuzilma o‘zgarishining jadalligiga shunday ta’rif beradi: «Jadallik deganda tuzilmadagi o‘zgarishlarni nisbiy jihatdan tavsiflovchi tuzilmada xaqiqatda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarning shu o‘zgarish qabul qila oladigan eng yuqori qiymatiga bo‘lgan nisbatini tushunish lozim. Tuzilma o‘zgarishining jadalligini ifodalovchi ko‘rsatkich noldan (tuzilmaning to‘liq o‘zgarmas holati) birgacha (tuzilmaning maksimal o‘zgarishi mumkin bo‘lgan xolati) oraliqda mavjud bo‘lishi shart»⁵².

Yuqoridagi fikriga qo‘shilgan holda shuni ham ta’kidlab o‘tmoqchimiz, alohida aniqlangan tarkibiy siljishlar koeffitsienti qanday ekanligini – ko‘p yoki kamligini – baholash qiyin. Faqatgina ikki yoki undan ortiq koeffitsientlar taqqoslangandagina, qaysi holatda siljishlar ko‘p yoki kamligini aniqlash mumkin.

⁵⁰ Казинец Л.С. Измерение структурных сдвигов в экономике. –М.: Экономика. 1960.С. 83-84.

⁵¹ Гатев К. Статистическая оценка различий между структурами совокупностей./ Теоретические и методологические проблемы статистики. М.: Статистика. 1979. С.91-108.

⁵² Агапова Т.Н.Статистические методы изучения структуры. Автореф...докт. экон наук, Санкт-Петербург, 1996. С.18.

L.S.Kazines ko‘rsatkichlaridagi bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida K.Gatev, A.Salai, S.V.Kurischeva, V.M.Ryabsev tomonidan u taklif etgan ko‘rsatkichlarning o‘zgartirilgan va normalashtirilgan variantlari taklif etilgan.

K.Gatevning taklif etgan tarkibiy siljishlarning integral koeffitsienti quyidagi ko‘rinishga ega:

$$K_x = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (d_{ij} - d_{ij-1})^2}{\sum_{i=1}^n d_{ij}^2 + \sum_{i=1}^n d_{ij-1}^2}} \quad (1.5)$$

Bu koeffitsientning afzallik jihati shundan iboratki, u 0 va 1 oraliqda o‘zgaradi. Integral koeffitsient nolga yaqin bo‘ladi, agar, taqqoslanayotgan tarkibiy siljishlar orasidagi farq qanchalik kichik bo‘lsa, va aksincha, koeffitsient birga yaqin bo‘ladi, agarda, ular orasidagi farq qanchalik katta bo‘lsa. «Koeffitsientning mana shunday chegaralarda o‘zgarishi tarkibiy siljishlar kuchiga statistik baho berishga va xulosalar chiqarish uchun ko‘proq imkoniyat yaratadi»⁵³. Ammo bu integral koeffitsient tarkibiy siljishlarning o‘rtacha nisbiy o‘zgarishini tavsiflay olmasligi uning imkoniyatining chegaralanganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari “mutlaq” tarkibiy siljishlarni normalashtirishda Salai indeksidan ham foydalanish mumkin⁵³.

$$I_s = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n \left(\frac{d_{ij} - d_{ij-1}}{d_{ij} + d_{ij-1}} \right)^2}{n}} \quad (1.6)$$

bu yerda: n – gradatsiyalar soni.

Bu koeffitsient ham 0 va 1 oraliqda o‘zgarib, tarkibiy siljishlarning keskinlik darajasini o‘lchash imkonini beradi, ammo agar har bir davrda qaysidir guruhning ulushi 0 ga teng bo‘lsa, bu koeffitsientni hisoblab bo‘lmaydi, chunki ildiz ostidagi kasrning sur‘atida 0 ga bo‘lish holati yuz beradi. Bundan tashqari taqqoslanayotgan davrlarning birida hech bo‘lmasa bir ulushning 0 ga teng bo‘lishi, bu koeffitsient qiymatining ortishiga va deyarli birga yaqinlashishiga olib keladi.

⁵³ Gatev K. Статистическая оценка различий между структурами совокупностей./ Теоретические и методологические проблемы статистики. М.: Статистика. 1979. С.95-96.

⁵³ Gatev K. Статистическая оценка различий между структурами совокупностей./ Теоретические и методологические проблемы статистики. М.: Статистика. 1979. С.95-96.

S.V.Kurisheva mutlaq tarkibiy siljishlarning normalashtirilgan koeffitsientining modifikatsiyalangan shaklini taklif etadi:

$$\delta_{\text{норм}} = \sqrt{\frac{L}{2} \sum_{i=1}^L (d_{ij} - d_{ij-1})^2} \quad (1.7)$$

bu yerda: L – dominant guruhlar soni.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar o‘tgan asrlardan beri amalga oshirib kelinmoqda. 1985 yildan buyon Nandi Subinay SSSR va Bangladesh Xalq Respublikasi iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi sektori tarkibini iqtisodiy va statistik o‘rganib kelgan.

A.A. Shutkov⁵⁴ iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solishda, agrosanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda mahalliy va xorijiy tajribadan foydalanish asosida qishloq xo‘jaligida yuz berayotgan ishlab chiqarishning pasayishi, millionlab gektar maydonni muomaladan chiqarish, chorva mollari va parrandalarning kamayishi sabablarini o‘rgangan.

V.M.Ryabsev esa quyidagi ko‘rsatkichni hisoblashni taklif etadi:

$$I_R = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (d_{ij} - d_{ij-1})^2}{\sum_{i=1}^n (d_{ij} + d_{ij-1})^2}} \quad (1.8)$$

T.N.Agapova tarkibiy siljishlarga tizim tuzilmasining dinamikasi sifatida yondashadi. U ham Gatevning fikrini maqullaydi va tuzilma o‘zgarishining jadalligiga shunday ta’rif beradi: «Jadallik deganda tuzilmadagi o‘zgarishlarni nisbiy jihatdan tavsiflovchi tuzilmada xaqiqatda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarning shu o‘zgarish qabul qila oladigan eng yuqori qiymatiga bo‘lgan nisbatini tushunish lozim. Tuzilma o‘zgarishining jadalligini ifodalovchi ko‘rsatkich noldan

⁵⁴ А.А. Шутьков. Структурные преобразования в аграрном секторе экономики, этапы и результаты: проблемы модернизации и импортозамещения. МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2017. Т. 8. № 1. С. 31–38

(tuzilmaning to'liq o'zgarish holati) birgacha (tuzilmaning maksimal o'zgarishi mumkin bo'lgan xolati) oraliqda mavjud bo'lishi shart»²².

T.N. Agapova tuzilmaning o'zgarish jadalligini tavsiflashda ulushlar rangi (tartib raqami bo'yicha o'rnini) orasidagi tafovutni statistik jihatdan umumlashtirilgan holda miqdoran baholash usulini ilgari suradi va quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblashni taklif etadi²³. tuzilma o'zgarishining jadalligini ifodalovchi rang o'lchovli chiziqli ko'rsatkichi hamda Spirmenning ranglar korrelyatsiyasi koefitsientining o'zgartirilgan shakli – tuzilma o'zgarishi jadalligining rangli kvadratik o'lchovi.

Rangli tuzilma o'zgarishining jadalligini ifodalovchi ko'rsatkichning formulasi quyidagicha:

$$K_{pd} = \frac{\sum_{i=1}^n |P_{ij} - P_{ij-1}|}{n^2 \div 2} \text{ yoki } K_{pd} = \frac{\sum_{i=1}^n |P_{ij} - P_{ij-1}|}{(n^2 - 1) \div 2} \quad (1.9)$$

o'z navbatida juft va toq unsurli tuzilmalar uchun.

Bu ko'rsatkich to'plamni tashkil etuvchi unsurlar, ya'ni ulushlar rangini – tartib raqami bo'yicha o'rnini aniqlashga asoslangan. Agar joriy davrdagi ranglar bazis davrdagi ranglarga nisbatan o'zgarmagan bo'lsa, ranglar tafovuti modulining yig'indisi nolga teng bo'ladi. Agar ranglar o'zgargan bo'lsa, bu yig'indi noldan farqli, to'liq qarama-qarshilikka ega bo'lsa, yig'indi o'zining maksimal qiymatiga erishadi. Bu maksimal qiymat juft unsurli tizimda $(n^2:2)$ ga, toq unsurli tuzilmada $[(n^2-1):2]$ ga teng.

Bu yerda P_{ij} va P_{ij-1} - bazis va joriy davrdagi tuzilma ulushlarining rangi (tartib raqami bo'yicha o'rnini).

Tuzilma o'zgarishi jadalligining rangli kvadratik o'lchovi:

²² Агапова Т.Н. Статистические методы изучения структуры. Автореф... докт. экон наук, Санкт-Петербург, 1996. С.18.

²³ Ўша жойда Б. 18-19., Агапова Т., Юзбашев М. Показатели интенсивности изменения структуры // Вопросы статистики. 1995. №. 4 С.25-27.

$$K_p = \frac{\sum_{i=1}^n (P_{ij} - P_{ij-1})^2}{(n^3 - n) \div 3} = \frac{3 \sum_{i=1}^n (P_{ij} - P_{ij-1})^2}{n^3 - n} \quad (1.10)$$

T.N.Agapova taklif etgan tuzilma o‘zgarishining jadalligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar ulushlarning rang o‘lchoviga asoslanganligi uchun faqatgina katta keskinlikda o‘zgargan ulushlarning siljishlarini tavsiflay oladi xolos, ba’zan ulushlar o‘zgarsada, ular rang o‘lchovining o‘zgarmasli, bu koeffitsientni qo‘llash imkonini bermaydi. Demak, Agapova taklif etgan koeffitsientlar kichik keskinlikdagi siljishlarni tavsiflashga yaramaydi.

Iqtisodiyotda sodir bo‘lgan tarkibiy siljishlarni miqdoriy baholashda xalqaro tashkilotlar ham o‘z usullarini taklif etishadi, xususan, Birlashgan millatlar tashkilotining Iqtisodiy komissiyasi tomonidan Yevropa uchun quyidagi ko‘rsatkichi taklif etilgan²⁴:

$$I = \frac{\sum_{i=1}^q |S(i,t) - S(i,0)|}{q \cdot T} \quad (1.11)$$

bu yerda: $S(i,t)$ –davrdagi i – tarmoqning mahsulot, bandlik va kapital tarkibidagi ulushi; 0 va t – o‘rganilayotgan davrning boshi va oxirini bildiradi; T – davr uzunligi; q – ulushi ortgan tarmoqlar miqdori.

Bu indeks usuliy jihatdan mukammal emas, chunki uning qiymati q ga bog‘liq bo‘lib, ulushi ortgan unsurlar soni qanchalik kam bo‘lsa, indeks shunchalik katta va aksincha, unsurlar soni ko‘p bo‘lsa, kam bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tarkibiy siljishlarni umumlashtirgan holda miqdoriy baholashning integral, normalashtirilgan, o‘zgartirilgan ko‘rsatkichlari L.S.Kazines tomonidan taklif etilgan koeffitsientlar o‘rnini bosa olmaydi. Ular faqatgina siljishlarning ahamiyatlilik darajasini, ya’ni to‘plam to‘liq o‘zgarishi mumkin bo‘lgan holatga nisbatan qanchaga o‘zgarishini tavsiflaydi xolos. Demak, “mutlaq”

²⁴Меньшиков С.М., Клименко Л.А. Длинные волны в экономике. Когда общество меняет кожу. – М.: Междунар. отношения. 1989. С.98.

va nisbiy tarkibiy siljishlarning o'rtacha kvadratik koeffitsientlar tahlilda qo'llanilish jihatidan ustunligi bilan ajraladi.

V.Bessonov tarkibiy siljishlarni tahlil qilishning asosiy vazifalari sifatida ularning jadalligini (ulushlarning oldingi davrga nisbatan o'zgarishi) va ilgarilash darajasini (ulushlarning bazis davrga nisbatan o'zgarishi) tahlil qilishni taklif etadi²⁵.

Biz ham bu fikrni ma'qullagan holda shuni, aytib o'tmoqchimiz, tarkibiy siljishlarning jadalligini statistik tahlil qilish to'plam tuzilmasining qaysi vaqt intervallari mobaynida ma'lum darajada ko'proq, yoki kamroq o'zgarishlarga uchraganligini aniqlash imkonini beradi, tarkibiy siljishlarning ilgarilash darajasi hususiyatini tahlil qilishdan maqsad, tuzilma o'zgardimi, degan savolga javob berishdan iborat.

Iqtisodiyot tuzilmasini jadal rivojlantirishning asosiy maqsadi – iqtisodiy tizimning barcha jabhalari samaradorligining o'sishiga erishishdir. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish muammosi doimo insoniyatning diqqat markazida bo'lgan va hozirda ham dolzarb ahamiyatni kasb etadiki, cheklanib borayotgan resurslar sharoitida yuksalib borayotgan ehtiyojlarni qondirish – resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotdagi samaradorlikni oshirish jarayoni tuzilmaviy siljishlar jarayoni bilan uzviy bog'langan bo'lib, samaradorlikni oshirish iqtisodiyotdagi tuzilmaviy siljishlarni keltirib chiqaribgina qolmay, balki tuzilmaviy siljishlar ham iqtisodiy samaradorlikni oshirishga imkon tug'diradi. Demak, iqtisodiyot tuzilmasining holati, uning samaradorligi iqtisodiyotning barcha jabhalarida kechayotgan siljishlarning samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyot tuzilmasining samaradorligi va tuzilmaviy siljishlar samaradorligi tushunchalarini o'zaro farqlash lozim. Agar iqtisodiyotda mehnat unumdorligi va fond samarasining ortishi, material sig'imkorligining pasayishi sodir bo'lib, shu

25 Бессонов В.А. О трансформационных структурных сдвигах российского промышленного производства // Экономический журнал ВШЭ, 4, №2, 2000. С.188-189. Бессонов В.А. Об эволюции ценовых пропорций в процессе российских экономических реформ // Экономический журнал ВШЭ, 3, №1, 1999. С.50. Бессонов В.А. Трансформационный спад и структурные изменения в российском промышленном производстве. - М.: Институт экономики переходного периода, 2001. С.67-74.

bilan birga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ijtimoiy ehtiyojlarga mosligi o‘rin egallagan bo‘lsa, iqtisodiyot tuzilmasi samarali deb hisoblanadi. Samarali iqtisodiyot tuzilmasi asosan ikki vazifani hal qilishi, ya’ni o‘zgarib borayotgan ishlab chiqarish ehtiyojlariga va shaxsiy ehtiyojlarga mos keluvchi keng assortimentdagi mahsulotlarni yaratish uchun imkon tug‘dirishi va yuqori o‘sinh sur‘atlarini ta’minlashi kerak. Ma’lumki, sifat ko‘rsatkichining o‘rtacha darajasi ikki hil kattalikka, ya’ni, birinchidan, to‘planning alohida qismlarini tashkil etuvchi o‘rganilayotgan ko‘rsatkichning qiymatiga va ikkinchidan, shu qismlarning o‘rganilayotgan to‘plam umumiy xajmidagi ulushiga bog‘liq bo‘ladi.

Agar to‘planning alohida qismlarini tashkil etuvchi o‘rganilayotgan sifat ko‘rsatkichining darajasini x simvol bilan, shu sifat ko‘rsatkichni aniqlovchi miqdor ko‘rsatkichning to‘plamdagi ulushini d bilan belgilasak, u holda, to‘plam sifat ko‘rsatkichining o‘rtacha darajasini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\bar{x} = \sum x * d \quad (1.12)$$

bu yerda:

$$d = \frac{m}{\sum m}$$

m -to‘planning alohida qismlarini tashkil etuvchi miqdor ko‘rsatkichi

Agar sifat ko‘rsatkichining umumiy o‘rtacha darajasi to‘plamni tashkil qiluvchi alohida qismlarning qiymatiga va shu qismlarning o‘rganilayotgan to‘plam umumiy hajmidagi ulushiga bog‘liq bo‘lsa, u holda sifat ko‘rsatkichining umumiy o‘rtacha darajasi shu kattaliklarning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki, o‘rtachaning umumiy o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi ikkita omilning baravariga o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan nisbiy ko‘rsatkich o‘zgaruvchan tarkibli indeks deb ataladi:

$$I_{\text{ўzgaruvchan tarkibli}} = \frac{\sum x_1 d_1}{\sum x_0 d_0} \quad (1.13)$$

Belgi o‘rtachasining umumiy o‘zgarishining dinamikasiga har bir omilning alohida ta’sirini aniqlashda o‘zgaruvchan tarkibli indeks ikkita mustaqil indeksga ajratiladi: sifat ko‘rsatkichining o‘zgarishi natijasida o‘rtacha darajaning umumiy

o‘zgarishini tavsiflovchi indeks - o‘zgarimas tarkibli indeks va shu o‘rganilayotgan to‘planning tuzilmasi o‘zgarishi natijasida o‘rtacha darajaning umumiy o‘zgarishini tavsiflovchi indeks tuzilmaviy siljishlar indeksi deyiladi.

Shunday qilib, o‘zgaruvchan tarkibli indeksni uning omillari bo‘yicha quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin²⁶:

$$I_{o'zgaruvchan\ tarkibli} = I_{o'zgarimas\ tarkibli} * I_{tuzilmaviy\ siljishlar} \quad (1.14)$$

O‘zgaruvchan tarkibli indeksni o‘zgarimas tarkibli va tuzilmaviy siljishlar indekslariga ajratishda vazn muammosi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada ikki guruh olimlar tomonidan taklif qilingan indekslar tizimi kelib chiqadi.

Birinchi guruh olimlar²⁷: Adamov V.E., Kazines L.S., Kizub P.L., Ilevskiy M., Kovalevskiy G., Mereste U va boshqalar o‘zgarimas tarkibli indeksni joriy davr vaznlari bilan, tuzilmaviy siljishlar indeksini bazis davr vaznlari bilan tortishni taklif etishadi:

$$\frac{\sum x_1 d_1}{\sum x_0 d_0} = \frac{\sum x_1 d_1}{\sum x_0 d_1} * \frac{\sum x_0 d_1}{\sum x_0 d_0} \quad (1.15)$$

Ikkinchi guruh olimlar²⁸: Baklanov G.I., Peregudov N.B., Skaldina va boshqalar o‘zgaruvchan indeksni hisoblashda o‘zgarimas tarkibli indeksni bazis davr vaznlari bilan, tuzilmaviy siljishlar indeksini joriy davr vaznlari bilan tortishni taklif etishadi:

$$\frac{\sum x_1 d_1}{\sum x_0 d_0} = \frac{\sum x_1 d_0}{\sum x_0 d_0} * \frac{\sum x_1 d_1}{\sum x_1 d_0} \quad (1.16)$$

²⁶ Ba’zi adabiyotlarda o‘zgaruvchan tarkibli indeksning uchta xadga taqsimlash taklif etiladi (Baklanov G.I., Kazines L.S., Satunovskiy L.M). Bunda o‘zgarimas tarkibli va tuzilmaviy siljishlar indeksleri bazis vaznlar bilan tortiladiva “kovariatsiya indeksi” deb nomlangan uchinchi indeks kiritiladi

$I_{o'zgaruvchan\ tarkibli} = I_{o'zgarimas\ tarkibli} * I_{tuzilmaviy\ siljishlar} * I_{kovariatsiya}$

Shuni ta’kidlab o‘tamizki, bu indekslar tizimini amaliy qo‘llanishi shunisi bilan chegaralanganki, nisbiy va mutlaq usulda tahlil qilish natijalari o‘zaro mos kelmaydi.

²⁷Адамов В.Е. Факторный индексный анализ (методология и проблемы). -М.:Статистика. 1987. - 199с. Казинец Л.С. Теория индексов. -М.: Госстатиздат. 1963.-351с. Ильевский М., Ковалевский Г. По поводу измерения влияния структурных сдвигов.// Вестник статистики. 1970. №1. С.34-38.Мересте У. Н. Очерки по индексной теории. Таллин. 1969. -171с.

²⁸Бакланов Г.И. Некоторые вопросы индексного анализа. -М.: Статистика. 1972. -72с. Перегудов В.Н. Теоретические вопросы индексного анализа. – М.: Госстатиздат. 1960. -267с.

Haqiqiy ma'lumotlarning aniq tahlilini amalga oshirish uchun, mavjud ikki indekslar tizimidan qaysi biri eng ma'qul kelishini hal qilishimiz lozim.

Dastavval o'zgarmas tarkibli indeks va tuzilmaviy siljishlar indekslarining asosiy hususiyatlarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

O'zgarmas tarkibli indeksning o'ziga xos hususiyati shundan iboratki, uning sur'atida ham, mahrajida ham bir davrga tegishli bo'lgan to'plam tuzilmasidan foydalaniladi. O'zgarmas tarkibli indeksdan foydalanish shundan iboratki, o'zgarmas tuzilma sharoitida sifat ko'rsatkichi darajasining o'zgarishi natijasida sifat ko'rsatkichining umumiy o'rtacha darajasining o'zgarishini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bunda vazn sifatida to'plamning ham bazis davridagi, ham joriy davrdagi tuzilmasi qo'llanilishi mumkin. U xolda ham, bu holda ham o'zgarmas tarkibli indeks hosil buladi. Bizning fikrimizcha, hozirgacha dominant guruhlarni tanlash usuli aniq emasligi hamda bazis va joriy davrdagi ulushlar keskin o'zgarsada, ularning mutlaq miqdorlarining bir davrda bir-birga deyarli teng bo'lishi bu koeffitsientning 1 dan ortishiga olib kelishi mumkin bo'lishi ushbu ko'rsatkichlarda ayrim kamchiliklar mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib, iqtisodiyot tuzilmasini jadal rivojlantirishning asosiy maqsadi iqtisodiy tizimning barcha jabhalari samaradorligining o'sishiga erishish hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish muammosi doimo insoniyatning diqqat markazida bo'lgan va hozirda ham dolzarb ahamiyatni kasb etadiki, cheklanib borayotgan resurslar sharoitida yuksalib borayotgan ehtiyojlarni qondirish – resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishning umumiy konsepsiyasiga ko'ra iqtisodiyotning agrar sektordagi tarkibiy siljishi uning ichki tuzilishining tuzilish elementlari o'rtasidagi munosabatlar va nisbatlarning ehtiyojlari va manfaatlari bilan birlashtirilgan o'zgarishi hisoblanadi. strukturaviy siljishlarni har tomonlama baholash uchun qishloq xo'jaligi tarkibidagi o'tgan va keyingi o'zgarishlarning samaradorligini (yalpi mahsulot, sotishdan tushgan daromad va foydani ko'paytirish (kamaytirish), ishlab chiqarish rentabelligi darajasi va boshqalarni aniqlash uchun

aniq va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar, ma'lumot manbalari, uslubiy vositalar ishlab chiqish zarur.

Tarkibiy o'zgarishlar natijasida sodir bo'lgan o'zgarishlarni baholash, takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvi asosida mintaqaning agrar tuzilishidagi tarmoq, tashkiliy, iqtisodiy, hududiy va resurs salohiyati kabi o'zgarishlarni tahlil qilish o'ta muhim hisoblanadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni statistik tadqiq etishning nazariy asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi:

1. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining tarkibiy tuzilmasida sodir bo'ladigan siljishlar turli omillar, ya'ni, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning, shart-sharoitlarning, mulk shaklidagi o'zgarishlar, tabiiy-iqlim omillari, ilm-fan va texnika yutuqlari, moliyaviy omillar ta'sirida vujudga kelishi ushbu omillarni statistik baholash orqali tarmoqda yuz berayotgan iqtisodiy siljishlarga statistik baho berish imoniyatini oshirib, kelgusi davrlar uchun prognoz qilingandan natijalarning aniqlik darajasi yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

2. Nisbiy miqdorlarda ifodalangan to'plam tarkibini – to'plamning tuzilmasi, uni tavsiflovchi shu nisbiy kattaliklarni esa – tuzilma nisbiy miqdorlari deb atashimiz mumkin bo'ladi. Tuzilma unsurini ifodalovchi salmoq yoki ulushning o'zgarish dinamikasini kuzatib, istalgan tarkibiy siljishlarni miqdoran hisoblash mumkin bo'ladi.

3. O'zbekiston kelajakda rivojlanishini barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiyot tuzilmasidagi siljishlarning zaruriyati islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangi ijtimoiy-iqtisodiy darajaga ko'tarishda o'z aksini topadi. Ushbu mavzudagi tadqiqot olib boruvchi olimlar oldida iqtisodiyot tarmoqlarida vujudga kelayotgan siljishlarni miqdor va sifat borasida keng qamrovda tadqiq qilish

orqali samarali iqtisodiyot tuzilmasini shakllantirishdagi o'rnini aniqlash vazifasi turibdi.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tuzilmasida sodir bo'lgan siljishlarni statistik o'rganish usullari universal bo'lib, ularning iqtisodiyotning barcha jabhalari va darajalarida qo'llash imkonini beradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy tuzilmasida sodir bo'ladigan siljishlar turli omillar, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning, shart-sharoitlarning, mulk shaklidagi o'zgarishlar, tabiiy-iqlim omillari, ilm-fan va texnika yutuqlari, moliyaviy omillar ta'sirida vujudga keladi.

5. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi siljishlar turli omillar ta'sirining natijasidir. Bu omillar alohida va o'zaro bog'langan holda ta'sir qilish mumkin. Shu sababli, tarkibiy siljishlar ro'y berish jarayonida ularning mazmuni va o'rnini turlicha ifodalanadi. Bundan tashqari, bu omillar zamon va makonda turlicha ta'sirga ega hisoblanadi.

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING TARKIBIY FAOLIYATINI IFODALOVCHI STATISTIK KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING IQTISODIY- STATISTIK TAHLILI

2.1. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi asosiy tendensiyalar va ulardagi tarkibiy o‘zgarishlarni iqtisodiy-statistik tahlili

Jahon iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirilishi natijasida iqtisodiy tarmoqlarda jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bunga asosiy sabab tarmoqlar rivojlanishi uchun tarkibiy o‘zgarishlar innovatsiya yutuqlarini qo‘llagan holda amalga oshirilishi va zamonaviy agrotexnika vositalaridan keng foydalanilishi natijasida yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishini qishloq xo‘jaligi tarmog‘i bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Aholini sifatli oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlashda, sanoat tarmog‘ini xom ashyo bilan ta‘minlashda mazkur tarmoq asosiy o‘ringa ega hisoblanadi.

Prezidentimizning “Qishloq xo‘jaligi masalasini alohida e‘tiborga olib, tez-tez muhokama qilib borayotganimiz bejiz emas. Chunki bu iqtisodiyotning to‘rtidan bir qismini tashkil qiladigan muhim soha. Buning zahirida xalqimiz farovonligi, narx-navo barqarorligi, qancha ish o‘rinlari yotibdi”²⁹ deb aytgan fikri qishloq xo‘jaligini rivojlantirish zarurligini ifodalaydi.

Shu sababli, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini barqaror rivojlantirish maqsadida tarmoqda iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich, izchillik bilan olib borish, investitsiya, mehnat, moddiy, texnologik va innovatsion salohiyatlardan samarali foydalanish tarmoqda yuqori darajadagi iqtisodiy samaradorlikka erishishga olib keladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qishloq xo‘jaligi iqtisodiy islohotlar darajasida kichik tadbirkorlik faoliyati shakllarini barqaror

²⁹ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/20/agro/>

rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim sanalgan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar bosqichma – bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida ham agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va diversifikatsiyalashni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan³⁰.

Fermer xo'jaligi faoliyatini yuritish va uni olib borish to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni³¹ hamda boshqa qonun osti me'yoriy-huquqiy hujjatlar kiradi. Ushbu Qonunning maqsadi fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hozirgi kunda fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy subyektlaridan biridir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qishloq xo'jaligi iqtisodiy islohotlar darajasida kichik tadbirkorlik faoliyati shakllarini barqaror rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim sanalgan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar bosqichma – bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida ham agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va diversifikatsiyalashni qo'llab-quvvatlash uchun tajriba-sinov tariqasida investitsiyaviy dasturlarni amalga oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib o'tilgan³².

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni. <https://lex.uz>

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni. <https://lex.uz>

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni (<https://lex.uz/>).

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida erkin bozor munosabatlarini joriy etish hamda xususiy mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy islohotlar bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo‘jaligining ulushi 2020 yilda 27,1 foiz (2000 yilda 30,1 foiz)ni tashkil etib, oldingi yillarga qaraganda kamaygan bo‘lsada, ushbu tarmoqda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish yuqori sur‘atlar bilan ko‘paymoqda³³.

2020 yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi joriy narxlarda 151250,9 mlrd.so‘mni tashkil etib, 2019 yilga nisbatan esa qariyb 16,1 foizga oshgani ham shundan dalolat beradi³⁴.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida chuqur tarkibiy-tuzilmaviy o‘zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida 2020 yilda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3,0 foizga oshdi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida asosiy xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘lib, fermer, dehqon xo‘jaliklari hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hisoblanadi. Ularning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishidagi hissasi 2020 yilda mos ravishda 27,8; 68,0 va 4,2 foizni tashkil etib, yetishtirilgan kartoshkaning 20,0 foizi, sabzovotlarning 35,2 foizi, meva va rezavorlarning 40,5 foizi, uzumning 41,3 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 2020 yilda 70620,9 mlrd.so‘mni yoki 2015 va 2010 yillarga nisbatan mos ravishda 2,3 barobarga va 4,5 barobarga ko‘payib, ularning mavqei mustahkamlanib bormoqda.

Tahlillarimizga ko‘ra, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 2020 yilda ekin maydonlari 652,5 ming gektarni va birlashtirilgan yer maydonlari esa 530,9 ming gektarni tashkil etib, 2010 yilga nisbatan mos ravishda 5,7 va 6,0 foizga ko‘paygani

³³ Yillik statistik to‘plam. 2010 - 2020 yy. –Toshkent, Davlat statistika qo‘mitasi, 2021 yil.-289 bet

³⁴ O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021 yil yanvar-dekabr. Statistik to‘plam. – Toshkent, Davlat statistika qo‘mitasi, 2022 yil.- 467 bet.

holda, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati qariyb 5,9 barobarga teng bo'lgan. Bu esa ushbu xo'jaliklar toifasida yerdan hamda boshqa moddiy va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanib, ishlab chiqarishni intensiv ravishda rivojlantirilayotganligidan dalolat beradi³⁵.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini ko'p yillik tajribalari natijasida xo'jalik yuritish shakllari orasida fermer xo'jaliklari bozor talablariga ko'proq mos kelishi o'z isbotini topdi³⁶. Ular qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish va qishloq xo'jaligi tarmog'ida mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turmoqda va ularni qo'llab-quvvatlash uchun har yili katta hajmda moddiy resurslar va moliyaviy mablag'lar ajratilmoqda.

Respublikamizda chorvachilik va dehqonchilik sohasining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (1 va 2-illovalar).

1-ilova ma'lumotlarining statistik tahlili shundan dalolat beradiki, 2020 yilda fermer xo'jaliklari endi shakllanayotgan 2000 yilga nisbatan yirik shoxli qoramollar bosh soni 3,9 marta, qo'y va echkilar 15,4 marta, parrandalar soni esa 31,1 martaga ko'paygan bo'lsa, bu ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida mos ravishda 2,6; 3,0 va 5,8 barobarni, barcha xo'jalik toifalarida esa qariyb 2,4; 2,5 va 6,1 martani tashkil etgan. Natijada chorva mollari bosh sonining ko'payishi go'sht, sut va tuxum kabi chorvachilik mahsulotlarining ko'payishiga olib kelgan.

Qishloq xo'jalik ekinlarining yalpi hosili va hosildorligi dinamikasi tahlil qilingan 2-ilova ma'lumotlariga e'tibor qilsak, barcha xo'jalik toifalarida o'sish sur'atiga erishganligini kuzatish mumkin. Jumladan, 2020 yilda 2000 yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida donning yalpi hosili 10,9 martaga, sabzavotniki 28,4 martaga, mevaniki 33,9 martaga ko'paygani holda hosildorlik ko'rsatkichlari mos ravishda qariyb 1,7; 1,3; 2,2 martaga oshgan. Ushbu erishilgan ijobiy natijalar aholining

³⁵ Yillik statistik to'plam. 2010 - 2020 yy. –Toshkent, Davlat statistika qo'mitasi, 2021 yil.-289 bet

³⁶ Xo'jaqulov X.D. Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha statistik tahlili. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar“ ilmiy elektron jurnali, 2014 №3.

chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish imkoniyatini yaratmoqda.

Tahlillarimizga ko'ra, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining ulushi yuqori bo'lib, 2020 yilda jami go'shtning 91,4 foizi, sutning 94,5 foizi, tuxumning 61,9 foizi ishlab chiqarilgan bo'lsa, fermer xo'jaliklarida tegishli holda 4,4; 4,7; 13,5 foizga teng bo'lgan. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan dehqonchilik mahsulotlarining umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi ancha yuqori bo'lib, 2020 yilda 50,9 foizni, chorvachilik mahsulotlarida esa 5,1 foizni tashkil etgan³⁷.

Iqtisodiy tahlillarning ko'rsatishicha, respublika bo'yicha fermer xo'jaliklari soni optimallashtirilib, 2009 va 2015 yillarning 1 yanvar holatiga mos ravishda 218605 va 78567 tani tashkil etib, bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydoni 2,74 barobarga ko'paydi va 74 gektarga teng bo'ldi.

Ammo agrar sohada erishilgan yutuqlar talab darajasida emasligini e'tirof etgan holda, bizning fikrimizcha, ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va uni amalda qo'llashga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berish zarur.

Agar 2020 yilda barcha xo'jalik toifalarida bir sigirdan sog'ib olingan o'rtacha sut miqdori 2321,0 kg ni tashkil etgan bo'lsa, fermer xo'jaliklarida 1769,2 kg ni, dehqon xo'jaliklarida 2371,8 kg ni tashkil etgan³⁸.

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarining muvaffaqiyatli shakllanishi va rivojlanishida qishloqda kooperativ harakatning taraqqiyotini shunday darajaga ko'tarish kerakki, u nafaqat ishlab chiqarishni, balki mahsulotni qayta ishlashni va sotishni ham keng qamrab olishi zarur. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning eng samarali, taraqqiy etgan davlatlar tajribasida o'zini har tomonlama oqlagan fermerlik harakatiga o'tilishi esa soha rivojida yangi davrni boshlab berdi. Fermerlik harakatining yo'lga qo'yilishi natijasida odamlarning yerga munosabati o'zgardi,

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

ular da egalik hissi paydo bo‘ldi. Bu nafaqat yetishtirilayotgan mahsulot sifati va hajmini oshirish, balki odamlarning o‘z mehnatidan manfaatdorligi hamda turmush farovonligini yuksaltirish imkonini berdi. Ayni paytda o‘z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilgan fermerlar qishloqda islohotlarni amalga oshiruvchi yetakchi kuchga aylandi³⁹. Bugungi kunda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish mamlakat taraqqiyotining muhim jabhasiga, ayniqsa qishloq aholisining doimiy bandligi va farovonligini ta‘minlashda asosiy kuchga aylandi hamda mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda dolzarb vazifalardan bo‘lib, fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan omillarni bartaraf etish, fermerlik harakatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, jamiyatda yetakchi kuchga aylanishini ta‘minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo‘li bilan fermerlar daromadini yanada oshirishga qaratilgan masalalarning maqbul yechimlarini topish muhim bo‘lib hisoblanadi⁴⁰.

Ushbu vazifalarni bajarishda respublikamizning qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan yetishtirilayotgan hosilning yillar davomida o‘sishi tendensiyasini statistik tahlil qilish beqiyos ahamitga ega hisoblanadi (2.1-jadval).

2.1-jadval

O‘zbekistonda 2018-2021 yillarda meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishda xo‘jalik yuritish shakllari ulushi,⁴¹ foizda

№	Mahsulot turi	Fermer xo‘jaliklari		Dehqon xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi korxonalari	
		2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.
1	Kartoshka	411,6	766,1	2464,3	2462,8	36,0	56,8
2	Sabzavot	2637,0	3959,7	7006,3	6569,3	117,0	321,2
3	Meva va rezavorlar	1037,0	1210,5	1619,5	1561,4	49,7	80,7
4	Uzum	692,0	757,0	868,8	896,9	29,0	41,4

³⁹ Xo‘jaqulov X.D. Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha statistik tahlili. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar“ ilmiy elektron jurnali, 2014 №3.

⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni (<https://lex.uz/>).

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2018-2021 yy. Statistik to‘plam. Toshkent, 214-243 betlar.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulushi o'rganilayotgan yillar davomida barcha mahsulot turlari bo'yicha ustunlik qilgan. Keyingi o'rinni fermer xo'jaliklari va juda kichik ulush qishloq xo'jaligi korxonalari xissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bundan shuni anglash mumkin, qishloq xo'jaligi tarmog'ida mahsulot yetishtiruvchi dehqon-fermer xo'jaliklari uchun yaratilgan tadbirkorlik erkinligi, moddiy manfaatdorlik tizimi asosida mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish natijasida mamlakat va hududlar aholisini ichki imkoniyatlar hisobiga sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va shu asosda ijtimoiy barqarorlikka erishish masalasi mamlakatimizda eng birinchi ustuvor vazifa sifatida ilgari surildi. Ushbu maqsad doirasida, ishlab chiqarishning tarkibiga o'zgartirishlar kiritilgani holda, paxta va g'alla ekin maydonlari salmog'i sug'oriladigan ekinlar maydonlari tarkibiga nisbatan yildan-yilga qisqartirilib, uning o'rniga meva-sabzavot – poliz, uzum va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishga asosiy e'tibor qaratildi⁴².

Qishloq xo'jaligi tarmog'idagi hisob, hisobot va statistik tahlil ishlarini amalga oshirish muhim masalalardan biri hisoblanib, fermer xo'jaliklarida statistik hisob-kitob ishlari va tahlilni amalga oshirmasdan turib, mazkur qishloq subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirishga erishib bo'lmaydi⁴³. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fermer xo'jaliklari faoliyati natijalarini statistik tahlil qilish, qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga, mavjud imkoniyatlarni aniqlab topish, ularni o'z vaqtida fermer xo'jaliklari faoliyatiga joriy etish yo'llari, usullarini aniqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi⁴⁴.

⁴²Xo'jaqulov X.D., Rashitova N.X., Asqarov N.N., Sayfullaev S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida tarkibiy o'zgarishlarning samarali yo'llarini statistik metodlar asosida ishlab chiqish. Monografiya. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2018. – 206 bet.

⁴³Xojaev A.S. Voprosy sovershenstvovaniya ispolzovaniya statisticheskix issledovaniy pri sbore informatsii v sfere plodovodstva-ovoшеvodstva. International Scientific Journal "Theoretical & Applied Science" p-ISSN: 2308-4944 (print), Year: 2017 Issue: 09 Volume: 53.-p. 8-13.

⁴⁴Xojaev A.S. Farg'ona viloyatida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari iqtisodiy faoliyatini ustuvor rivojlantirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil. www.iqtisodiyot.uz

Respublika miqiyosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasini tahlil qilish orqali ekin maydonlari va hosildorlikni yetishtirilgan hosil hajmiga ta‘sirini statistik baholash imkoniyatini yaratib beradi (2.2-jadval).

2.2-jadval

O‘zbekistonda ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi⁴⁵

№	Mahsulot turi	Ekin maydoni, ming gektar		O‘rtacha hosildorlik, s/ga		Yalpi hosil, ming tonna	
		2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.
1	Kartoshka	86,8	98,7	224,8	201,7	2911,9	3285,6
2	Sabzavot	219,0	233,7	237,1	236,0	9760,3	10850,2
3	Poliz ekinlari	52,6	67,4	189,8	176,2	1837,0	2285,3
4	Meva-rezavorlar	319,2	342,5	121,6	122,1	2706,2	2852,6
5	Uzum	113,3	133,7	157,5	154,7	1589,8	1695,3

Tahlillarning ko‘rsatishicha, fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi ekin maydonlari hajmi va bunga mutanosib ravishda ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori oshib bormoqda. Ammo, fermer xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi nisbatan past sur‘atlarda oshayotganligi sababli yalpi mahsulot asosan ekin maydonlarini kengayishi hisobiga ko‘paymoqda.

Yuqoridagi 2.2-jadval ma‘lumotlaridan, kartoshka ekin maydonlarining ortishi bilan hosildorlik darajasi tushib ketganligini ko‘rishimiz mumkin. 2018 yilga solishtirganda 2021 yil yakunlari bo‘yicha meva va rezavorlarni istisno qilganda, qolgan ekinlar bo‘yicha hosildorlik pasayib ketganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. 2021 yil yakunlariga ko‘ra meva va rezavorlarda hosildorlik ko‘rsatkichi 2018 yilga nisbatan gektariga yarim sentnerdanga ortganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa albatta, barcha mahsulotlarni yetishtirishda innovatsion yangiliklarni jalb qilish va zamonaviy agrotexnik vositalarni qo‘llash va texnik parvarishlash ishlarini samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini samaradorligini statistik tahlil qilishda avvalo, tarmoqda faoliyat yuritayotgan subyektlar kesimida alohida tahlillar o‘tkazish maqsadga muvofiq hisobalanadi. Shu sababli, tarmoqda faoliyat yurituvchi fermer

⁴⁵O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2018-2021 yy. Statistik to‘plam. Toshkent, 288 b.

xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi korxonalari kesimida alohida statistik tahlillar o‘tkazamiz (2.3-jadval).

2.3-jadval

O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklarining meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi⁴⁶

№	Mahsulot turi	Ekin maydoni, ming gektar		Yalpi hosil, ming tonna		O‘rtacha hosildorlik, s/ga	
		2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.
1	Kartoshka	12,5	16,3	411,6	766,1	154,9	166,0
2	Sabzavot	60,9	61,8	2637,0	3959,7	178,9	205,7
3	Poliz ekinlari	23,4	36,5	673,6	1199,8	139,6	144,9
4	Meva-rezavorlar	172,8	184,5	1037,0	1210,5	82,5	89,9
5	Uzum	67,1	80,8	692,0	757,0	118,4	116,6

Yuqoridagi jadvaldan ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, fermer xo‘jaliklari faoliyatida 2018 yilga nisbatan 2021 yilda hosildorlik ko‘rsatkichlari barcha ekinlar bo‘yicha o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bunda yer maydonining ham kengayishi hisobiga hosil hajmining ortishida asosiy omil sifatida hosildorlik ko‘rsatkichlari o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Eng asosiy oziq ovqat mahsuloti sifatida kartoshka va sabzavotlar hosildorligi 2021 yilda mos ravishda gektariga 166,0 sentner va 205,7 sentnerga teng bo‘lgan. Bu esa aholining zaruriy va talab yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotiga bo‘lgan talabini qondirish bilan birga, narhining ham mo‘tadil bo‘lishiga zamin yaratadi.

Agrar tarmoqda asosiy o‘rinni egallagan dehqon xo‘jaliklarining meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasini tahlili respublika miqyosidagi ko‘rsatkichlarni asosini tashkil qiladi (2.4-jadval).

2.4-jadval

O‘zbekistonda dehqon xo‘jaliklarining meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi⁴⁷

№	Mahsulot turi	Ekin maydoni, ming gektar		Yalpi hosil, ming tonna		O‘rtacha hosildorlik, s/ga	
		2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.
1	Kartoshka	73,1	80,0	2464,3	2462,8	238,2	211,6
2	Sabzavot	150,5	164,0	7006,3	6569,3	266,3	250,6
3	Poliz ekinlari	26,7	27,8	1147,6	1019,7	243,3	216,5
4	Meva-rezavorlar	84,1	83,6	1619,5	1561,4	198,7	192,8
5	Uzum	40,0	40,1	868,8	896,9	222,6	229,8

⁴⁶O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2018-2021 yy. Statistik to‘plam. Toshkent, 288 b.

⁴⁷O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2018-2021 yy. Statistik to‘plam. Toshkent, 288 b.

Yuqoridagi jadvaldan, faqatgina meva va rezavorlar ekin maydoni qisqarganligini, qolgan ekin maydonlari esa ortganligini hamda o'rganilayotgan barcha ekinlar yalpi hosil hajmi pasayib ketganini, bu esa tabiiyki, hosildorlikni ham pasayib ketishiga olib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Faqatgina uzum yetishtirishda, 2021 yilda o'rtacha hosildorlik o'sib, 2018 yilga nisbatan 222,6 dan 229,8 s/gektarga ortganligini ko'rish mumkin.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida kichik ulushga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi korxonalarining meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasini tahlili ushbu xo'jalik shaklining tarmoq rivojlanishidagi ulushi kichik bo'lsada ta'siri mavjudligini ko'rsatib beradi(2.5-jadval).

2.5-jadval

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalarining meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

№	Mahsulot turi	Ekin maydoni, ming gektar		Yalpi hosil, ming tonna		O'rtacha hosildorlik, s/ga	
		2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.	2018 y.	2021 y.
1	Kartoshka	1,2	2,3	36,0	56,8	118,0	104,5
2	Sabzavot	7,6	7,9	117,0	321,2	106,0	159,9
3	Poliz ekinlari	2,5	3,1	15,8	65,9	67,5	169,5
4	Meva-rezavorlar	62,3	74,4	49,7	80,7	32,4	45,0
5	Uzum	6,2	12,8	29,0	41,4	84,3	72,8

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, poliz ekinlari yetishtirishda o'rtacha hosildorlik 2018 yilga nisbatan 2021 yilda jiddiy o'sgan bo'lib, gektariga 67,5 senterdan olingan hosil 169,5 sentnerga ortgan. Shu bilan birga, ekin maydoninig kengayishi va hosildorlik darajasining ortishi yalpi hosilning ko'payishiga zamin yaratgan.

2.2. Qishloq xo‘jaligida tarkibiy-tuzilmaviy o‘zgarishlarni statistik baholash

O‘tgan davr mobaynida agrar sektorda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirilishi, turli mulkchilik shakllarining vujudga kelishi, yerlarni o‘zining haqiqiy egalariга berilishi mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini mustahkamlash borasidagi dolzarb strategik dasturlar yaratilib, amaliyotga keng jalb qilinishi yuqori samarasini bermoqda. Natijani agrar tarmoqdagi o‘zgarishlarda ham o‘z aksini topadi.

So‘nggi yillarda agrar tarmoqda yaratilayotgan mahsulot hajmining ortishi, jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ulushining doimiy barqaror o‘sishi ushbu tarmoqning turli shakllari ortishi va ko‘rsatkichlarni yaxshilanib borishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu ko‘rsatkichlarni saqlab qolish bilan birga ularni yanada yaxshilab borish borasida yuqori salohiyat mavjud bo‘lib, agrar tarmoqda yuz berayotgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni yanada kengaytirish, maqbullashtirilgan ekin maydonlari hisobiga tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, agrar mahsulotlarni ishlab chiqarishda intensiv, resurs tejankor texnologiyalarni joriy etishni kengaytirish, tarmoqda faoliyat yuritayotgan dehqon-fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini barqarorlashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yanada yuksaltirish hisobiga tarmoqda rivojlanish tendensiyalarini yanada yuqori darajalarga chiqarish mumkin.

Quyidagi bosqichlarda yurtimizda agrar sektorda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuzaga kelgan tarkibiy o‘zgarishlar vujudga keldi:

1-bosqich, agrar sektorda amalga oshirilgan ilk tarkibiy o‘zgarishlar 1989-1991 yillarda sodir bo‘lgan bo‘lib, bu asosan tarmoqda xo‘jalik yuritishning yangi shakli hisoblangan fermer xo‘jaliklari tashkil qilina boshlanishi bilan izohlanadi. Ushbu bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.1991yildagi “Dehqon (fermer) xo‘jaliklarini yanada mustahkamlash va respublikada ishbilarmonlikni davlat yo‘li bilan qullab quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.12.1991 yildagi “Respublikada Dehqon (fermer) xo‘jaliklarini yanada rivojlantirishni mustahkamlash choralari haqida”gi №315-sonli qarori qabul qilindi. Bu davrda fermer xo‘jaligi jamoa va davlat xo‘jaligining tarkibida ichki dehqon xo‘jaligi ko‘rinishida tashkil etilib, ularga ichki ijara shartnomasi asosida yer maydonlari 10 yil muddatga berilgan. “Ichki ijara fermer xo‘jaliklari faoliyatining boshlang‘ich yillarida o‘zlariga birlashtirilgan yer, chorva mollari va boshqa asosiy vositalardan foydalanganliklari uchun ijarador hisobiga har yili ma‘lum ijara to‘lovini belgilangan muddatda to‘lashga majbur edilar”⁴⁸.

1992-1997 yillar agrar sektor rivojlanishining **2-bosqichi** hisoblanib, ular faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha dastlabki huquqiy-me‘yoriy hujjatlar manbasi shakllantirilishini o‘z ichiga oladi. Xususan, ushbu tarmoq uchun asosiy me‘yoriy-huquqiy asos bo‘lgan “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonun 1992 yilda qabul qilinishi tarmoq rivojlanishida qo‘yilgan ilk qadamlardan biri bo‘ldi. Shu davrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni agrar sektorda mulkchilik shakllarini tubdan o‘zgarishi, ya‘ni davlat xo‘jaliklarini davlat tasarrufidan chiqarish hamda jamoa xo‘jaligi ixtiyoridagi chorva faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fermerliklarni xususiylashtirish jarayonlariga ilk qadam qo‘yildi va buning natijasida ilk xususiy chorvachilik fermalari o‘z faoliyatini boshladi. “Bu paytda mamlakatimizda 21 mingtadan ko‘proq fermer xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatib, ularning umumiy yer maydoni 498 ming gektar yoki o‘rtacha bir fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer uchastkasi 19,6 gektarni tashkil etgan. Hatto, ayrim paxtag‘alla yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari 1-3 gektar maydonda tarqoq holda dehqonchilik qilgan. Yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklarining shakli faoliyatini yuritishning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish zamon talabi edi”⁴⁹.

⁴⁸ Farmonov T.X. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari.-Toshkent. “Yangi asr avlodi”,2004-33 b.

⁴⁹ Fermerlar istiqloq qaldirg‘ochlari.<http://www.agro.uz/uzb/iktisodiyot/>

Agrar sektorda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlarning **3-bosqichi** 1998-2001 yillarni qamrab olib, bu davr ular uchun agrar sektorda ustuvor xo'jalik yuritish shaklini rivojlantirish bo'yicha alohida e'tibor berilgan davrlar hisoblanadi. Shu jumladan, agrar tarmoqda fermer xo'jaliklari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularga keng qamrovda ko'maklashish, ularni xuquq-erkinliklari hamda moddiy manfaatdorliklarini huquqiy himoya qilishni ko'zlab, 1998 yilda "Shaxsiy yordamchi xo'jaliklar egalari uyushmasi" negizida "Respublika Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi" tashkil qilindi. Ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus Respublika dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bunda mamlakatimizda agrar tarmoqda faoliyat yurituvchi subyektlar faoliyatini xuquqiy tartibga soluvchi fermer xo'jaliklariga yer maydonlari ajratish va undan foydalanishni tartibga soluvchi "Yer kodeksi" hamda 1992 yilda qabul qilingan "Dehqon (fermer) xo'jaligi" to'g'risidagi qonun o'rniga 1998 yilda mahsus "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatlarga asosan fermer-dehqon xo'jaligi rahbarlari maxsus attestatsiya sinovlaridan o'tkazilib, fermer xo'jaliklari ro'yhati qaytadan tuzib chiqildi. "Attestatsiya natijasiga ko'ra 21494 ta dehqon (fermer) xo'jaliga, jumladan 15473 ta dehqonchilik, 5210 ta chorvachilik va 811 ta boshqa turdagi mahsulot yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar qaytadan mustaqil yuridik shaxs maqomidagi fermer xo'jaliklari sifatida ruyhatga olindi"⁵⁰.

Agrar sektorni rivojlantirishning **4-bosqichida** fermer xo'jaliklari faoliyatini agrar tarmoqda istiqbolli xo'jalik yuritish shakli sifatida amalga oshirilishi borasida alohida Dasturlarni qabul qilindi va bu 2002-2007 yillarni o'z ichiga qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.03.2003 yildagi "Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli farmoni, 2003 yil 27 oktyabrdagi PF-3342-sonli "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2006 yil

⁵⁰Farmonov T.X. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2004-39 b.

9 yanvardagi PF-3709-sonli «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari va 2005 yil 8 noyabrdagi “2006 yilda qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlar)ni fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2006 yil 11 yanvardagi PQ-255-sonli «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Prezident Qarorlari, shuningdek, Vazirlir Mahkamasininig 2002 yil 5- yanvardagi “Qishloq xo‘jaligi korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2003 yil 30 oktyabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 416-sonli, 2004 yil 24 dekabrdagi “2005-2007 yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 607-sonli, 2006 yil 10 martdagi 42-sonli «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida agrosanoat firmalari tashkil etish va ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorlarini qabul qilinishi agrar tarmoqdaolib borilayotgan chuqur islohotlar uchun yangi davr bo‘lib hisoblanadi.

Hukumatimizning mahsus qarorlariga asosan 1999-2007 yillar mobaynida 2102 ta shirkat xo‘jaliklari faoliyati tugatilib, ular o‘rnida 149,7 mingta fermer xo‘jaliklari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Faoliyatini boshlagan fermer xo‘jaliklariga 1999-2007 yillarda qariyb 4076,0 ming gektar yer maydoni birlashtirildi.

Shirkat xo‘jaliklari negizida tashkil topgan fermer xo‘jaliklarining ba’zilari samarasiz faoliyat yuritishi fermer xo‘jaliklarini soni va yer maydonlari xajmini maqbullashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Mamlakatda agrar tarmoqni yuksaltirishning **5–bosqichida** fermerlar yer maydonlarini maqbullashtirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirildi va bu 2008-2012 yillarni qamrab oladi.

Ushbu davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi «Fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha

maxsus komissiya tashkil etish to‘g‘risida»gi F-3077-sonli, 2009 yil 22 oktyabrdagi «Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi F-3287-sonli, 2010 yil 18 oktyabrdagi «Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari o‘lchamini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi F-3512 sonli farmoyishlari qabul qilinib, ular ijrosini ta‘minlash uchun agrar tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini yanada yaxshilash prinsipial muhim ahamiyat kasb etganligi sababli, fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi ekin maydonlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 18 apreldagi «Fermer xo‘jaliklarini qayta tashkil etish va yer maydonlarini optimallashtirishda qonunchilikka rioya etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni bilan optimallashtirildi.

Agrar sektor faoliyati rivojlantirishning **6-bosqichi** 2012-2016 yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrda fermer xo‘jaliklari barqarorligini oshirishda ko‘p ukladli fermer xo‘jaliklari faoliyatini shakllantirish borasida ilk qadamlar tashlandi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida tarkibiy islohotlarni yanada samarali tashkil etish, tarmoqda tovar mahsuloti ishlab chiqarish, uni saqlash, tayyorlash, qayta ishlash va sotish tizimlarida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 17 apreldagi “2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1957-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 15 dekabrda 362-sonli “Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maebullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori⁵¹, 2016 yil 18 fevraldagi PQ-2492-sonli “Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori⁵², O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 fevraldagi PQ-2495-sonli «Hududlarni kompleks rivojlantirishni ta‘minlashda mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatini

⁵¹ <http://www.norma.uz/search/group>

⁵² <http://oziq-ovqat.uz/uz/>

takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori⁵³, 2016 yil 24 fevraldagi PQ-2497-sonli “Hududiy davlat boshqaruvi organlari tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori⁵⁴, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda qabul qilindi. 2016–2020 yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2460-sonli qarori qabul qilindi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlanishining **7-bosqichi** 2017 yildan bugunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, bu bosqich bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonini qabul qilinishi bilan bog‘liq desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2021 yil yakunlariga ko‘ra⁵⁵ qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat) umumiy hajmi 317 781,6 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. 2017 yil yakunlariga ko‘ra qishloq xo‘jaligi YaIM tarkibida 19,7 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 yil ushbu ko‘rsatkich 26,9 foizni tashkil qilib, YaIMning mutlaq o‘shish sur‘atiga ta’siri 1,1 f.p. ni tashkil qilgan. Agrar tarmoqning bunday o‘shish sur‘atlariga erishishlarida asosan, go’sht (104,8%), sabzavotlar (104,1%), kartoshka (104,7%), uzum (105,5%), ovlangan baliq (120,7%) larning o‘shish sur‘atlari ijobiy ta’sir qilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Hududlar kesimida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (53,4%) hamda eng kam ulush Navoiy viloyatida (15,0%) kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin. 2021 yil yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlari)ning tarkibida dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan jami xizmatlar 96,8%, o‘rmon xo‘jaligi 2,4%, baliqchilik xo‘jaligi 0,8 foizni tashkil qilgan. Mamlakatimizda iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni yillar davomida o‘shib kelishi ushbu sohaning barcha

⁵³ http://www.lex.uz/ru/law_collection/3115/

⁵⁴ http://www.lex.uz/ru/law_collection/3115/

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

tarmoqlarda bo'lgani kabi, agrar sektorning ham rivojlanishida o'zining ijobiy o'rniga ega bo'lib kelmoqda.

Agrar sohada ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilmasi quyidagilar asosida o'rganiladi: iste'molchilarning talabi; sanoat ishlab chiqarishning erishilgan darajasi; tabiiy-iqlim, yer-suv mehnat resurslarining mavjudligi; qishloq xo'jaligidagi fan texnika taraqqiyoti darajasi; ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi; mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari; mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega tarmoqlar va oziq-ovqat xavfsizligi; investitsiyalarning yo'naltirilishi va kirib kelishi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va agrar sohada ishlab chiqarishini izchil davom ettirish, yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni yanada barqaror davom ettirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, qishloq xo'jaligi tarmog'ini eksport salohiyatini yuqori darajada o'sishini ta'minlash;

- paxta va boshqli don ekiladigan maydonlarini qisqartirish evaziga bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekishni tashkil qilish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni yaratish orqali ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

- fermer xo'jaliklari, eng avvalo, agrar tarmoqda mahsulot yetishtirish, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini faoliyatini yanada kengaytirish va ularni moddiy rag'batlantirish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish;

- agrar sohada tayyor mahsulotlarni chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyalar asosida asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash

korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

- qishloq agrar tarmoqda yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini tarmoqlarini yanada takomillashtirish;


Fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy va huquqiy asoslarning qabul qilinishi va tashkiliy iqtisodiy chora tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida ularning qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi yildan yilga oshib bormoqda (3-ilova).

3-ilovada keltirilgan ma'lumotlardan, fermer xo'jaliklariga ajratilgan jami yer va ekin maydoni oshib bormoqda. Bugungi kunda qishloq ho'jaligida tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan jami qishloq xo'jaligi yerlarining 64,5 foizini ekin ekiladigan yerlar, 5,5 foizini ko'p yillik daraxtzorlar, 27,5 foizini pichanzor va yaylovlar tashkil etadi.

Ayni paytda jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarida fermer xo'jaliklarining ulushi 53,1 foizni, jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarida esa 5,3 foizni tashkil etmoqda.

Tashqi savdo aylanmasidagi meva-sabzavot mahsulotlari eksportida asosiy hamkor davlatlar Rossiya (umumiy hajmdan 30,5%), Qozog'iston (20,5%), Afg'oniston (6,6%), Xitoy (5,7%), Turkiya (4,5%) va Qirg'iziston (4,3%) hisoblanadi.

Statistik tahlillar ko'rsatishicha, meva-sabzavot mahsulotlari 2017 yilda 876 ta eksportyor tomonidan 60 ta davlatga eksport qilingan bo'lsa, 2021 yilda 1 175 ta eksportyor tomonidan 67 ta davlatga eksport qilishga erishilgan (2.1-rasm).



2.1-rasm. Yirik hamkor davlatlar bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlari va ulardan qayta ishlangan mahsulotlar eksporti ulushi,⁵⁶ foizda

Yuqorida keltirilgan rasm ma'lumotlariga qo'shimcha sifatida meva-sabzavot mahsulotlari eksporti turlari va geografiyasi yildan yilga kengayib bormoqda. Daniya, Yamayka, Amerika samoasi va Janubiy Afrika davlatlariga birinchi marotaba 2021 yilda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

Yuqorida keltirilgan rasm ma'lumotlariga qo'shimcha sifatida meva-sabzavot mahsulotlari eksporti turlari va geografiyasi yildan yilga kengayib bormoqda. Bolgariya, Shri-Lanka, Indoneziya, Filipin, Gresiya, Qatar, Xarvatiya va Malta davlatlariga birinchi marotaba 2021 yilda meva-sabzavot mahsulotlari va ulardan qayta ishlangan mahsulotlar eksporti amalga oshirildi.

4-ilova ma'lumotlariga e'tibor bersak, barcha xo'jalik yuritish shaklidagi qishloq xo'jaligi ekinlari, jumladan, don va dukkakli don ekinlari, sabzavot ekinlari, mevalar va uzumning hosildorligida tebranishlar turlicha bo'lganligini kuzatish mumkin. Paxta hosildorligi bo'yicha eng past ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Viloyatda paxta hosildorligi 2021 yilda 2010 yilga nisbatan gektaridan 2,2 sentnerga pasaygan. Bu ko'rsatkich respublika bo'yicha gektariga 5,3 sentnerni tashkil etmoqda. Don va dukkakli don ekinlari hosildorligi ham

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

mamlakatimizda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, respublika bo'yicha don va dukkakli don ekinlari o'rtacha hosildorligi 2021 yilga 2010 yilga nisbatan gektariga 3,3 sentnerga pasayib 40,9 s/ga ni tashkil etgan (4-ilova).

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi siljishlar turli omillar ta'sirining natijasidir. Bu omillar alohida va o'zaro bog'langan holda ta'sir qilish mumkin. Shu sababli, tarkibiy siljishlar ro'y berish jarayonida ularning mazmuni va o'rnini turlicha ifodalaydi. Bundan tashqari, bu omillar zamon va makonda turlicha ta'sirga ega hisoblanadi.

Nisbiy miqdorlarda ifodalangan to'plam tarkibini – to'plamning tuzilmasi, uni tavsiflovchi shu nisbiy kattaliklarni esa – tuzilma nisbiy miqdorlari deb atashimiz mumkin bo'ladi. Tuzilma unsurini ifodalovchi salmoq yoki ulushning o'zgarish dinamikasini kuzatib, istalgan tarkibiy siljishlarni miqdoran hisoblash mumkin bo'ladi.

Fermer xo'jaliklarining ekinlarini almashlab ekish texnologiyasidan unumli foydalanmasligi, melioratsiya tadbirlarini yetarli holatda bajarilmasligi, fermerlarga ajratilgan yer maydonlarining unumdorligi pasayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ekinlar hosildorligini pasayib ketishiga olib kelmoqda. Fermer xo'jaliklarida ekinlar hosildorligi dehqon xo'jaliklaridan past holda qolmoqda.

Sug'oriladigan yerlar meliorativ holatini saqlab qolish va tiklash, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish orqali amalga oshirish zarur.

Fermer xo'jaliklarining asosan dehqonchilikka ixtisoslashgani sababli ular qaramog'ida bo'lgan chorva mollari sonining kamligi kuzatiladi. Ozuqaning yetishmasligi, fermer xo'jaliklarida ozuqa bazasini kengaytirish imkoniyatining chegaralanganligi, bu xo'jaliklarda chorva mollarni ko'paytirish, ular mahsuldorligini oshirishda asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yuritayotgan subyektlar faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

Yuqorida taklif qilgan modelimiz asosida olingan natijalardan agrar sohani rivojlantirish uchun strategik loyihalar ishlab chiqish, unga investitsiyalarni yo'naltirish, qayta ishlash sanoati korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ko'lamini kengaytirish kabi tadbirlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi..

Ekinlarni optimal joylashtirishning iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish masalasi agrar tarmoqdagi boshqa turli masalalardan katta hajmda ekanligi bilanfarq qiladi. Bunda esa obyektlarga turli ekinlarni joylashtirish va mos ravishda chegaraviy shartlar kiritishga olib keladi.

Masala hajmini undagi hududlarni yiriklashtirish orqali kichraytirish mumkin. Ammo bunday yondashish olinadigan natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki hosildorlik, baho kabi ko'rsatkichlarning o'rtalashtirilishi bilan bog'liq bo'ladi yoki masala hajmini uni ixchamlashtirish orqali kamaytirish ham natijalarga bevosita ta'sir etuvchi shartlarning chiqib ketishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ekinlarni optimal joylashtirish kabi masalalar yechimini izlash bir necha yo'nalishlarda turli usullar yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2.3. O'zbekistonda fermer xo'jaliklari tomonidan yaratilgan mahsulot va qo'shilgan qiymat hajmi dinamikasini statistik baholash

Jahonda aholi soni tobora o'sib borayotgan hozirgi davrda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish hayot-mamot masalalari qatorida turibdi. Yer yuzida sodir bo'layotgan global iqlim o'zgarishlari tufayli keyingi yillarda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga putur yetmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi 86 davlat o'z aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay olmaydi. Ayniqsa, pandemiya sharoitida jahon iqtisodiyotining inqirozi qishloq xo'jaligi sohasiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

O‘zbekistonning jami yer maydoni 44.4 mln. gektar bo‘lib, shundan 45,4 foizini turli xildagi qishloq xo‘jalik yerlaridan korxonalar, tashkilotlar, fermerlar hamda dehqon xo‘jaliklari foydalanadilar: ularning yig‘indisi mamlakat qishloq xo‘jaligini tashkil etadi. Uning asosiy maqsadi tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan mamlakat aholisining iste‘mol tovarlariga, qayta ishlash sanoatini esa xomashyoga bo‘lgan talablarini qondirishdir. Buning uchun aholi iste‘mol qiladigan sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlarini barcha talablarni qondiradigan darajada ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati korxonalarining qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishi lozim.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish va tarmoqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish borasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi” qabul qilindi va unda mamlakat oziqovqat xavfsizligini mustahkamlash, tarmoqda davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, agrar sektorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish kabi bir qator vazifalar belgilab berildi.

Respublikada amalda bo‘lgan statistik va moliyaviy hisobotlarda qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash darajasini baholovchi ko‘rsatkichlar mavjud emas. Shu tufayli bunday ko‘rsatkichlar tizimini (indikatorlarni) ishlab chiqish va qo‘llash maqsadga muvofiq.

Rivojlangan mamlakatlarning quyidagi ilg‘or tajribalarini respublikamiz sharoitiga moslashtirib qo‘llash zarur: a) agrar sektorda narxlar va fermerlar daromadini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari: murakkab tabiiy iqlim sharoitiga ega fermer xo‘jaliklariga subsidiyalar ajratish; kon’yunkturaviy tebranishlarda bozor muvozanati va narxlar barqarorligini saqlash uchun davlat xarid va tovar intervensiyalarini amalga oshirish; minimal kafolatlangan narxlarni qo‘llash; agrar sektor va iqtisodiyatning boshqa tarmoqlari o‘rtasida tovar ayirboshlashda narxlar

paritetini saqlash; fermerlarga mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bogʻlangan èki bogʻlanmagan (bir gektar ekin maydoni èki chorva mollari bosh soniga nisb.) bevosita toʻlovlar toʻlash; b) agrar sektorni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning byudjetsoliq va pul-kredit mexanizmlari: soddalashtirilgan va imtièzli soliqqa tortish mexanizmini qoʻllash; investitsion kreditlar uchun foiz toʻlovlarining 50 foizgacha qismini tijorat banklariga byudjetdan qoplab berish; asosiy kapitalni shakllantirishga kiritiladigan investitsion xarajatlarning 20 foizgacha qismini fermerlarga byudjetdan qoplab berish; ekinlar va chorva mollari kasalliklari, zararkunanda va tabiiy ofatlardan zararlarning bir qismini byudjetdan qoplab berish; sugʻurta toʻlovlarining 50 foizgacha qismini byudjetdan sugʻurta tashkilotlariga qoplab berish; v) qishloq xoʻjaligi va qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari: qishloq hududlarida infratuzilmalarni rivojlantirishga koʻmaklashish; ilgʻor tajribalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, trening va maslahat xizmatlari koʻrsatishni byudjetdan moliyaviy qoʻllab-quvvatlash; ishlab chiqarishga sifat standartlarini joriy etish va muqobil energiya turlarini qoʻllashni ragʻbatlantirish; atrof-muhit, tuproq va tabiiy yaylovlar unumdorligini saqlash, ekin turlarini diversifikatsiyalash dasturlarini “Yashillik toʻlovlari” orqali qoʻllab-quvvatlash; “aqli qishloq xoʻjaligi” va “organik dehqonchilik yuritish”ni ragʻbatlantirish. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini davlat buyurtmasi boʻyicha yetishtirish va ularga narx belgilashning amaldagi mexanizmlari bozor iqtisodièti tamoyillariga toʻliq mos kelmaydi.

Qishloq xoʻjaligining tarmoq sifatida oʻziga xos xususiyatlari, ayniqsa, uning tabiiy iqlim shart-sharoitlariga bogʻliqligi, ishlab chiqarishni yuritishning tavakkalchilikka kuchli moyilligi va boshqa iqtisodiy xarakterdagi bir qator omillar tarmoqni davlat tomonidan tartibga solish va qoʻllab-quvvatlash zaruratini yuzaga keltiradi. Tadqiqotlar qishloq xoʻjaligini davlat tomonidan tartibga solish va qoʻllab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish uchun uning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, obykti va predmeti, shakl va usullari, mexanizmlari, dastaklari (regulyatorlari) va ustuvor yoʻnalishlarini oʻz ichiga olgan tizimli èndashuv

zarurligini ko'rsatadi. Agrar sektorni davlat tomonidan tartibga solish tizimida byudjet-soliq (fiskal), pul-kredit (monetar), tarkibiy-investitsion, narx mexanizmlari hamda prognozlashtirish, indikativ rejalashtirish va maqsadli dasturlash kabi iqtisodiy mexanizmlar samarali hisoblanadi. Agrar sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi va samaradorligini muntazam baholab borish va monitoringini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, agrar sektorni barqaror rivojlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirish va byudjet-soliq siësatining rag'batlantiruvchi funksiyasidan (fiskal ekspansiyadan) unumli foydalanish joiz. Jamiyat ehtiëjlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarid qilishga davlat xarajatlarining oshirilishi, agrar sektordagi kapital va ishlab chiqarish xarajatlarini byudjetdan qisman qoplash, murakkab tabiiy iqlim sharoitga ega va unumdorligi past yerlarda mahsulot yetishtirishni subsidiyalash, byudjet orqali qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllari qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'sishi va tarmoqning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahon amaliëtida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasini baholash uchun asosan Jahon savdo tashkiloti (JST) hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqië tashkiloti (IHTT) metodikasidan foydalaniladi. Ammo hisobotlar yuritishdagi turlicha ëndashuvlar tufayli bu ko'rsatkichlarni O'zbekiston Respublikasida to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning imkoni yo'q. Shundan kelib chiqib, JST va IHTT uslubiëtiga tayangan holda dissertant tomonidan qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llabquvvatlash darajasini baholashga imkon beruvchi ko'rsatkichlarning O'zbekiston sharoitlariga moslashtirilgan tizimini ishlab chiqdik va qo'llashga tavsiya etildi (1-jadval). Tavsiya etilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning amaldagi holati kompleks tahlil qilingan(5-ilova).

Tadqiqotlar qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llabquvvatlashning shakl va usullari, shuningdek, hozirgi darajasi tarmoqni modernizatsiyalash va barqaror rivojlanishi uchun yetarli emasligini ko'rsatadi. Tarmoqni davlat byudjetidan bevosita qo'llab-quvvatlash darajasi rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda past

darajada qolmoqda. Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilish mumkinki, agrar sektorni davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar orqali qo'llabquvvatlash miqdorini oshirish va yo'nalishlarini kengaytirish, shuningdek, turli imtiëz va prefrensiyalar ko'rinishidagi bilvosita qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish mamlakat oziq-ovqat ta'minoti va xavfsizligini mustahkamlashga ërdam beradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va tarmoqqa yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari hamda ko'rsatiladigan xizmatlar narxlari o'sishi o'rtasidagi disparitetning kuchayib borganligi, davlat xarid narxlarining pastligi oqibatida agrar sektorda ishlab chiqarish rentabelligi va tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlari iqtisodiyatning boshqa tarmoqlariga nisbatan sezilarli darajada ortda qolmoqda.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining daromadlari va to'lovga qobilligini qo'llab-quvvatlash uchun nafaqat murakkab tabiiy iqlim sharoitiga ega va unumdorligi past yerlarda davlat ehtiëjlari uchun paxta xomashësinì yetishtirish, balki boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga (boshqoli don, meva-sabzavotlar, sholi va h.k.) ham davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish, yerlarning bonitet baliga qarab davlat xarid narxlariga tuzatish koeffitsientlarini qo'llash, JST talablariga muvofiq mahsulot hajmiga bog'langan qo'llab-quvvatlashdan bog'lanmagan, ya'ni bir gektar ekin maydoniga, chorva moli bosh soniga nisbatan qo'llab-quvvatlash va uning boshqa turlariga o'tish maqsadga muvofiq. Keyingi yillarda respublika oziq-ovqat bozorlarida go'sht mahsulotlari narxining keskin oshishi kuzatilmoqda. Iste'mol bozorlarini go'sht mahsulotlari bilan to'ldirish va ular narxlarining barqarorligini saqlash uchun quyidagi tadbirlarni qo'llashni tavsiya etamiz:

1. Qishloq xo'jaligi ekinlarini almashlab ekish sxemalarini joriy etib, kamida 5-10 foiz maydonga don uchun makkajo'xori, 10-15 foiziga beda ekishni yo'lga qo'yish orqali chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash;

2. «O'zdonmahsulot» AJ va boshqa xususiy donni qayta ishlash korxonalarì bazasida bioqo'shimchalar, vitaminlar, makro-mikro elementlar va boshqa ozuqa

birliklari bilan boyitilgan konsentrat ozuqalar ishlab chiqarishni tizimli yo'lga qo'yish va hajmini talab darajasigacha oshirish;

3. Har bir tumanda sut-go'sht yo'nalishida kamida 2-3 tadan yirik chorvachilik fermalari, bo'rdoqichilik komplekslari tashkil etish, ularni qurish va jihozlashga kiritiladigan xususiy investitsiyalar hamda tijorat banklari kreditlarini davlat tomonidan rag'batlantirish;

4. Naslchilik xo'jaliklari va ilmiy markazlari faoliyatini davlat byudjetidan subsidiyalar orqali qo'llab-quvvatlash;

5. Chorva mollarini kasalliklar va tabiiy ofatlardan sug'urtalashda sug'urta to'lovining 50 foizgacha qismini davlat byudjetidan qoplash. Agrar sektorga kredit resurslari va boshqa qarz mablag'lari jalb etishni rag'batlantirish uchun davlat tomonidan tartibga solishning pulkredit mexanizmlari, ya'ni kreditlash tartibi va shartlarini yengillashtirish, imtiyozli kreditlar uchun resurslarni kengaytirish, kreditlarni qaytarish muddatini uzaytirish va foiz to'lovlarining bir qismini tijorat banklariga davlat byudjetidan qoplab berish, kredit risklarini sug'urtalashda davlat kafolatini ta'minlash kabi mexanizmlardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining tijorat banklari kreditlari uchun foiz to'lovlarining 50 foizgacha, asosiy kapitalni shakllantirishga (tomchilatib sug'orishni joriy etish, issiqxonalar, sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan fermalar qurish, naslli chorva mollari, texnika va texnologik uskunarlar sotib olish va h.k.) kiritilgan investitsiyalarning bir qismini davlat byudjetidan to'g'ridan-to'g'ri qoplab berish, byudjet-soliq, tarkibiy-investitsion va pul-kredit mexanizmlarining boshqa dastaklarini qo'llash agrar sektorni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib, agrar sektorni rivojlantirish bo'yicha o'rta (5 yilgacha) va uzoq (10 yilgacha) muddatli, o'z pasportiga ega, dasturning maqsadi va vazifalari, asosiy yo'nalishlar bo'yicha quyi dasturlar, amalga oshirilishi ko'zda tutilgan tadbirlarning turlari va muddatlari, moliyalashtirishning aniq hajmi va manbalari hamda erishiladigan maqsadli natijalar, dastur bajarilishini

baholashga imkon beruvchi indikatorlarni qamrab olgan kompleks maqsadli davlat dasturlarini muntazam ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Tarmoqni davlat tomonidan tartibga solishning jamiyat va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan eng muhim yoʻnalishlari sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz: - xususiy mulk huquqi va tadbirkorlik erkinligini kafolatlash; - bozorning ochiqligi va adolatli raqobatni muhofaza qilish; - monopol hokimiyatni cheklash; - oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash; - fermer va dehqon xoʻjaliklarining daromadlari va narxlar barqarorligini qoʻllab-quvvatlash; - ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash; - byudjet orqali qoʻllab-quvvatlash; - imtiyozli soliqqa tortish va imtiyozli kreditlash; - investitsiyalar jalb etishni ragʻbatlantirish; - ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik jihozlashni qoʻllab quvvatlash.

Ushbu vazifalarning samarali ijrosi hududlarning qishloq xoʻjaligi iqtisodiy faoliyatini baholash va samaradorligini oshirish, qishloq xoʻjaligida statistik koʻrsatkichlar tizimini yanada takomillashtirish, sohaning hududlardagi iqtisodiy rivojlanishini maxsus statistik usullarda tadqiq etish va prognozlashni taqozo etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning haqiqiy “drayveri” boʻlgan agrar sohada iqtisodiyotda band ishchi kuchining qariyb 27 foizi (2020 yil) faoliyat yuritadi va yalpi ichki mahsulotning 25 foizi (2021 yil) ushbu sektor hissasiga toʻgʻri keladi.

Respublikamizda 2021 yilda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi joriy baholarda 303,4 trln. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati 2020 yilga nisbatan 103,9 foizga teng boʻlgan.

Ammo ayni damda qishloq xoʻjaligida taʼlim, ilm-fan, innovatsion faoliyat va ishlab chiqarishning chuqur integratsiyasini taʼminlash hamda ushbu tizimning samarali boshqaruv boʻgʻinlarini shakllantirish zarurati paydo boʻlmoqda. Oʻzbekistonda 2010 yilda YaIMning 26,9 foizi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida yaratilgan boʻlsa, 2021 yilda bu koʻrsatkich 25,0 foizni tashkil etib 1,9 foiz bandga pasaygan. Shu davrda YaIM hajmi 1,91 martaga koʻpaygani holda agrar sohada yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YaQQ) 1,62 martaga oʻsib, YaIMning

ilgarilash koeffitsienti 1,179 martani yoki 117,9 foizni (1,91:1,62) tashkil etgan (6-ilovalar).

Shuningdek, 2010-2021 yillar mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining qo'shimcha o'sish sur'ati qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 61,9 foizga, qishloq xo'jaligida esa 62,3 foizga teng bo'lib, uning hisyasi agrar soha mahsulotida 94,2-96,6 foizni tashkil etmoqda (6-ilovalar).

Tahlil amalga oshirilayotgan davrlarda fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 33,7 foizga (74946,1:56060,7) ko'payib, 2021 yilda joriy baholarda 88900,7 mlrd. so'mni yoki barcha toifadagi xo'jaliklardagi hisyasi 29,3 foizni tashkil etib, 2010 yilga nisbatan 7 foiz bandga pasaygan. Chunki fermer xo'jaliklarining ko'p tarmoqli sohaga aylanishi natijasida ular tomonidan qayta ishlangan sanoat xarakteridagi mahsulotlar hajmining ko'payishi bu ko'rsatkichga o'z ta'sirini ko'rsatgan deb izohlash mumkin. (2.6-jadval).

2.6-jadval

O'zbekistonda fermer xo'jaliklari tomonidan yaratilgan mahsulot va qo'shilgan qiymat hajmi dinamikasi⁵⁷

Yillar	Fermer xo'jaliklari mahsuloti xajmi, mlrd. so'm		Qishloq xo'jaligi mahsulotida fermer xo'jaliklari hisyasi, %	Qishloq xo'jaligida yaratilgan qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm		Fermer xo'jaliklarida yaratilgan qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm	
	Joriy narhda	2020 yil narhida		Joriy narhda	2020 yil narhida	Joriy narhda	2020 yil narhida
2010 y.	11201,0	56060,7	36,3	20018,7	92580,6	7266,8	32398,2
2011 y.	15714,2	57854,6	34,7	28880,4	98320,6	10021,5	33435,0
2012 y.	18397,5	61441,6	33,0	35180,9	105399,7	11609,7	35508,0
2013 y.	21325,7	64145,0	32,1	40803,4	112356,0	13097,9	37070,3
2014 y.	24620,1	66197,7	30,1	51522,3	119434,5	15508,2	38256,6
2015 y.	30620,8	68514,6	30,7	62351,8	126720,0	19142,0	39595,5
2016 y.	34271,1	70227,4	29,7	72236,5	134703,3	21454,2	40585,4
2017 y.	43358,1	64960,3	29,3	87344,5	136050,4	25591,9	37541,5
2018 y.	48667,0	60478,1	26,0	109227,9	136322,5	28399,2	34951,2
2019 y.	60394,7	66828,3	27,9	125615,8	140821,1	35046,8	38621,0
2020 y.	70570,7	70570,7	28,2	144623,3	144623,3	40783,8	40783,8
2021 y.	88900,7	74946,1	29,3	174709,6	149829,7	51015,2	42823,0

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Qishloq xo‘jaligi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoatini esa xom ashyoga bo‘lgan talabini qondirish bilan birga, respublikamiz eksport salohiyatini mustahkamlashning istiqbolli manbalaridan biri sanaladi.

Respublikamizdi meva-sabzavot mahsulotlari eksporti jami eksportga nisbatan 6,7 foizni (2020 yil) tashkil etgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta hom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 barobar, gilosdan 6 barobar, yong‘oqdan 5 barobar ko‘p daromad olish imkoniyati mavjud⁵⁸.

Qayd qilish joizki, bugungi kunda qishloq xo‘jaligi bazasi yuqori qiymatli meva-sabzavot ekinlarni ko‘paytirish orqali diversifikatsiya qilinmoqda. Ushbu ekinlar ko‘proq foyda keltirishi bilan birga yaxshi haq to‘lanadigan mavsumiy ish manbai hamdir.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmi 2020 yilda 2016 yilga nisbatan 1,8 martaga oshib, 1 mlrd. dollarni tashkil etdi. Eksport geografiyasi esa 43 tadan 77 davlatga ko‘paydi⁵⁹.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning eng “injiq” sohalaridan biri bo‘lib, uning faoliyati iqlim, ob-havo sharoiti bilan chambarchas bog‘liq. Qishloq xo‘jaligida mineral xom ashyodan farqli o‘laroq, tiklanadigan resurslar ishlab chiqariladi. Bu jihatdan ham uning ahamiyati katta. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2021 yilda qariyb 27 foizni tashkil etdi.

Keyingi yillarda ilm-fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni hamda yangicha iqtisodiy munosabatlarni amaliyotga keng joriy etish hisobiga qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish yangi bosqichga ko‘tarildi.

Amalga oshirilgan muhim islohotlardan biri sohaga bozor munosabatlarining tizimli joriy etilgani hamda qishloq xo‘jaligida qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish, zamonaviy va samarali usul agroklaster va kooperatsiyaning yo‘lga qo‘yilgani bo‘ldi.

⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda Qarori. “Meva – sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. Xalq so‘zi, 2019 yil 13 dekabr.

⁵⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari (www.stat.uz).

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida agrosanoat klasterlari: paxta-to‘qimachilik klasteri, mevasabzavot klasteri, chorvachilik klasteri, g‘allachilik klasteri, sholichilik klasteri va pillachilik klasteri usullarida amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, bugungi kunga kelib “mamlakatimizda 97 ta paxta-to‘qimachilik, 149 ta meva-sabzavotchilik, 65 ta g‘allachilik, 35 ta sholichilik va 7 ta dorivor o‘simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar va 11 ta paxtato‘qimachilik kooperatsiyalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, qoramolchilik yo‘nalishida 34 ta, parrandachilik bo‘yicha 10 ta, baliqchilik tarmog‘ida 36 ta, asalarichilik yo‘nalishida 15 ta fermer xo‘jaligida klaster usulida mahsulot yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, keyingi ikki yilda respublikada pillachilik sohasida 62 ta klaster ishga tushirilib, ular tomonidan 600 milliard so‘mga yaqin mahsulot ishlab chiqarildi⁶⁰.

Agrar sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilib, xalqaro tashkilotlar tomonidan kiritilgan investitsiyalar ko‘lami 2020 yilda 500 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, 2016 yilga nisbatan 4,7 barobardan ziyodga ko‘paygan.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, yangi intensiv bog‘ va tokzorlar barpo etildi, sabzavot va poliz ekinlari qo‘shimcha ekildi. Bunday keng ko‘lamli islohotlar bugunga kelib o‘z mevasini bermoqda. 2021 yilda 2020 yilga nisbatan poliz mahsulotlari 6,9 foiz, kartoshka -4,7, sabzavotlar-4,1, meva va rezavorlar-1,4, uzum 5,5 foiz ko‘p yetishtirildi⁶¹.

Agrar sohada yaqin kelajak va istiqbolda amalga oshiriladigan dasturiy vazifalarni o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi qabul qilinishi mamlakatimiz agrar va oziq-ovqat sanoati ravnaqida o‘ziga xos yangi solnoma ochdi. Agrar sektorda mahsulot ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati 2020 yilga qaraganda 2021 yilda 1,1 foiz bandga jadallashgan yoki 1,011 martaga tezlashib, 4 foizni tashkil etgani holda joriy baholarda 317,8 trln. so‘mlik mahsulot ishlab

⁶⁰ O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga. Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga bayram tabrigi <https://president.uz/uz/lists/view/4009>.

⁶¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma‘lumotlari(www.stat.uz).

chiqarilgan. Natijada mamlakat yalpi qo‘shilgan qiymatining 26,9 foizi muayyan sohada yaratilgan⁶².

O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish sohasidagi iqtisodiy islohotlar tufayli aniq-ravshan siljishlarga erishib, qishloqda ko‘p ukladli xo‘jalik shakllandi. Biroq bu sohada ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayoni nihoyasiga yetgani yo‘q, xo‘jalik yuritishning yangi maqbul shakllarini qidirish davom etmoqda. Qishloq xo‘jaligi faoliyatini rivojlantirish ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyati bilan bog‘liqligini inobatga olib, mamlakatimizda klasterlar faoliyatini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi(2.7-javdal).

Quyidagi jadvaldan ko‘rinadiki, viloyatlar kesimida meva-sabzavotchilik rivojlangan hududlarda meva-sabzavot maydonlarini klasterlar bilan qamrab olinishi 20,4-62,1 foizni tashkil etadi(2.7-jadval).

2.7-jadval

O‘zbekiston Respublikasi meva-sabzavot klasterlarida yetishtirilgan qishloq ho‘jaligi mahsulotlari, tonnada

№	Viloyatlar	Yetishtirilgan jami hosil, tonna	shundan					
			Ichki iste‘mol uchun	Sal-mog‘i %	Qayta ishlash uchun	Sal-mog‘i %	Eksport uchun	Sal-mog‘i %
1	Samarqand	317699	68337	21,5	199105	62,7	50257	15,8
2	Andijon	236442	202735	85,7	6101	2,6	27606	11,7
3	Toshkent	206722	85640	41,4	78042	37,8	43040	20,8
4	Farg‘ona	070714	99636	58,4	19755	11,6	51323	30,1
5	Namangan	142019	42412	29,9	92642	65,2	6965	4,9
6	Sirdaryo	38717	16198	41,8	8141	21,0	14378	37,1
7	Jizzax	32777	29141	88,9	1924	5,9	1712	5,2
8	Xorazm	26780	1900	7,1	13800	51,5	11080	41,4
9	Buxoro	19450	1300	6,7	12700	65,3	5450	28,0
10	Navoiy	16536	8930	54,0	5546	33,5	2060	12,5
11	Surxondaryo	16506	5996	26,3	630	3,8	9880	59,9
12	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	15602	2600	16,7	200	1,3	12802	82,1
13	Qashqadaryo	11390	1655	14,5	4120	36,2	5615	49,3
	Respublika bo‘yicha	1251354	566480	45,3	442706	35,4	242168	19,4

⁶² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Respublikamizda 2020 yilda yetishtirilgan 1 mln. 251 ming 354 tonna meva-sabzavot mahsulotini 45,5 foizi ichki iste'mol bozoriga, 35,4 foizi qayta ishlashga yo'naltirilgan va 19,4 foizi eksport qilingan (jadval).

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston qiymati 1,0 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 1,5 mln. tonna meva va sabzavotlar eksport qilgan. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti Rossiya Federatsiyasi (\$255,4 mln.), Qozog'iston (\$251,4 mln.) va Qirg'iz (\$181,1 mln.) Pokiston (\$75,5 mln.) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Samarqand viloyatida 2020 yilda 113,8 million AQSh dollariga teng 144,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilindi. 2019 yilning mos davriga nisbatan 46,7 million AQSh dollariga pasayishi kuzatildi. Hozirgi vaqtda (2021 yil) barcha qishloq xo'jalik mahsulotlarining 29,3 foizi fermer xo'jaliklarida, 5,2 foizi qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida va 65,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yetishtirilayotganligini hisobga oladigan bo'lsak oxirgi sektorga e'tiborni yanada kuchaytirish lozimligi ayon bo'ladi⁶³.

Agrar iqtisodiyotdagi muhim muammolar jumlasiga ekinlar hosildorligini va chorva mollarining mahsuldorligini oshirish maqsadida seleksiya va urug'chilik, naslchilik ishlarini kuchaytirish, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurash, ekologik toza mahsulot yetishtirish, atrof-muhitga zararni kamaytirish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va bu maqsadlarga investitsiyalarni jalb qilishni ko'paytirib borishni kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotimizning to'rt dan bir qismini tashkil etib, uning zahirida halqimiz farovonligi, narx-navo barqarorligi, yangi ish o'rinlarining zaxirasi yotadi.

Agrar sohada e'tiborga alohida loyiq masalalardan bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarida raqamlashtirish texnologiyasidan kengroq foydalanish hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Raqamlashtirish bo'lmasa,

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

sohada haqqoniy statistika bo'lmaydi. To'g'ri ma'lumot bo'lmagach, agroxizmatlar rivojlanmaydi, fermer qachon nima eksa, ko'proq daromad olishini bilmaydi. Shuning uchun bu jarayonni tezlashtirish kerak”.

Prezidentimiz tashabbusi bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qulay agrobiznes muhitini yaratish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sohada investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish singari ustuvor maqsadlarni nazarda tutgan holda ichki bozorni to'liq ta'minlash bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini ikki barobar oshirish va eksport hajmini ko'paytirish vazifalari belgilangan⁶⁴.

Iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida eng muhim masalaridan biri qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va uning hajmini aniqlash hisoblanadi.

Ma'lumki, milliy iqtisodiyotning barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarida qo'shilgan qiymat yaratilib, ularning yig'indisi tarmoqlar va sohalarning yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) ko'rsatkichini tashkil etadi. Agar ushbu ko'rsatkichga mahsulotlarga sof soliqlar summasini qo'shib hisoblasak, mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi – yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi hosil bo'ladi. YaIM tarkibida sof soliqlar ulushi 2010 – 2021 yillarda o'rtacha 9,8 foiz atrofida bo'lib, 2010 yilda 12,0 foizni, 2021 yilda esa 7,2 foizni tashkil etgan.

Respublikamiz statistika amaliyotida 2016 yildan boshlab iqtisodiy faoliyat turlari xalqaro andozalarga muvofiq keluvchi umumdavlat tasniflagich IFUT – 2 ga o'tilishi munosabati bilan qishloq xo'jaligi tarmog'iga o'rmonchilik va baliqchilik sohalari ham qo'shib, natijada “Qishloq, o'rmon va baliq” xo'jaligi deb nom olgan “A” seksiya vujudga keldi.

Mamlakatimiz statistika tizimida xalqaro tasniflashlarning qo'llanilishi tufayli tarmoq va sohalarning ulushi YaIM ga nisbati bilan birga tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatiga nisbatan ham aniqlanmoqda. Ammo alohida xo'jalik

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi 5853-son Farmoni. “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”(Lex.uz).

yurituvchi subyektlarda qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichini mavjud statistik ma’lumotlar asosida bevosita aniqlash mumkin emas. Jumladan, 2021 yilda “A” seksiyaning salmog‘i tarmoqlarning YaQQda 26,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, unda qishloq xo‘jaligining va ayniqsa fermer xo‘jaliklarining ulushi qancha ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar statistik to‘plamlarda keltirilmagan. Ammo, fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi asosiy xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisoblanishi ularda yaratilgan qo‘shilgan qiymatni aniqlashni taqozo etadi. Shuning uchun ularda yaratilgan qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichini quyidagi usulda aniqlashni tavsiya etamiz. Dastlab “A” seksiyada qishloq xo‘jaligi mahsulotining ulushini aniqlaymiz, so‘ngra “A” seksiyaning YaQQ hajmini aniqlangan ulushga ko‘paytirib, qishloq xo‘jaligida yaratilgan qo‘shilgan qiymat hajmini aniqlaymiz.

Olingan natijani fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotidagi salmog‘iga ko‘paytirib, ularda yaratilgan qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichini hisoblab chiqamiz. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkichlarning hajmi, salmog‘i va dinamikasi quyidagi 2-jadvalda keltirilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “A” seksiyaning YaQQi zanjirida fermer xo‘jaliklarida yaratilgan qo‘shilgan qiymat ulushi 2010, 2015, 2020 va 2021 yillarda 2020 yil baholarida mos ravishda 33,3; 29,9; 27,0 va 28,3 foizni, barcha tarmoqlarning YaQQida esa 10,4; 8,9; 7,3 va 7,1 foizni tashkil qilgan. Barcha ko‘rsatkichlarning dinamikasini 2020 yil baholarida aniqlashda ularning yillar bo‘yicha o‘sish sur‘atlari asos qilib olingan.

Chorvachilik sohasida davlat qo‘llab-quvvatlashining iqtisodiy usullaridan foydalanishni imtiyozli kreditlar berish tizimini shakllantirish, shuningdek soliq orqali boshqarish, byudjet tomonidan moliyalashtirish, qishloqni ijtimoiy rivojlantirish, davlat dasturlari, buyurtmalari, samarali bojxona siyosati va boshqalar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, agrar proteksionizm (iqtisodiyotni chet el raqobatidan himoya qilish) masalalari ham qishloq xo‘jaligi sohasidagi davlat siyosatining shak-shubhasiz muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yuqoridagi ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni muntazam va puxta o‘ylab amalga

oshirilishi - mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchisini faqat qo‘llab-quvvatlashni emas, balki mamlakat qishloq xo‘jaligini xalqaro bozorga olib chiqish imkonini ham beradi(2.8-jadval).

Ekilgan ekin maydonlarida respublika hududlari bo‘yicha yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilamiz. Ya’ni, 2020 yili respublika bo‘yicha barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlari 7566613 tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, shundan fermer xo‘jaliklarida 6208329 tonnani (82.0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarda 831449 tonnani (11,0 %) va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar 526835 tonnani (6,9 %) tashkil qilgan (2.8-jadval).

2.8-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlari (2020 yil), jami⁶⁵

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		shu jumladan					
			Fermer xo‘jaliklar		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar		Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari	
	tonna	o‘shish sur‘ati %	tonna	o‘shish sur‘ati %	tonna	o‘shish sur‘ati %	tonna	o‘shish sur‘ati %
O‘zbekiston Respublikasi	7566613	101,7	6208329	99,2	831449	94,5	526835	175,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	277685	94,7	219 916	92,1	42 872	100,1	14 897	126,5
viloyatlar:								
Andijon	652036	105,2	561 005	104,8	53 491	90,2	37 540	148,1
Buxoro	546556	96,0	413 449	96,4	122 355	91,1	10 752	176,4
Jizzax	732628	103,0	635 967	94,7	17 337	90,8	79 324	384,3
Qashqadaryo	885665	94,4	771 603	93,8	94 363	94,4	19 699	121,0
Navoiy	240942	101,4	200 473	102,0	33 747	96,7	6 722	108,4
Namangan	510735	102,9	418 823	101,7	72 180	93,3	19 732	275,9
Samarqand	813057	107,5	723 107	110,0	80 114	91,4	9 836	91,4
Surxondaryo	678347	110,2	528 856	111,6	85 925	94,6	63 566	124,2
Sirdaryo	467173	90,0	370 798	84,3	28 483	101,9	67 892	132,0
Toshkent	566973	99,3	381 526	79,7	22 935	90,1	162512	242,9
Farg‘ona	759262	112,5	707 232	113,8	28 683	90,8	23 347	107,0
Xorazm	435546	100,3	275574	98,1	148 956	100,2	11 016	224,4
Toshkent sh.	8	100,0	-	-	8	100,0	-	-

Hududlar bo‘yicha barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarini eng ko‘pi Qashqadaryo, Samarqand, Farg‘ona va Jizzax

⁶⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi “Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistika boshqarmasi” ma’lumotlari”. 2020 yil yanvar-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi. Manba: stat.uz.

viloyatlari mos ravishda 885665 tonna, 813057 tonna, 759262 tonna va 732628 tonnani tashkil qilgan bo'lsa, eng kam esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida mos ravishda 277685 tonna, 240942 tonna, 435546 tonna va 467173 tonna yetishtirgan. Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona va Jizzax viloyatlarda yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarini xo'jalik toifalari bo'yicha qarab chiqilganda fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklar va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashki-lotlarda mos ravishda 87,1 %, 10,6 % va 2,2 %; 88,9 %, 9,8 % va 1,2 %; 93,1 %, 3,8 % va 3,1 %; 86,8 %, 2,4 % va 10,8 foizni tashkil qilgan. Ushbu mahsulotlar bo'yicha qolgan hududlarda ham fermer xo'jaliklarining ulushi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, respublikada yetishtirilgan boshqli don ekinlari, jumladan bug'doy, sholi va dukkakli don ekinlari hamda paxta xom ashyosi yetishtirishda fermer xo'jaliklarining ulushi mos ravishda 85,4 %, 86,6 %, 70,8 %, 79,9 % va 86,4 foizni tashkil qilgan (2.9-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki respublikada barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha yetishtirilgan jami bug'doy 6016270 tonnani tashkil qilgan. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari mos ravishda 833165 tonna (13,84 %), 648612 tonna (10,78 %), 613121 tonna (10,19 %) va 590852 tonnani (9,82 %) tashkil qilgan bo'lsa eng past ko'rsatkichlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Xorazm va Sirdaryo viloyatlari mos ravishda 174053 tonna (2,89 %), 204160 tonna (3,39 %), 282740 tonna (4,70 %) va 382227 tonnani (6,35 %) tashkil qilgan. Barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan bug'doyda fermer xo'jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi mos ravishda 5212155 tonnani (86,63 %), 441941 tongna (7,34 %) va 362175 tonnani (6,01 %) tashkil qilgan. Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining ulushida eng yuqori ko'rsatkichga Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari mos ravishda 740533 tonna (11,2 %), 575590 tonna (11,0 %), 590577 tonna (11,3 %) va 468633 tonnani (9,0 %) tashkil qilgan

bo'lsa eng past ko'rsatkichlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Xorazm va Sirdaryo viloyatlari mos ravishda 143326 tonna (2,7 %), 180348 tonna (3,5 %), 184730 tonna (3,5 %) va 321442 tonnani (6,2 %) tashkil qilgan. Bug'doy yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi hududlar bo'yicha ham salmoqli hissaga ega emas.

2.9-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida yetishtirilgan bug'doy (2020 yil)⁶⁶

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			Fermer xo'jaliklar		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati %	tonna	o'sish sur'ati %	tonna	o'sish sur'ati %	tonna	o'sish sur'ati %
O'zbekiston Respublikasi	6016270	98,7	5212155	96,6	441941	94,4	362175	159,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	174053	100,8	143326	99,5	25346	100,2	5381	164,4
viloyatlar:								
Andijon	514466	107,2	480993	105,1	-	-	33473	151,8
Buxoro	423891	95,6	361430	95,0	53040	91,1	9421	215,7
Jizzax	501288	93,4	479107	93,2	8011	99,0	14170	98,3
Qashqadaryo	833165	92,7	740533	92,1	74966	92,0	17666	133,3
Navoiy	204160	99,2	180348	100,3	18392	86,9	5420	113,2
Namangan	406048	99,9	359105	96,9	29660	97,6	17283	318,9
Samarqand	648612	100,6	575590	102,0	65416	90,3	7606	93,8
Surxondaryo	590852	107,0	468633	106,7	64813	97,4	57407	123,8
Sirdaryo	382227	87,3	321442	82,4	5910	101,8	54875	131,7
Toshkent	441647	90,9	326340	73,6	620	96,3	114687	273,8
Farg'ona	613121	111,9	590577	112,6	1137	31,3	21407	108,7
Xorazm	282740	100,5	184730	99,7	94630	100,1	3380	227,9
Toshkent sh.	-	-	-	-	-	-	-	-

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi "Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistika boshqarmasi" ma'lumotlari". 2020 yil yanvar-dekabr. O'zbekiston respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi. Manba: stat.uz.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida yetishtirilgan paxta xom-ashyosi miqdorida ham fermer xo‘jaliklarining ulushi yuqori (2.10-jadval).

2.10-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida yetishtirilgan paxta xom-ashyosi (2020 yil) ⁶⁷

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		shu jumladan					
			Fermer xo‘jaliklar		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar		Qishloq xo‘jaligi korxonalarini	
	tonna	o‘shish sur‘ati %	tonna	o‘shish sur‘ati %	tonna	o‘shish sur‘ati %	tonna	o‘shish sur‘ati %
O‘zbekiston Respublikasi	3063997	113,8	2648952	106,3	-	-	415045	207,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	201 332	104,9	177 046	92,6	-	-	24 286	2 982,1
viloyatlar:								
Andijon	268 208	103,9	222 765	93,5	-	-	45 443	229,9
Buxoro	296 137	92,4	257 822	88,6	-	-	38 315	129,1
Jizzax	220 436	122,9	216 609	120,8	-	-	3 827	-
Qashqadaryo	378 206	151,1	335 603	142,3	-	-	42 603	293,2
Navoiy	101 825	114,2	101 192	114,2	-	-	633	105,3
Namangan	211 466	110,2	206 946	109,5	-	-	4 520	161,4
Samarqand	217 648	122,2	196 306	112,5	-	-	21 342	582,7
Surxondaryo	201 486	134,6	152 872	110,3	-	-	48 614	438,9
Sirdaryo	190 350	100,9	133 096	100,0	-	-	57 254	103,1
Toshkent	239 705	116,8	136 004	90,6	-	-	103701	188,1
Farg‘ona	264 121	114,1	252 701	111,9	-	-	11 420	203,2
Xorazm	273 077	106,2	259 990	101,4	-	-	13 087	1 885,7
Toshkent sh.	-	-	-	-	-	-	-	-

Tahlil ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, respublikaning barcha toifadagi xo‘jaliklarida yetishtirilgan paxta xom-ashyosi 3063997 tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, hududlar miqyosida eng yuqori ko‘rsatkichlarga Qashqadaryo, Buxoro, Andijon va Farg‘ona viloyatlari mos ravishda 378206 tonna (12,3 %), 296137 tonna (9,7 %), 268208 tonna (8,7 %) va 264121 tonna (8,6 %) tashkil qilgan, eng past ko‘rsatkichlarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlari mos ravishda 201332 tonna (6,5 %), 101825 tonna (3,3 %), 190350 tonna (6,2 %) va 201486 tonnani (6,5 %) tashkil qilgan. Paxta xom-ashyosi yetishtirishda fermer xo‘jaliklarining ulushi 2648952 tonnani (86,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarda umuman yetishtirilmagan va qishloq xo‘jaligi faoliyatini

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi “Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistika boshqarmasi” ma’lumotlari”. 2020 yil yanvar-dekabr. O‘zbekiston respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi. Manba: stat.uz.

amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi esa 415045 tonnani (13,5 %) tashkil qilgan.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining ulushida Qashqadaryo, Xorazm, Buxoro va Farg'ona viloyatlari mos ravishda 335603 tonna (12,7 %), 259990 tonna (9,8 %), 257822 tonna (9,7 %) va 252701 tonna (9,5 %) ko'rsatkichlar bilan eng yuqori o'rinlarni band etgan bo'lsa, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari esa mos ravishda 101192 tonna (3,8 %), 133096 tonna (5,0 %), 136004 tonna (5,1%) va 152872 tonna (5,8 %) ko'rsatkichlar bilan quyi o'rinlarni band etgan. Hududlar bo'yicha qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda Toshkent, Sirdaryo, Surxondaryo va Andijon viloyatlari mos ravishda 25,0 %, 13,8 %, 11,7 % va 10,9 % ko'rsatkichlar bilan yuqori o'rinlarni egallab turibdi. Tahlil natijalari ko'rsatib turibdiki qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda fermer xo'jaliklari asosan don va dukkakli don hamda paxta xom-ashyosi yetishtirishda yuqori ulushga ega bo'lsa qolgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda esa asosan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar yuqori ulushga ega ekanligi ko'rinib turibdi. Ya'ni, kartoshka, sabzavodlar, poliz, meva va rezavorlar hamda uzum yetishtirishda va ayniqsa chorvachilik mahsulotlari, jumladan yirik shoxli qoramollar, shundan sigirlar, sog'ib olingan sut, qo'y va echkilar, olingan qorako'l teri, qirqib olingan jun, otlar, parrandalar, olingan tuxum, so'yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar, olingan asal yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari mos ravishda 82,1 %, 66,3 %, 54,3 %, 56,9 %, 54,8 %, 92,8 %, 93,2 %, 94,3 %, 81,4 %, 83,9 %, 85,8 %, 76,3 %, 58,9 %, 58,2 %, 90,1 % va 82,7 foizlar bilan yuqori ulushga ega. Ayniqsa yirik shoxli qoramollar, qo'y va echkilar hamda parrandalar bosh sonida ularning hissasi yuqori (2.11-2.12-jadvallar).

Ya'ni, 2.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2021 yil 1 yanvar holatiga respublikaning barcha toifadagi xo'jaliklarida mavjud bo'lgan 13188700 bosh yirik shoxli qoramollarning fermer xo'jaliklarida 779900 boshi (5,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 12233300 boshi (92,7 %) va qishloq

xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa 175500 boshi (1,3 %) to‘g‘ri kelgan.

Barcha toifadagi xo‘jaliklar bo‘yicha hududlarda Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi mos ravishda 1620500 bosh (12,3 %), 1606000 bosh (12,2 %), 1247400 bosh (9,5 %) va 1148600 bosh (8,7 %) ko‘rsatkichlar bilan yuqori o‘rinlarni band etgan bo‘lsa, Sirdaryo, Navoiy, Namangan va Jizzax viloyatlari mos ravishda 469000 (3,5 %), 514700 bosh (3,9 %), 716800 bosh (5,4 %) va 904300 bosh (6,8 %) ko‘rsatkichlar bilan pastki o‘rinlarda bormoqda.

2.11-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning taqsimlanishi, ⁶⁸ (01.01.2021 yil)

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		shu jumladan					
			Fermer xo‘jaliklar		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar		Qishloq xo‘jaligi korxonalari	
	ming bosh	o‘shish sur‘ati %	ming bosh	o‘shish sur‘ati %	ming bosh	o‘shish sur‘ati %	ming bosh	o‘shish sur‘ati %
O‘zbekiston Respublikasi	13188,7	101,8	779,9	110,1	12233,3	101,3	175,5	103,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 148,6	103,4	61,3	111,1	1 074,2	102,8	13,1	129,7
viloyatlar:								
Andijon	1 066,2	101,3	57,0	106,7	1 001,6	100,9	7,6	102,7
Buxoro	1 247,4	101,6	82,3	112,9	1 152,7	101,0	12,4	93,2
Jizzax	904,3	101,2	47,6	114,1	837,8	100,3	18,9	113,9
Qashqadaryo	1 620,5	101,4	80,1	107,8	1 517,1	100,8	23,3	116,5
Navoiy	514,7	102,6	40,8	112,7	462,7	101,7	11,2	104,7
Namangan	716,8	101,4	37,4	112,7	676,7	101,3	2,7	48,2
Samarqand	1 606,0	101,8	85,3	110,5	1 513,2	101,3	7,5	105,6
Surxondaryo	997,7	102,4	51,0	112,8	932,5	101,7	14,2	117,4
Sirdaryo	469,0	102,2	28,8	118,5	432,3	101,2	7,9	111,3
Toshkent	931,3	101,8	81,8	106,9	808,1	101,8	41,4	93,7
Farg‘ona	1 026,0	102,2	64,0	113,3	953,2	101,6	8,8	100,0
Xorazm	936,1	101,3	62,5	101,3	867,2	101,3	6,4	100,0
Toshkent sh.	4,1	97,6	-	-	4,0	102,6	0,1	33,3

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarda Qashqadaryo, Samarqand va

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi “Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistika boshqarmasi” ma‘lumotlari”. 2020 yil yanvar-dekabr. O‘zbekiston respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi. Manba: stat.uz.

Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi mos ravishda 1517100 bosh (12,4 %), 1513200 bosh (12,4 %), 1152700 bosh (9,4 %) va 1074200 bosh (8,8 %) ko‘rsatkichlar bilan yuqori o‘rinlarda turgan bo‘lsa, Sirdaryo, Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlari mos ravishda 432300 (3,5 %), 462700 bosh (3,8 %), 676700 bosh (5,5 %) va 808100 bosh (6,6 %) ko‘rsatkichlar bilan pastki o‘rinlarda bormoqda.

Respublika hududlari bo‘yicha qo‘y va echkilarning taqsimlanishini tahlil qilganimizda ko‘rdikki (2.12-jadval), barcha toifadagi xo‘jaliklarda mavjud bo‘lgan 22498600 bosh qo‘y va echkilarning fermer xo‘jaliklarida 2989800 boshi (13,3 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarda 18309700 boshi (81,4 %) va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa 1199100 bosh (5,3 %) to‘g‘ri kelgan.

2.12-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qo‘y va echkilarning taqsimlanishi⁶⁹, (01.01.2021 yil)

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		shu jumladan					
			Fermer xo‘jaliklar		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar		Qishloq xo‘jaligi korxonalar	
	ming bosh	o‘shish sur‘ati %	ming bosh	o‘shish sur‘ati %	ming bosh	o‘shish sur‘ati %	ming bosh	o‘shish sur‘ati %
O‘zbekiston Respublikasi	22498,6	102,7	2 989,8	111,1	18309,7	101,4	1 199,1	104,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi viloyatlar:	1 154,0	103,5	140,0	109,7	994,5	102,7	19,5	102,6
Andijon	1 454,8	101,2	74,6	94,1	1 371,3	101,3	8,9	197,8
Buxoro	2 239,6	102,3	300,7	109,6	1 778,3	100,9	160,6	105,3
Jizzax	2 216,5	102,8	399,0	111,5	1 592,1	101,1	225,4	101,0
Qashqadaryo	4 726,9	102,4	352,9	117,4	4 101,1	101,2	272,9	104,6
Navoiy	2 264,2	105,2	613,4	111,1	1 375,2	102,6	275,6	106,3
Namangan	786,1	102,4	38,0	116,6	743,1	101,9	5,0	84,7
Samarqand	2 493,1	102,4	178,8	121,1	2 217,4	101,0	96,9	106,1
Surxondaryo	2421,6	102,5	425,8	109,2	1 942,8	101,2	53,0	101,0
Sirdaryo	355,1	102,1	39,8	112,7	306,0	100,9	9,3	101,1
Toshkent	1 060,3	102,6	305,6	106,6	690,7	101,4	64,0	97,7
Farg‘ona	871,3	101,7	64,6	116,4	802,6	100,7	4,1	105,1
Xorazm	448,1	102,7	56,6	108,8	387,6	101,7	3,9	114,7
Toshkent sh.	7,0	101,4	-	-	7,0	101,4	-	-

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi “Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistika boshqarmasi” ma’lumotlari”. 2020 yil yanvar-dekabr. O‘zbekiston respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi. Manba: stat.uz.

Barcha toifadagi xo‘jaliklar bo‘yicha hududlarda Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Navoiy viloyatlari mos ravishda 4726900 bosh (21,0 %), 2493100 bosh (11,1 %), 2421600 bosh (10,8 %) va 2264200 bosh (10,1 %) ko‘rsatkichlar bilan yuqori o‘rinlarni band etgan bo‘lsa, Sirdaryo, Xorazm, Namangan va Farg‘ona viloyatlari mos ravishda 335100 (1,6 %), 448100 bosh (2,0 %), 786100 bosh (3,5 %) va 871300 bosh (3,9 %) ko‘rsatkichlar bilan pastki o‘rinlarda bormoqda. Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarda Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Buxoro viloyatlari mos ravishda 4101100 bosh (22,4 %), 2217400 bosh (12,1 %), 1942800 bosh (10,6 %) va 1778300 bosh (9,7 %) ko‘rsatkichlar bilan yuqori o‘rinlarda turgan bo‘lsa, Sirdaryo, Xorazm, Toshkent va Namangan viloyatlari mos ravishda 306000 (1,7 %), 387600 bosh (2,1 %), 690700 bosh (3,8 %) va 743100 bosh (4,0 %) ko‘rsatkichlar bilan pastki o‘rinlarda bormoqda.

2.13-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha parrandalarning taqsimlanishi⁷⁰, (01.01.2021 yil)

	Barcha		shu jumladan					
	toifadagi xo‘jaliklar		Fermer xo‘jaliklar		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar		Qishloq xo‘jaligi korxonalar	
	ming bosh	o‘shish sur‘ati %	ming bosh	o‘shish sur‘ati %	ming bosh	o‘shish sur‘ati %	ming bosh	o‘shish sur‘ati %
O‘zbekiston Respublikasi	90131,8	102,6	13323,6	108,3	53131,5	102,9	23676,7	98,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4771,0	105,4	379,4	111,7	4038,6	104,7	353,0	108,2
viloyatlar:								
Andijon	8390,0	104,8	1418,3	122,5	5740,6	102,3	1231,1	99,6
Buxoro	5774,4	107,8	1405,5	104,8	2903,1	101,4	1465,8	127,1
Jizzax	3621,7	101,3	290,9	95,9	2058,3	102,8	1272,5	100,3
Qashqadaryo	6180,3	102,2	365,4	115,5	4483,1	104,8	1331,8	91,6
Navoiy	3144,2	103,7	322,1	101,8	2057,5	102,4	764,6	108,2
Namangan	5227,5	89,4	1816,0	79,3	2080,6	104,2	1330,9	85,2
Samarqand	13448,8	104,5	4442,8	118,7	6387,6	102,9	2618,4	89,7
Surxondaryo	5102,5	104,3	338,6	138,1	2569,7	102,5	2194,2	102,5
Sirdaryo	2633,1	101,7	141,0	101,1	1593,8	101,9	898,3	101,5
Toshkent	17193,8	101,1	639,9	126,4	9971,3	103,3	6582,6	96,0
Farg‘ona	8546,0	105,3	969,0	109,8	5277,4	102,1	2299,6	111,3
Xorazm	6072,6	101,8	794,7	110,4	3944,0	101,9	1333,9	97,0
Toshkent sh.	25,9	104,4	-	-	25,9	104,4	-	-

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi “Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistika boshqarmasi” ma’lumotlari”. 2020 yil yanvar-dekabr. O‘zbekiston respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi. Manba: stat.uz.

Respublika hududlari bo'yicha parrandalarning taqsimlanishini tahlil qilganimizda ko'rdikki, barcha toifadagi xo'jaliklarda mavjud bo'lgan 90131,8 ming bosh parrandalarning fermer xo'jaliklarida 13323,6 ming boshi (14,7 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda 53131,5 ming boshi (58,9 %) va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa 23676,7 ming bosh (26,3 %) to'g'ri kelgan (2.13-jadval).

Barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha hududlarda Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlari mos ravishda 17193,8 ming bosh (19,1 %), 13448,8 ming bosh (14,9%), 8546,0 ming bosh (9,5%) va 8390,0 ming bosh (9,3%) ko'rsatkichlar bilan yuqori o'rinlarni band etgan bo'lsa, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari mos ravishda 2633,1 ming bosh (2,9 %), 3144,2 ming bosh (3,5 %) va 3621,7 ming bosh (4,0 %) ko'rsatkichlar bilan pastki o'rinlarda bormoqda. Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlari mos ravishda 9971,3 ming bosh (18,7 %), 6387,6 ming bosh (12,0 %), 5277,4 ming bosh (9,3 %) va 5740,6 ming bosh (10,8 %) ko'rsatkichlar bilan yuqori o'rinlarni band etgan bo'lsa, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari mos ravishda 1593,8 ming bosh (3,0 %), 2057,5 ming bosh (3,9 %) va 2058,3 ming bosh (3,9 %) ko'rsatkichlar bilan pastki o'rinlarda bormoqda. Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari mos ravishda 6582,6 ming bosh (27,8 %), 2618,4 ming bosh (11,0 %), 2299,6 ming bosh (9,7 %) va 2194,2 ming bosh (9,3 %) ko'rsatkichlar bilan yuqori o'rinlarni band etgan.

Ovlangan baliq bo'yicha qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar 48,8 % bilan yuqori ko'rsatkichga ega.

Hozirgi sharoitda chorvachilik tarmog'ini statistik o'rganib chiqishning asosiy vazifalari quyidagilardir: tarmoq faoliyati ustidan statistik kuzatuv o'tkazish dasturini ishlab chiqish; chorvachilik faoliyati natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash; chorvachilik mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish ko'lamlari o'zgarishining mutloq sur'ati va intensivligini tahlil qilish; qishloq

xo‘jalik mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish ko‘lamlaridagi strukturalar va strukturaviy siljishlarni tahlil qilish; qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘lamlarining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha hududiy taqqoslashlar o‘tkazish; chorvachilik faoliyati natijalarini tavsiflovchi dinamikaning bir o‘lchamli qatorlarini modellashtirish va prognozlashtirish; chorvachilik faoliyatining natijalariga ta’sir qiluvchi har xil omillarni tahlil qilish; dinamikaning ko‘p o‘lchamli qatorlarini modellashtirish va prognozlashtirish.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun bartarf etilish zarur bo‘lgan muammolar sifatida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni chuqur qayta ishlash, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, tarmoqni rivojlantirish uchun investitsion muhitni yaxshilash va faoliyat samaradorligi va shaffofligini ta’minlash zarur. Bu borada Prezidentimizning “Prezident avvalo, yer va suv resurslaridan samarali foydalanib, hosildorlikni oshirish masalasini muhokama qildi. Fermerlarga tuproqning tarkibini aniqlash, urug‘lik tanlash, ekinni sug‘orish va zararkunandalardan himoyalashda ko‘maklashish kerakligini ta’kidladi. Shu maqsadda davlat rahbari 200 ming gektar maydonni lazerli tekislash taklifini ma’qulladi. Bunda hosildorlik oshgan maydonlar uchun subsidiya ajratiladi, lazerli tekislash uskunasini sotib olgan fermerlar xarajati qoplab berilishi zarurligi, Fermer xo‘jaliklarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, kredit va subsidiya olishni yengillashtirish zarurligi ” fikrlari o‘rinli hisoblanadi.

Shu bilan birga, meva-sabzavotlarni chuqur qayta ishlash. Lekin, hozircha bu boradagi ko‘rsatkich past. Bog‘ va uzumzorlarning 20 foizida, sabzavot maydonlarining atigi 7 foizida intensiv usul joriy qilingan. Shu bois oziq-ovqat sanoatida 2 163 ta loyiha shakllantirilgan. Ularning natijasida 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari importi qisqarib, eksport imkoniyati ochiladi. 37 mingdan ziyod kishi ish bilan ta’minlanadi.

Prezident meva-sabzavotlarni chuqur qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymatni bemalol 3–4 baravarga oshirish mumkinligi, shuningdek, Mirzaobod, Denov,

Parkent, O'rtacha Chirchiq, Urganch va Quva tumanlarida shunga ixtisoslashgan oziq-ovqat sanoat parklarini tashkil qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Raqamlashtirish bo'lmasa, sohada haqqoniy statistika bo'lmaydi. To'g'ri ma'lumot bo'lmagach, agroxizmatlar rivojlanmaydi, fermerlar qachon nimani eksa, ko'proq daromad olishini bilmaydi⁷¹.

Yuqoridagi tahlillar asosida qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi dehqon-fermer xo'jaliklarining samarali faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, fermer xo'jaliklarining tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan shartnomalarni mustaqil ravishda tuzish va uning bajarilishida teng huquqqa ega bo'lishi zarur.

ikkinchidan, fermer o'z xo'jaligining ustav kapitalini mustaqil shakllantirish va boshqarish vakolatiga ega bo'lsada, lekin moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada emasligi sababli uni muttasil kengaytirib borish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.

uchinchidan, ish jarayoniga barcha sheriklarni erkin tanlash va ular bilan o'zaro munosabatlarni mustaqil o'rnatishga asoslanib faoliyat yuritishlariga qaramasdan, aksariyat hollarda tulov qobiliyatining pastligi sababli fermer xo'jaliklari o'z majburiyatlarini to'liq ado eta olmayapti.

to'rtinchidan, moddiy-texnik resurslar va ko'rsatiladigan servis xizmatlari narxlarining yuqoriligi ularning sof foyda darajasini muttasil o'stirishiga jiddiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Demak, fermer xo'jaliklarini bu sohada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarurdir.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda faoliyat yurituvchi fermer xo'jaliklari faoliyatining SWOT tahlili amalga oshiriladi (2.14-jadval).

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini meva-

⁷¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/20/agro/>

sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining yangi texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlanishi uchun zaruriy moliyaviy yordam (lizing, imtiyozli kredit) berishni kengaytirish, xorijiy kredit liniyalari asosida agrofimlar tomonidan mahsulotlarni saqlash joylarini yangilarini barpo etish hamda tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar liniyalar mazkur soha vakillariga alohida ajratishni yo‘lga qo‘yish orqali tarmoqni yanada rivojlantirish va faoliyat samaradorligini oshirish mumkin bo‘ladi.

2.14-jadval

O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklari faoliyatini SWOT tahlili⁷²

Kuchli tomonlar	Kuchsiz (zaif) tomonlar
<ul style="list-style-type: none"> -tarmoqda salohiyatli tajribaning yuqoriligi; -hosildor ekin maydonlari mavjudligi; -ko‘plab qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun qulay iqlim (meva, sabzavot, poliz, ozuqa ekinlari, uzumchilik va h.k.) - qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi ilmiy-tadqiqot muassasalari mavjudligi; -qulay geografik holat, transport infratuzilmasi va avtotransport tizimining yetarlicha rivojlanganligi; -soha rivojiga zarur bo‘lgan mehnat resurslarining yetarli ekanligi; -moliyalash, kreditlash va sug‘urta tashkilotlarining rivojlangan tizimi. 	<ul style="list-style-type: none"> - fermer xo‘jaliklarida asosiy ishlab chiqarish fondlarning yetarli emasligi, ularning yuqori darajada, jismoniy va ma‘naviy eskirganligi; - yuqori sifatli va qayta ishlash uchun mahsulotlar va xizmatlar yetishtirib berishga zamonaviy texnologiyalarning yetishmaganligi; - qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qayta ishlash uchun yetarlicha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud emasligi; - berilayotgan imkoniyatlardan aholining yetarli axborotlarga ega emasligi.
Imkoniyatlar	Xavf-xatarlar
<ul style="list-style-type: none"> -hududiy resurslardan samarali foydalanish (er, ko‘chmas mulk) ko‘chmas mulk, bo‘sh yer maydonlarini hisobga olishni takomillashtirilishi; -qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish imkoniyati; -hududda yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qo‘shni va uzoqda joylashgan mamlakatlarga yetkazish imkoniyati; -qishloq xo‘jaligi klasterlarini tashkil etish bo‘yicha zaruriy imkoniyatlar yaratilganligi; -qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilma obyektlarining rivojlanayotganligi. 	<ul style="list-style-type: none"> -pandemiya sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxining barqaror emasligi; -qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyalariga rioya qilinmaslik, buni natijasida yer hosildorligi va unumdorligini pasayishi; - atrof-muhitni ifloslanishi; -ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonaning monopol mavqeyi asosida yetishtirilgan mahsulotlar narxini past qiymatlarda sotib olinishi; -saqlash joylarining yetarli emasligi.

⁷²Muallif tadqiqotlari asosida amalga oshirilgan

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotimizda eksport salohiyatinnig ortishiga bevosita ta’sir qiladi(2.15-jadval).

2.15-jadval

O‘zbekistonda meva-sabzavotlar eksporti tarkibi⁷³ mln. AQSh dollari

Maxsulot turlari	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2021 yilda 2018 yilga nisbatan o‘zgarishi	
					+, -	%
Meva-rezavorlar	357,7	406,8	353,9	280,6	-77,1	78,4
Sabzavotlar	307,7	471,3	400	422	114,3	1,4 m
Uzum	179,7	223,7	188,3	208,5	28,8	1,2 m
Eryong‘oq	22,9	14,4	16,5	23,5	0,6	102,6
Qovun-tarvuz	6,5	13,1	35,6	22,7	16,2	3,5 m

Yuqoridagi jadvalda 2018-2021 yillarda respublikamizda meva-sabzavotlar eksporti tarkibi keltirilgan.

Tahlillardan ko‘rinadiki, 2021 yilga kelib, meva-sabzavotlar eksporti tarkibida tuzilmaviy o‘zgarishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, yangi qovun va tarvuzlar eksporti o‘rganilayotgan yillarda 3,5 martaga ortgan, mevalar va rezavorlar eksporti 78,4 foizga kamaygan, sabzavotlar eksporti 1,4 martaga, yeryong‘oq 102,6 foizga, uzum eksporti 1,2 martaga ortgan.

Shuningdek, 2021 yilda meva-sabzovat mahsulotlari eksporti tarkibiy jihatdan tahlil qilish kerak bo‘ladi (2.16-jadval).

Jadvalning tahlili shundan dalolat beradiki, 2021 yilda ba’zi eksport qilingan mahsulotlar hajmida sezilarli o‘sish kuzatilgan. Masalan, o‘tgan yilga nisbatan sabzavotlar 101,9 foiz, uzum va quritilgan uzum mos ravishda 110,7 va 110,4 foizga o‘sgan, meva-rezavorlar 79,3 foizga teng bo‘lgan. Faqat 2021 yilda 2020 yilga nisbatan yangi qovun va tarvuzlar 63,6 foizga pasayib, yeryong‘oq 124,4 foizga ortgan.

⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

O‘zbekistonda 2021 yilda meva-sabzovat mahsulotlari eksporti hajmi⁷⁴

Maxsulot turlari	Miqdori, ming tonna	Mln. doll	Bazis yiliga nisbatan foizda
Jami	1521,8	957,3	94,9
Sabzavot	820,9	422,0	101,9
Uzum	270,6	208,5	110,7
Shu jumladan: quritilgan	54,8	60,8	110,4
Yangi qovun va tarvuz	82,9	22,7	63,6
Meva va rezavorlar	325,4	280,6	79,3
Shu jumladan: quritilgan	57,8	44,1	87,9
Eryong‘oq	22,0	23,5	124,4

O‘zbekiston kelajakda rivojlanishini barqarorligini ta‘minlash uchun iqtisodiyot tuzilmasidagi siljishlarning zaruriyati islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangi ijtimoiy-iqtisodiy darajaga ko‘tarishda o‘z aksini topadi. Ushbu mavzudagi tadqiqot olib boruvchi olimlar oldida iqtisodiyot tarmoqlarida vujudga kelayotgan siljishlarni miqdor va sifat borasida keng qamrovda tadqiq qilish orqali samarali iqtisodiyot tuzilmasini shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash vazifasi turibdi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tuzilmasida sodir bo‘lgan siljishlarni statistik o‘rganish usullari universal bo‘lib, ularning iqtisodiyotning barcha jabhalari va darajalarida qo‘llash imkonini beradi.

Nisbiy miqdorlarda ifodalangan to‘plam tarkibini – to‘plamning tuzilmasi, uni tavsiflovchi shu nisbiy kattaliklarni esa – tuzilma nisbiy miqdorlari deb atashimiz mumkin bo‘ladi. Tuzilma unsurini ifodalovchi salmoq yoki ulushning o‘zgarish dinamikasini kuzatib, istalgan tarkibiy siljishlarni miqdoran hisoblash mumkin bo‘ladi.

Fermer xo‘jaliklarining ekinlarini almashlab ekish texnologiyasidan unumli foydalanmasligi, melioratsiya tadbirlarini yetarli holatda bajarilmasligi, fermerlarga ajratilgan yer maydonlarining unumdorligi pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa

⁷⁴O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2018-2021 yy. Statistik to‘plam.- Toshkent, Davlat Statistika qo‘mitasi, 2021 yil -66 bet.

ekinlar hosildorligini pasayib ketishigaolib kelmoqda. Fermer xo‘jaliklarida ekinlar hosildorligi dehqon xo‘jaliklaridan past holda qolmoqda.

Sug‘oriladigan yerlar meliorativ holatini saqlab qolish va tiklash, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish orqali amalga oshirish zarur.

Fermer xo‘jaliklarining asosan dehqonchilikka ixtisoslashgani sababli ular qaramog‘ida bo‘lgan chorva mollari sonining kamligi kuzatiladi. Ozuqaning yetishmasligi, fermer xo‘jaliklarida ozuqa bazasini kengaytirish imkoniyatining chegaralanganligi, bu xo‘jaliklarda chorva mollarni ko‘paytirish, ular mahsuldorligini oshirishda asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan subyektlar faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida quyidagilarni taklif etamiz: agrar sohani rivojlantirish uchun strategik loyihalar ishlab chiqish, unga investitsiyalarni yo‘naltirish, qayta ishlash sanoati korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ko‘lamini kengaytirish kabi tadbirlarni ishlab chiqish va boshqalar.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa

1.Hozirgi sharoitda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini statistik uslubiyotini takomillashtirish muhim masala hisoblanadi. Buning uchun ilmiy ishimizda quyidagi asosiy vazifalar tavsiya etildi: tarmoq faoliyati ustidan statistik kuzatish (yoppasiga, tanlanma, anketa orqali, monografik kuzatishlar va boshqalar) o‘tkazish dasturini ishlab chiqish; qishloq xo‘jaligi faoliyati moliyaviy natijalari (hosildorlik, mahsulot tannarxi, foyda)ni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlari (dehqonchilik va chorvachilik)ni ishlab chiqarish hajmining mutloq va nisbiy o‘zgarishini statistik tahlil qilish; qishloq xo‘jalik mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish ko‘lamlaridagi tarkibiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va x.k.

2.Mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘lamining asosiy ko‘rsatkichlarini hududlar bo‘yicha taqqoslashlarni turli statistik usullarda (iqtisodiy indekslar, korrelyatsion-regression tahlil va boshqalar) amalga oshirish maqsadli sanaladi.

3.Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatining natijalariga ta’sir qiluvchi turli xil omillarni kompleks statistik tahlil qilish va ular asosida ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

4.Bugungi kunda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish mamlakat taraqqiyotining muhim jabhasiga, ayniqsa qishloq aholisining doimiy bandligi va farovonligini ta’minlashda asosiy kuchga aylandi hamda mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sabali mazkur bobda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari oldida turgan asosiy muammolarni hal qilish, ularni davlat tomonidan har tamonlama qo‘llab quvvatlash bo‘yicha zaruriy chora tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy xulosa va takliflar berildi.

III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING TARKIBIY O‘ZGARISHLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH

3.1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini statistik baholash

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida tuzilmaviy-tarkibiy o‘zgarishlar, xususan chorvachilik sohasini ko‘p ukladli asosda rivojlantirish, sohani moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, sotuv tizimini rivojlantirish borasida maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ammo iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi chorva mollarining mahsuldorligini oshirish hisobiga qishloq xo‘jaligida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishni taqozo etadi.

Shuning uchun, mamlakatimizda 2022 yil agrar tarmoqni rivojlantirish uchun qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga 5 000 000,0 mlrd.so‘m miqdorida beg‘araz moliyaviy yordam, fermer xo‘jaliklariga grant mablag‘lari taqdim etish uchun Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga 1 000 000,0 mlrd.so‘m miqdorida mablag‘lar, qishloq xo‘jaligi korxonalariga qishloq xo‘jalik texnikasini xarid qilishga ajratilgan lizing yoki kreditlar bo‘yicha foizlarni qoplash uchun xarajatlarga 60 000,0 mlrd. so‘m, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga moliyaviy taqchillikni bartaraf etish uchun jalb etilgan mablag‘lar, shu jumladan byudjet ssudasi va tijorat banklariga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun joylashtirilgan resurslarning foiz stavkalari o‘rtasida yuzaga keladigan salbiy tafovutni hamda paxta xom-ashyosini mashinada terish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun 840 500,0 mlrd. so‘m mablag‘lar ajratildi⁷⁵.

⁷⁵ “O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonuni. 2021 yil 26 noyabrda qabul qilingan. www.lex.uz

Shuningdek, qishloq xo‘jaligida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish uchun 16 700,0 mlrd so‘m subsidiya, qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan sug‘oriladigan maydonlar va cho‘l hududlardagi yerlarni qayta foydalanishga kiritish uchun xarajatlarga 220 000,0 mlrd.so‘m, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi xarajatlari uchun jami 615 728,9 mlrd. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligiga 3 440 003,5 mlrd. so‘m mablag‘lar ajratildi⁷⁶.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish” nomli 30-maqsadi⁷⁷da tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish, qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, 200 ming gektar paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish ishlarini amalga oshirish belgilab berilgan.

Yuqoridagilar, albatta, tarmoqni rivojlantirish maqsadida qilinayotgan chora tadbirlar hisoblanadi. Ularni samaradorligini oshirish esa tarmoq rivojlanishini statistik tahlil qilish va kelgusi davrlar uchun prognoz qilish orqali zaruriy ko‘rsatkichlarni nazorat qilib borishga bog‘liq ligi sabab, tarmoqni statistik kuzatuvlar natijasida olingan ma’lumotlar asosida tahlil qilish zarur.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini statistik baholash bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar o‘tkazgan bo‘lib, I.Bright⁷⁸,

⁷⁶ “O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonuni. 2021 yil 26 noyabrda qabul qilingan. www.lex.uz

⁷⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60 sonli Farmoni. Lex.uz

⁷⁸Bright I.R. Some Management Lessons from Technological Innovation Research, National Conference on Management of Technological Innovation, University of Bradford Management Centre, 1968.,

R.Jochimsen⁷⁹, K.R.Makkonnell⁸⁰ va boshqalar tarmoq rivojlanishini nazariy tadqiqot olib borganlar.

O‘zbekistonlik olimlardan N.M.Soatov⁸¹, T.Sh.Shodiev⁸², B.B.Berkinov⁸³, Yo.A.Abdullaev⁸⁴, X.J.Xo‘jaqulov⁸⁵, T.X.Farmonov⁸⁶, Q.X.Abdurahmanov⁸⁷lar qishloq xo‘jaligini iqtisodiy rivojlantirish va tuzilmaviy–tarkibiy o‘zgarishlarni statistik baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlantirish uchun qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rnini, o‘ziga xos xususiyatlarini hamda nazariy asoslarini yoritish, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining dehqon xo‘jaligi va chorvachilik sohalariining statistik ko‘rsatkichlar tizimini tuzish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida statistik xisob tizimini tanlanma kuzatish usuliga o‘tkazish bo‘yicha ilmiy izlanishlar o‘tkazib, olingan natijalar asosida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati, tendensiyalari, ularga ta’sir qiluvchi omillarni ekonometrik modellar asosida baholash, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari, asosiy tendensiyalari orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni indekslar usuli orqali statistik tahlil etish zarur.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish hajmlarini o‘rishini ta’minlash uchun ekonometrik modellashtirish va prognozlash metodlardan foydalanib, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va olingan natijalari asosida ilmiy taklif ishlab chiqish va asoslash, mavsumiylik komponentlarini hisobga olib,

⁷⁹Jochimsen R. Theory der infrastmctur - Tubingen: Mohr.,1966.

⁸⁰Makkonnell K.R. Ekonomiks. V 2-xt. T-1. – M., 2003. – 399 s.

⁸¹ Soatov N.M. Statistika. Darslik. - T.: Ibn Sino, 2003, -744 b

⁸² Shadiev T.Sh. i dr. Ekonometrika.ucheb. posobie. – T.:Sharq, 1999, 240 s

⁸³ Berkinov B.B. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo‘nalishlari.– T.: TDIU, 2007, -23 b

⁸⁴ Abdullaev Yo.A. Makroiqtisodiy statistika. Darslik, -T.,Universitet, 1998, -226 b.

⁸⁵ Xujakulov X.D. va boshqalar. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida tarkibiy o‘zgarishlarning samarali yo‘llarini statistik metodlar asosida ishlab chiqish. Monografiya. T.:Navro‘z, 2018.- 206 b.,

⁸⁶ Farmonov T.X. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. -30 b

⁸⁷ Abdurahmanov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Inson taraqqiyoti. –T.:Fan va texnologiya,2013, -205 b

qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarishni ko'p variantli o'rta muddatga mo'ljallangan prognoz modellarini tuzish mamlakatimizda agrar tarmoqni rivojlanishiga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda agrar tarmoqni rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati, asosiy tendensiyalari, statistik xisobotlar shakllari yuritilishi hamda ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Ushbu masalalarni yechimi sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish va hozirgi kundagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish statistikasiga daxldor bo'lgan qator ko'rsatkichlar bilan to'ldirilishini keltirishimiz mumkin bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i dehqonchilik va chorvachilikni tashkil qilishini inobatga olib, tarmoqda statistik kuzatuvlar o'tkazish va ekonometrik tahlillarni amalga oshirish uchun, tarmoqni yuqorida keltirilgan ikki sohaga ajratgan holda alohida tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, chorvachilik statistikasi asosiy ko'rsatkichlar tizimi haqida to'xtalib o'tamiz (3.1-jadval).

Quyida keltirilgan chorvachilik statistikasi ko'rsatkichlari tizimi, chorvachilikni qishloq xo'jaligining tarmog'i sifatidagi holati va rivojlanishini elektron tarzda kompleks baholash imkonini beradi.

Tahlillar ko'rsatishicha, oxirgi bir necha yil davomida taqdim etilishi kerak bo'lgan hisobot hujjatlari sonining qisqarganligi tendensiyasi ko'zga tashlanmoqda. Masalan, oxirga o'n yilda chorvachilik bo'yicha hisobotlarning soni amalda ikki marta kamaygan. Tarmoq faoliyati haqida ma'lumotlar 1-QX, 1-FX va 1-DX shakllari orqali berilib, ularning mazmuni ilmiy tadqiq etilgan.

Chorvachilik statistikasi asosiy ko'rsatkichlar tizimi⁸⁸

Ko'rsatkichning nomi	Mazmuni	Hisoblash usuli
Podani so'yish uchun brakka chiqarish ko'rsatkichi	Podaning umumiy oboroti hajmida so'yish uchun foydalanilgan podaning solishtirma og'irligini ko'rsatadi	Oborotdagi poda sonida so'yiladigan poda bosh soni
Chorva mollariga tekkan o'lat ko'rsatkichi	Podaning umumiy oborotida nobud bo'lgan mollarning solishtirma og'irligini ko'rsatadi	Oborotdagi poda bosh sonida nobud bo'lgan mollar soni
Urchiydigan urg'ochilar ko'rsatkichi	Urchishga qodir umumiy urg'ochilar sonidagi nasl bergan urg'ochilarning solishtirma og'irligi	Bolalagan urg'ochilar soni, nasl berishga qodir urg'ochilar soni
Urg'ochilarning qisirlik ko'rsatkichi	Urchishga qodir urg'ochilarning umumiy sonidagi bolalamagan urg'ochilar solishtirma og'irligini ko'rsatadi.	Bolalamagan urg'ochilar soni, nasl berishga qodir urg'ochilar soni
Tug'ilgan naslni parvarishlash ko'rsatkichi	Nasl olish uchun mo'ljallangan har bir (yuz) urg'ochiga nechta tirik nasl to'g'ri kelishini ko'rsatadi	Olingan tirik nasl soni, nasl olish uchun mo'ljallangan urg'ochilar soni
Podaning bolalaydigan g'unojin (yosh qoramol) bilan ta'minlanganligi	Har bosh yetilgan mol soniga necha bosh bolalaydigan g'unojin to'g'ri kelishini ko'rsatadi	Bolalaydigan g'unojinlar soni, tegishli mollar guruhida yetilgan mollar tuyoq soni
Sigirlarning o'rtacha sersutligi	Bitta sog'iladigan sigirdan ishlab chiqariladigan o'rtacha sut miqdori	Yalpi sog'iladigan sut, sog'iladigan sigirlar soni
Mollarning zichlik ko'rsatkichi	Bir birlik qishloq xo'jalik maydoniga to'g'ri keladigan chorva sonini ko'rsatadi	Tegishli turdagi mollar bosh soni, qishloq xo'jaligi yer maydoni
Ixtisoslashish darajasi ko'rsatkichi	Tovar mahsuloti strukturasi asosiy tarmoq ulushi	Eng ko'p ulushli tarmoqning mahsulot hajmi, tovar mahsuloti umumiy hajmi
Mexanizatsiya darajasi	Bajariladigan ishlar umumiy hajmidagi mexanizatsiyalashgan ishlar (solishtirma og'irligi) ulushi	Mexanizmlar yordamida bajariladigan ish hajmi, bajariladigan ish umumiy hajmi

Hozirgi davrda maxsus tashkil etilgan kuzatuvlarni olib borishning asosiy tendensiyasi – yalpi tekshirishlardan tanlama tekshirishlarga o'tishdir. Amaliyotda tanlab o'tkaziladigan tekshirishlarning qo'llanilishi quyidagi sabablarga bog'liq: statistik tekshirishning tanlab o'tkaziladigan usulini amalda qo'llanilishi ham moddiy xarajatlarni, ham mehnat sarflanishini jiddiy kamayishiga imkon beradi; kuzatuvning bu turi axborot olish vaqtini ancha qisqartiradi; ko'p hollarda tanlab tekshirish, tekshirishning kengaytirilgan dasturini qo'llash natijasida tekshirish obyekti haqida to'liqroq va xilma-xil axborot olishga imkon beradi; tanlab tekshirish usulini qo'llash xo'jalik yuritishning turli xil mayda subyektlarining (uy xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari) faoliyati haqida ma'lumot olishga imkoniyat yaratadi. Tanlanma tekshirishni chorvachilik sohasida qo'llashda birliklarni tanlangan umumiylikka saralab olishning ikkita - mexanik va tipik usulidan foydalanildi.

⁸⁸Muallif tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar asosida tuzilgan.

Qishloq xo'jaligi subyektlaridagi chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning tanlov umumiyliklarini shakllantirish uchun 2 pog'onalik tasodifiy tanlashning modeli qo'llanilib, tanlashning har bir pog'onasida (aholi yashaydigan punktlar, dehqon xo'jaliklari) tanlab olishning asosida yotgan (umumiy ekin maydoni va mollarning shartli soni) ko'rsatkichlar kattaligiga proporsional bo'lish ehtimolligi bilan tanlovlar o'tkaziladi.

Asosiy (bosh) to'plamdan tanlab olishning ikkita bosqichi uchun belgilanadi:

I bosqich – Chorvachilikka ixtisoslashgan (fermer, dehqon va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar) xo'jaliklarga ega bo'lgan aholi punktlarining umumiy soni.

II bosqich- I bosqichdagi aholi punktlaridan tanlanma to'plamga kiritilgan ixtisoslashgan xo'jaliklar soni.

Kuzatish birligi – chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar.

Tanlovning asosi – ikkala umumiylikning har biri uchun tanlashning o'z asosi tuziladi:

I-bosqich–oxirgi sana holatiga ko'ra aholi punktlarining ro'yxati tipik dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar soni, ularning shartli mollarning miqdori ko'rsatilgan holda tuziladi;

II-bosqich-aholi yashaydigan punktlardagi I bosqichda tanlab olingan, har bir xo'jalik bo'yicha mollarning shartli miqdori ko'rsatilgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning ro'yxati (asosiy massiv – tipik umumiylik).

Har bir bosqichda tipik usulda ixtisoslashgan xo'jaliklarning tanlangan umumiylikni shakllantirish uchun tanlab olish asosida yotuvchi (mollarning shartli miqdori) ko'rsatkichlarning kattaligiga proporsionalligi ehtimol bo'lgan kuzatuv birligini tanlab olish usuli qo'llanadi. Shunday qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:chorvachilik statistikasida hozirgi davrda statistik xisobot statistik axborotning asosiy manbai bo'lib qoladi; yalpi kuzatish bilan bir qatorda tanlanma tekshirishning o'tkaziladigan usullari keng qo'llanadi; tanlanma tekshirishning an'anaviy usullaridan tashqari statistik hisobga olishning registrlari tuzila

boshlandi; statistik kuzatuvda deyarli har yili o'tkaziladigan ro'yxatga olishlar alohida o'rin tutadi.

Ko'p yillik tajribalar natijasida xo'jalik yuritish shakllari orasida fermer xo'jaliklari bozor talablariga ko'proq mos kelishi o'z isbotini topdi. Ular qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish va agrar resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turmoqda va ularni qo'llab-quvvatlash uchun har yili katta miqdorda moddiy resurs va mablag'lar ajratilmoqda⁸⁹.

Qishloq xo'jaligida amalga oshiriladigan islohotlar 2017 yilda tubdan o'zgartirilib, joriy yildan boshlab sohada innovatsion ishlanmalarni qo'llashni rag'batlantirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishga o'tish, resurstejamkor va ilg'or tajribalarni keng qo'llash, eng asosiysi, respublikamizda "Biz "personallashtirilgan qishloq xo'jaligi" konsepsiyasini ishlab chiqishda hamkorlik qilishni taklif etamiz. Bu konsepsiya qishloq xo'jaligi ekinlarining muayyan muhit, tuproq, o'g'it, suv va biostimulyatorlarga nisbatan reaksiyasini inobatga olib, ularning aniq genotiplariga e'tibor qaratishni nazarda tutadi"⁵⁸deb mamlakat Prezidenti tomonidan bildirilgan fikr, birinchidan, jahonning rivojlangan davlatlari qishloq xo'jaligidagi va soha ilmi-fanidagi ilg'or innovatsion ishlanmalarni joriy qilinishidan manfaatdor ekanligini, ikkinchidan, bu global tadbir natijasida Respublikamiz qishloq xo'jaligidagi salohiyatni yanada rivojlantirish orqali uning investitsion jozibadorligini oshirish, uchinchidan, sohada chuqur diversifikatsiya tadbirlarini amalga oshirish orqali barqaror va sifatli tovar mahsuloti ishlab chiqarish hamda sohada samaradorlikni keskin oshirish imkoniyatlari kengayadi.

⁸⁹ Soatova X.Ya. Xujakulov X.D. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanish tendensiyalari. Agrar sohani modernizatsiyalash sharoitida qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari to'plami. T.: QXIITI, 2014

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitidagi nutqi. Xalk so'zi, 2017 yil 11 sentyabr.

Ma'lumki, respublika milliy iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari ham agrar sohaning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Jumladan, mamlakat sanoatining paxta tozalash, to'qimachilik, trikotaj, tikuvchilik, poyabzal ishlab chiqarish, oziq-ovqat, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, yog'-moy ishlab chiqarish tarmoqlari fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan bevosita bog'liq.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining yirik va muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz doimiy aholisining qariyb 50 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlarning deyarli uchdan biri mazkur tarmoqda faoliyat ko'rsatadi, qishloq xo'jaligi yerlari mamlakat jami yer maydonining 45 foizni tashkil qiladi. Tarmoqda yaratilgan qo'shilgan qiymat salmog'i YaIM tarkibida 16.7 foizni tashkil etib, so'nggi yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lsada, tarmoq mahsulotlarini yetishtirish yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda.

Mamlakatimizda agrar tarmoq ko'plab sohalarni o'z ichiga olib, tarmoq tarkibidagi sohalarning har birida alohida rivojlanish tendensiyalari yuz berganda rivojlanishi mumkin hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda statistika sohasida ham ko'plab o'zgarishlar kuzatilayotganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi statistikasi amaliyotida 2016 yilga qadar tasniflash iqtisodiyot tarmoqlarining umumdavlat tasniflagichi (ITUT) asosida yirik guruhlar bo'yicha taqdim etilgan. Shundan keyin biroz vaqt iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi IFUT-1 tahririga hamda 2017 yil 1 yanvardan esa xalqaro andozalarga muvofiq keluvchi (IFUT-2)ga o'tildi⁶³. IFUT-2 da faoliyat turlarini guruhlash yakuniy mahsulotlar, ishlab chiqarish omillari va jarayonlarining bir xilligidan kelib chiqib amalga oshiriladi, ya'ni bir xo'jalik subyekti turli sinflarga va hatto seksiyalarga taalluqli faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'rganilayotgan obyektning tahlil

⁶³O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi 275-sonli «Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori.

qilish sharoitini yengillashtiradi hamda statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun asos bo'ladi va undan quyidagilarda foydalaniladi: statistik birliklar taqdim etgan birlamchi statistikada, shuningdek statistik ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonida; milliy hisobchilik tizimi asosida makroiqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirishda; xalqaro statistik ma'lumotlar almashinuvida; respublika va hududiy bosqichlarda iqtisodiy-statistik tahlilni amalga oshirish uchun; boshqaruv organlari, vazirliklar va muassasalar, ilmiy-tekshirish muassasalarining kundalik iqtisodiy amaliyotida.

Qishloq xo'jaligining tarmoq tuzilmasi 2016 yilgacha iqtisodiyot tarmoqlarining umumdavlat tasniflagichi bo'yicha tasniflangan. Bu tasniflashda institutsional birliklar yetishtirilgan asosiy mahsulotlari bo'yicha tarmoqlarga birlashtiriladi. Bir taraflama olib qaralganda ITUT bo'yicha tasniflash oddiy ko'rinadi, lekin shuni ham unutmaslik kerakki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'iga o'rmonchilik hamda baliqchilik xo'jaliklari ham qo'shilgan. Buning natijasida hisob-kitob jarayonida umumiy holda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" deb nom olgan yangi tarmoq yoki tasniflash nuqtai nazaridan olib qaraganda A seksiyani vujudga keltirdi. Mazkur tarmoq 3 ta bo'lim (dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura)ni o'z ichiga olgan. Birinchi bo'lim 7 ta guruh, 31 ta sinf hamda 9 ta kichik sinflardan tashkil topgan. Ikkinchi bo'lim esa 4 ta guruh, 4 ta sinf va 4 ta kichik sinflardan iborat bo'lib, oxirgi bo'lim 2 ta guruh, 4 ta sinf va 4 ta kichik sinflarni o'z ichiga qamrab olgan.

Bu tasniflashlardan ko'rinib turibdiki, IFUT-2 tasniflash turi ITUT tasniflash turiga qaraganda ko'proq elementlarni o'z ichiga qamrab olgan. IFUT-2 hisob-kitob ishlarini hamda xalqaro statistik ma'lumotlarini almashuvini qulaylashtirishga xizmat qiladi. Bu esa O'zbekistonda oxirgi vaqtlarda statistik ma'lumotlarni qayta ishlashni va ma'lumotlar shaffofligini ta'minlashga imkon yaratayotganligidan dalolat berib kelmoqda.

Shuningdek, ilmiy ishda mamlakatimiz qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻida yigʻiladigan statistik koʻrsatkichlar tizimi va indikatorlar tarkibini hisoblashda qoʻllaniladigan uslublarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, hisob-kitob tizimini yaxshilash va tarmoqning rivojlanishini kompleks statistik baholash borasida bir qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻining yalpi qoʻshilgan qiymati (I_{qp}), qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻida yaratilgan mahsulotlarni jismoniy hajm indeksi (I_q) hamda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻida yaratilgan mahsulotlar narxining umumiy agregat indeks (I_p) lari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻlanishlar ilmiy tadqiq etilgan. Ular orasidagi oʻzaro bogʻlanishlar qoʻyidagi formulalar asosida ifodalangan:

1. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymatning umumiy indeksi (I_{qp}):

$$I_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} \quad (3.1)$$

bu yerda: q_1 va q_0 – joriy va bazis davrlardagi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari hajmi; p_1 va p_0 – joriy va bazis davrlardagi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotining bir birligini narxi.

2. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻida yaratilgan mahsulotlarning jismoniy hajm umumiy indeksi (I_q):

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} \quad (3.2)$$

Ushbu indeksning mazmuni joriy davrda taqqoslama narxlardagi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari hajmining oʻtgan davrdagi bazis narxlardagi ushbu mahsulotlarning qiymatiga nisbatini ifodalaydi.

3. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻida yaratilgan mahsulotlar narxining umumiy agregat indeksi (I_p):

$$I_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} \quad (3.3)$$

Ushbu indeksning iqtisodiy mazmuni shundaki, joriy davrdagi joriy narxlarda ifodalangan qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari hajmining taqqoslama narxlardagi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari hajmiga nisbatan oʻzgarishini ifodalaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻi faoliyatini ifodalovchi umumiy indekslar orasidagi oʻzaro bogʻlanish quyidagiga teng:

$$I_{qp} = I_q * I_p$$

yoki

$$\frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} \times \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} \quad (3.4)$$

Tahlillarimiz koʻrsatishicha, qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotida statistika axborotlarni yigʻish va topshirish tartiblarida muhim oʻzgarishlarni belgilash biznes yuritishga qulayliklarni yaratishda ham muhim masala hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotda bu borada qilinadigan muhim oʻzgarishlar qatoriga quyidagilarni kiritish tavsiya etildi:

tarmoq hisobotlarini tuzish va topshirish tartiblarini soddalashtirilgan shakllarini qoʻllash, ularning dasturiy taʼminotlarini muqobillashtirish hamda xalqaro standartlarga mos keluvchi tizimini joriy etish;

dehqon va fermer xoʻjaliklari faoliyatini hisobga oluvchi statistika hisobotlarini qiyosiy tahlilini taʼminlash maqsadida, jamlangan maʼlumotlarning akslantirilganlik taomiliga oʻtish. Yaʼni qishloq xoʻjaligi subyektlari faqat axborot beruvchi emas, balki oluvchi boʻgʻinga ham aylanishi lozim;

xoʻjalik yurituvchi subyektlarning statistika hisobotlari innovatsiyalar, innovatsion mahsulotlar, intellektual kapital, kapital samaradorligi, innovatsion texnologiyalar kabi muhim koʻrsatkichlar bilan toʻldirilishi lozim va x.k.

Qishloq xoʻjaligining tarmoq tuzilmasi (ITUT boʻyicha) asosan qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish tarmoqlari, qishloq xoʻjaligiga xizmat koʻrsatuvchi tarmoqlar hamda qishloq xoʻjaligi boshqaruvidan tashkil topgan (7-ilova). Qishloq xoʻjaligining tarmoq tuzilmasi (IFUT-2 boʻyicha) dehqonchilik va chorvachilik,

ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash hamda baliq ovlash va akvakulturalarga bo'linib, ular o'z navbatida guruhlariga bo'linadi(8-ilova).

Biror hudud miqyosida ekin maydonlari tuzilmasini takomillashtirish iqtisodiy-matematik modellarni ishlab chiqish va ularni joriy qilishni talab etadi. Bunday masalani yechishda optimallik mezoni yalpi mahsulotning (daromadning) eng katta qiymatini topishni tavsiya etish mumkin.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini optimal joylashtirish modelini izohlash uchun quyidagi belgilashlarni qabul qilamiz:

k – hududlar indeksi, $k = \overline{1,13}$,

l – xo'jalik yuritish shakllari indeksi,

i – yer turlari indeksi, $i = 1,2,3$,

j – ekin turlari indeksi, $j = \overline{1, n}$,

K – hududlar soni,

L – xo'jalik yuritish shakllari soni,

m – yer turlari soni,

n – ekin turlari soni,

p_{kj} – k -hududda j -turdagi ekin mahsuloti bir birligining sotish bahosi,

c_{kj} – k -hududda j -turdagi ekin mahsuloti bir birligining tannarxi,

y_{klj} – k -hududda l - xo'jalik yuritish shaklida i -yer toifasidagi j -ekin turining hosildorligi,

S_k – k -hududda mavjud haydaladigan yer maydoni,

Q_{kij} – k -hududda i -toifadagi yerdan olingan j -ekin mahsulotining hajmi,

Q_j – respublikada j -ekin mahsulotiga bo'lgan talab,

t_{kj} – k -hududda j -ekin turini yetishtirish uchun mehnat sarfi,

T_k – k -hududda i -toifadagi yer uchun mehnat sarfi,

$\underline{A}_{kj}, \overline{A}_{kj}$ – ayrim ekinlar guruhi maydonining eng quyi va eng yuqori chegarasi,

B_k – mavjud suv resurslari,

λ_{kj} – k -hududda j -turdagi ekinning bir gektarini sug‘orish uchun sarflanadigan suvning bir yillik me‘yori,

x_{klj} – k -hududda l - xo‘jalik yuritish shaklida i -toifadagi yerda j -turdagi ekin maydoni (noma‘lum o‘zgaruvchi).

Ushbu belgilanishlardan foydalanilgan holda hududlarda ekinlarni optimal joylashtirish modeli quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi⁶⁸:

yalpi daromadni maksimallashtirish sharti:

$$F(x) = \sum_{k=1}^K \sum_{l=1}^L \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n p_{kj} \cdot y_{klj} \cdot x_{klj} \rightarrow \max \quad (3.5)$$

yoki yalpi foydani maksimallashtirish sharti:

$$F(x) = \sum_{k=1}^K \sum_{l=1}^L \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n (p_{kj} - c_{kj}) y_{klj} x_{klj} \rightarrow \max \quad . \quad (3.6)$$

Bizning fikrimizcha, keyingi tadqiqotlarda optimallashtirish mezonini sifatida yalpi qo‘shilgan qiymatni maksimallashtirish shartidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki bu mezon tarmoqda yaratiladigan birlamchi daromadlar (mehnat haqi, ishlab chiqarish soliqlari, yalpi foyda) ni ko‘paytirish imkonini beradi.

Chiziqli funksiyaning eng katta (maksimum) qiymatini quyidagi shartlar bajarilganda topish talab etiladi:

1. Yer maydonidan foydalanish bo‘yicha cheklov:

$$\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n x_{klj} \leq S_k \quad . \quad (3.7)$$

2. Hududlarda ekiladigan ayrim ekinlar guruhi ekin maydonlari bo‘yicha cheklov:

$$\underline{A}_k \leq \sum_{j=1}^n x_{kj} \leq \overline{A}_k \quad . \quad (3.8)$$

3. Mehnat resurslari bo‘yicha cheklov:

⁶⁸Quyidagi adabiyotlardan foydalanilgan [4.17., 8.1.]

$$\sum_{j=1}^n t_{kj} \cdot x_{klj} \leq T_k . \quad (3.9)$$

4. Suvdan foydalanish bo'yicha cheklolar:

$$\text{alohida hudud bo'yicha: } \sum_{j=1}^n \lambda_{kj} \cdot x_{klj} \leq B_k , \quad (3.10)$$

$$\text{respublika bo'yicha: } \sum_{k=1}^K \sum_{j=1}^n \lambda_{kj} \cdot x_{klj} \leq B . \quad (3.11)$$

5. Mahsulot hajmi bo'yicha cheklolar:

$$\text{alohida hudud bo'yicha: } \sum_{l=1}^L y_{klj} x_{klj} \geq Q_{klj} , \quad (3.12)$$

$$\text{respublika bo'yicha } \sum_{k=1}^K \sum_{l=1}^L y_{klj} \cdot x_{klj} \geq Q_j . \quad (3.13)$$

6. Izlanayotgan noma'lum o'zgaruvchilar qiymati manfiy bo'lmaslik sharti:

$$x_{klj} \geq 0 . \quad (3.14)$$

Keltirilgan ushbu model jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari oldini olishda ekin maydonlarini optimal joylashtirish, ayrim ekin guruhlari bo'yicha respublikada haydaladigan yerlarni taqsimlash imkonini beradi. Bunda respublikaning har bir hududini eng asosiy 1-2 xil ekinga ixtisoslashish imkoniyati aniqlanadi. Mazkur modelda respublika hududlarida ekiladigan ayrim ekinlar guruhi bo'yicha shartning mavjud bo'lishi har bir hududda tez buziluvchi, transportda uzoqqa tashish mumkin bo'lmagan mahsulotlarni zarur bo'lgan eng kam miqdorini, asosiy ekin guruhlarning eng katta miqdorini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu model asosida olingan natijalardan qishloq xo'jaligi rivojlanishini uzoq muddatli dasturlarini tuzishda, unga kapital sarflarni jalb etishda, qayta ishlash sanoati korxonalarini quvvatini kengaytirishda va shu kabi tadbirlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Ekinlarni optimal joylashtirishning iqtisodiy-matematik masalasi qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan boshqa turdagi masalalardan hajmi kattaligi bilan ajralib turadi. Bunday ko'rinishdagi masalalarda obyektlarga barcha turdagi ekinlarni joylashtirishga va mos ravishda chegaraviy shartlar kiritishga to'g'ri keladi.

Masala hajmini undagi hududlarni yiriklashtirish orqali kichraytirish mumkin. Ammo bunday yondashish olinadigan natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki hosildorlik, baho kabi ko'rsatkichlarning o'rtalashtirilishi bilan bog'liq bo'ladi yoki masala hajmini uni ixchamlashtirish orqali kamaytirish ham natijalarga bevosita ta'sir etuvchi shartlarning chiqib ketishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ekinlarni optimal joylashtirish kabi masalalar yechimini izlash bir necha yo'nalishlarda turli usullar yordamida amalga oshiriladi.


Iqtisodiy-matematik modellar qo'llanilgan dastlabki tadqiqotlarda optimallashtirish masalasi xo'jalik miqyosida yechilgan. Keyinchalik esa iqtisodiy-matematik modellar samaradorligini oshirish maqsadida bir necha xo'jaliklarni yoki hududlarni o'z ichiga olgan blokli va bosqichli modellashtirish qo'llanilgan. Blokli modellashtirish hududlararo yoki xo'jaliklararo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini optimal joylashtirish imkonini beradi. Model bo'yicha respublika ekin turlarini optimal joylashtirish masalasini yechishda umumiy bog'lovchi blok orqali bog'langan alohida bloklarni o'z ichiga olgan yagona matritsadan foydalanish lozim deb topildi.

Ushbu modeldan natijalar olish imitatsion tizimga asoslanadi (3.1-rasm). Imitatsion tizim ishlash tartibi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Ekspert kiritiladigan parametrlarni (natural va qiymat) aniqlaydi, tayyorlaydi va kompyuterga kiritadi.
2. Kompyuterda ekinlarni joylashtirish bo'yicha hisoblar bajariladi va bosmaga chiqariladi.
3. Ekspert olingan natijalarning statistik tahlilini amalga oshiradi (kompyuterda o'zgarmas tarkibli, o'zgaruvchan tarkibli va tuzilmaviy siljishlar indeksleri hisoblanadi).
4. Ekspert hisob natijalarini strategik rivojlanish ko'rsatkichlari bilan taqqoslaydi. Olingan natijalar ekspertni qanoatlantirsa, u natijalarni bosmaga chiqaradi va qaror qabul qiladi. Agar natijalar ekspertni qanoatlantirmasa, u ko'rsatkichlarni to'g'rilaydi va kompyuterga kiritadi va ikkinchi bosqichdan boshlab

hisoblar tartibi qaytariladi. Ushbu tizim natijasining samaradorligini oshirish uchun uni bir necha bosqichda yechish talab etiladi: 1-bosqich, respublika miqyosida, ya'ni uning ma'muriy hududlari bo'yicha (Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar); 2-bosqich, respublikaning har bir viloyati miqyosida, ya'ni viloyatning tumanlari bo'yicha; 3-bosqich, viloyat tumani miqyosida – tuman xo'jaliklari bo'yicha.

Mazkur tadqiqot ishida ekinlarni optimal joylashtirish masalasi respublika miqyosida yechilgan bo'lsa-da, keyingi bosqichlar bo'yicha optimallashtirish masalalarini yechish tadqiqot chegaralarini kengaytirib yuborishi mumkinligi sababli keyinchalik bu masala yuzasidan tadqiqotlarni respublikaning hududlari, tumanlari miqyosida olib borishni talab etadi.



3.1-rasm. Tuzilmaviy siljishlar samaradorligini oshirish maqsadida ekinlarni optimal joylashtirishni amalga oshirishning imitatsion tizimi⁹⁰

⁹⁰ Muallif tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar asosida tuzilgan.

Modelni amalda sinab ko‘rish shartlarning sonli miqdori asoslanishi talab qiladi.

Haydaladigan yerlar maydoni (S_k) hududning yer balansidan olinadi hamda hududlar qishloq xo‘jalik hisoboti bilan taqqoslanib, unga aniqliklar kiritiladi.

Modelga chegaraviy shartlar sifatida kiritiladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmi (Q_i) davlat buyurtmasi, shartnoma bo‘yicha talab hamda oila ichki iste‘moli talablari yig‘indisi sifatida shakllanadi. Bunda hisobot ma‘lumotlaridan foydalanish mumkin.

Talabni aniqlashda me‘yoriy yondashuv ham bo‘lishi mumkin. Bunda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab aholi sonini iste‘mol me‘yorlariga ko‘paytirish orqali topiladi. Qayta ishlash sanoati talabi esa shartnoma shartlari yoki ularning yillik foydalanayotgan quvvati orqali ham belgilanadi.

Mehnat vaqti fondi (T) yil davomida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida bandlar sonining tahlili asosida belgilanadi. Tahlil hisobot ma‘lumotlari asosida amalga oshirilib, mehnat resurslarining o‘sishi yoki kamayishi hisobga olinadi. Respublikada ekin turlarini optimal joylashtirish masalasini yechishda ayrim ekin turlari yoki ular guruhleri bo‘yicha “eng kam” yoki “eng katta” chegaralarini belgilash o‘ta mas‘uliyatli jarayon hisoblanadi. Buning uchun, eng avvalo, respublika hududlarini ekin maydonlari va ularning tarkibi, mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi chuqur tahlil qilinadi. Natijada ayrim ekin guruhleri va turlari bo‘yicha chegaralovchi miqdorlar belgilanadi. Hudud uchun o‘ta zarur katta xarajatli ekinlar bo‘yicha “eng kam” ekin maydoni chegarasi hisoblanadi.

Modelda qatnashuvchi baho ko‘rsatkichining qiymati joriy yildagi hisobotlar tahlili asosida aniqlanadi.

Ekin hosildorligi hududlar bo‘yicha joriy davr uchun uch yillik o‘rtacha darajalar orqali baholanadi, istiqboldagi darajalarni aniqlashda esa alohida statistik usullardan foydalaniladi.

Istiqbolda ekin maydonlarining samarali tuzilmasini shakllantirishda hosildorlikning prognoz darajalari asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Hosildorlik darajalarini har bir hudud bo'yicha prognozlash tadqiqotning muhim qismi bo'lib, to'g'ri tanlangan usul prognozashtirish samarasini oshiradi va optimallashtirish masalasining istiqbol uchun ishlab chiqilgan natijalari haqiqatga yaqin bo'ladi.

So'nggi yillarda prognozashtirishning ekstrapolyatsiya, ekspert baholash va iqtisodiy-matematik usullari keng qo'llanilmoqda.

Ekstrapolyatsiya usulining mohiyati prognozashtirish davrigacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy yoki ilmiy-texnik o'zgarishlar xarakterini aniqlash va ularning kelajakda saqlanib qolish ehtimoliga asoslanib prognozashtirishdan iborat. Bu usulni qo'llashning zaruriy sharti ma'lum hodisa yoki obyektning o'tgan davrdagi o'zgarish tendensiyalarini keltirib chiqaruvchi omillar to'plami kelgusida ham o'zgarmaydi yoki shu prognoz davriga xos bo'lgan xuddi shunday taraqqiyot qonuni asosida o'zgarishi hisoblanadi.

Ekspert baholash usuli axborotlarning chegaralangan va prognozashtirilayotgan jarayonlarning yuqori stoxastiklikka ega bo'lgan sharoitlarda, asosan, boshqacha aniqlash va baholash usullari mavjud bo'lmagan hodisa va maqsadlarni miqdoriy o'lchash uchun qo'llaniladi. Xususan, ekspert baholash usuli ilmiy-texnik prognozlarni ishlab chiqishda yuqori samara beradi. Iqtisodiy-matematik usul hosildorlik va unga ta'sir etuvchi omillarni umumiy bog'liq funksiya orqali ifoda etishdir. Bu usulni qo'llash hosildorlikning istiqboldagi darajalarini aniq belgilash imkonini beradi. Biroq bu usulning kamchiligi hosildorlikka ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi axborotlarning olish qiyinchiligida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotda ekinlar hosildorligini prognozashtirishda ekstrapolyatsiya usuli qo'llaniladi.

Demak, ekinlar hosildorligining prognoz ma'lumotlarini yuqoridagi modelda qo'llagan holda ushbu model asosida olingan natijalar istiqbolda respublika

hududlari ekin maydonlari tarkibining optimal variantlarini aniqlash imkonini beradi.

3.2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish jarayonlarini dinamika qatorlari usulidagi tahlili

Jahondagi iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash har bir davlatning eng asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.. FAO ma’lumotlariga ko‘ra dunyoda 5 yoshgacha bo‘lgan 340 million bola, ya’ni har ikki boladan bittasi mikroelementlar yetishmovchiligi tufayli “yashirin ochlikdan” aziyat chekmoqda.

Dunyoda xavfsiz oziq ovqat ta’minoti dolzarb bo‘lib turgan bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qatori agrar tarmoqning tubdan isloh qilinishi, tarmoq faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishda zamonaviy innovatsion yutuqlardan keng foydalanish, faoliyatni moliyaviy va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularga imtiyozlar yaratib berish, ularni moliyaviy mustaqilligi bilan bir qatorda moddiy manfaatdorligini oshirish bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jalik korxonalarini faoliyat yuritishi mexanizmini samarali shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 maydagi “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4749 sonli qarori sohadagi yillar davomida mavjud bo‘lgan muammolarning yechimi uchun asosiy vazifani bajaradi. Jumladan, jahon bozorlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlarni ixtisoslashtirish ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda to‘g‘ri yo‘l ekani ma’lum bo‘lmoqda⁹¹.

⁹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 maydagi “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4749 sonli qarori

Mamlakat aholisini ichki ishlab chiqarishi hisobiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammosi bozor munosabatlariga moslashtirilgan qishloq xo'jaligining oqilona tizimini rivojlantirish zarurligini anglatadi. Qishloq xo'jaligining oqilona tizimini rivojlantirish va tanlashda eng muhim rol sanoatning maqbul hajmini aniqlash va ma'muriy tuman darajasida qishloq xo'jaligi korxonalarining ixtisoslashuviga tegishli. Shu bilan birga, ushbu dolzarb muammoni hal qilishda doimiy izlanish va uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishga obyektiv ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi⁹².

Agrar tarmoqda iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish mamlakatimizda oziq-ovqat tanqisligini bartaraf etish bilan bir qatorda, aholini hafsiz oziq-ovqat bilan doimiy ta'minlash imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Agrar tarmoqda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat tez o'zgaruvchan va ijobiy tendensiyalar mavjud ekanligi unnig asosiy xarakterli xususiyatlaridan hisoblanadi. Aksariyat xo'jaliklarda mahsulot ishlab chiqarishda o'ta yuqori darajada xarajatlar hajmi saqlanib qolmoqda, foydaning yetishmasligi tufayli faoliyatda moddiy manfaatdorlik juda past darajani saqlab kelmoqda va bu zahiraviy salohiyat to'laligicha ishlatilmay qolinishiga olib keladi. Bular esa o'z navbatida, tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligi tushib ketishiga olib keladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini matematik modellashtirish va boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tgan asrning 60 yillaridan boshlangan. Tadqiqotlarning dastlabki bosqichlarida sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq o'ziga xos masalalar, xususan, almashlab ekish, sug'orish hamda paxtachilikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligini boshqarish jarayonlarining boshqa bir qator modellari ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'zining amaliy ahamiyatini haligacha yo'qotmagan⁹³.

⁹² Стовба Е. В. Моделирование сценариев развития сельскохозяйственного производства района (на материалах Республики Башкортостан). Автореферат. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Уфа-2004.

⁹³ Berkinov B.B., Raxmankulova B.O., Karimova X.X. // Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini baholash va rivojlanish jarayonlarini modellashtirish // Monografiya, Toshkent, 2013

“Jahon qishloq xo‘jaligi ilm-fan tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalar va mahsulotlarni sanoatga tobora jadal joriy etishga intilmoqda, bu ayniqsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu ularga ichki oziq-ovqat bozorining talab va taklif bo‘yicha muvozanatini saqlashga, dunyoning yetakchi bozorlariga osongina kirib borishga, tashqi bozorlarda milliy ishlab chiqaruvchilarni siqib chiqarishga imkon beradi. Shu bois mamlakatimiz agrosanoat majmuasini innovatsion rivojlantirish vazifasini qo‘yishi va izchil hal yetishi zarurligiga yana bir bor amin bo‘ldik”⁹⁴. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayonidagi mavsumiy o‘zgarishlar mahsulotni saqlash va qayta ishlash uchun talab qilinadigan sharoitning mavjudligi, yil davomida hosil olish davomiyligi va soniga bog‘liq holda turli diapozonda o‘zgaradi⁷⁴.

Ma’lum prognozlash usullaridan ekstrapolyatsiya ishlash ko‘rsatkichlarini rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun ishlatilgan, bu bizga muvaffaqiyatli ishlashga imkon beradi. Qisqa muddatli statistik prognozni soddaligi tufayli amalga oshirish uchun oz miqdordagi ma’lumotlardan foydalanish va o‘rganilayotgan hodisaning rivojlanishida umumiy tendensiyani o‘rnatishni tezkor baholash mumkin. Statistik qatorlardan foydalanish usullari ham afzalliklarga, ham kamchiliklarga yega. statistik qatorlarning afzalligi shundaki, aniqlangan bog‘liqliklar obyektiv va juda yaxshi tashkil etilgan. Kamchilik shundaki, ular faqat nisbatan barqaror sharoitlarda, yaxshi tashkil yetilgan iqtisodiyotda" ishlaydi", buni hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat haqida aytib bo‘lmaydi⁹⁵. Ammo ushbu usullar asosida qisqa va o‘rta muddatli prognozlash juda muvaffaqiyatli natijaga keltiradi.

Ushbu tadqiqotlar natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash sharoitlarini ularni texnologik

⁹⁴ Хачев М.М., Теммоева С.А. Эконометрическая модель прогнозирования развития сельского хозяйства региона. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований №9, 2017.

⁹⁵ Буценко Л.С. Математический анализ и методы прогнозирования как инструменты развития отраслевой экономики//Управление экономическими системами: электронный научный журнал.– 2006. www.uecs.ru

ko'rsatkichlar bilan bog'lagan holda matematik ifodalashdan iborat. Bunday yondashuv umuman olganda agroiqtisodiy jarayonlarni qishloq xo'jaligi yuritish tizimi qonunlari va uni tashkil qiluvchi unsurlar va quyi tizimlar axborotlari asosida modellashtirish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda 2000-2021 yillar mobaynida qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va umumiy yaratilgan mahsulot va dehqonchilik va chorvachilik yo'nalishlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini o'zgarish dinamikasi bazisli va zanjirli usullarda statistik tahlil qilindi (3.2-jadval).

3.2 jadval

O'zbekistonda 2000-2021 yillarda qishloq xo'jaligi ekin maydoni dinamikasi, ming gektar⁹⁶

Yillar	Ekin maydoni	Mutlaq qo'shimcha o'sish (kamayish), ming ga		Nisbiy o'sish (kamayish) sur'ati, %		Qo'shimcha o'sish (kamayish) sur'ati, %	
		bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli
2000 y	3778,3	-	-	100	100	-	-
2001 y	3444,5	-333,8	-333,8	91,2	91,2	-8,8	-8,8
2002 y	3540,8	-237,5	96,3	93,7	102,8	-6,3	2,8
2003 y	3790,1	11,8	249,3	100,3	107,0	0,3	7,0
2004 y	3695,7	-82,6	-94,4	97,8	97,5	-2,2	-2,5
2005 y	3647,5	-130,8	-48,2	96,5	98,7	-3,5	-1,3
2006 y	3637,4	-140,9	-10,1	96,3	99,7	-3,7	-0,3
2007 y	3560,3	-218,0	-77,1	94,2	97,9	-5,8	-2,1
2008 y	3609,7	-168,6	49,4	95,5	101,4	-4,5	1,4
2009 y	3608,6	-169,7	-1,1	95,5	100,0	-4,5	0,0
2010 y	3708,4	-69,9	99,8	98,1	102,8	-1,9	2,8
2011 y	3601,6	-176,7	-106,8	95,3	97,1	-4,7	-2,9
2012 y	3628,1	-150,2	26,5	96,0	100,7	-4,0	0,7
2013 y	3658,6	-119,7	30,5	96,8	100,8	-3,2	0,8
2014 y	3678,2	-100,1	19,6	97,4	100,5	-2,6	0,5
2015 y	3694,2	-84,1	16,0	97,8	100,4	-2,2	0,4
2016 y	3706,7	-71,6	12,5	98,1	100,3	-1,9	0,3
2017 y	3474,5	-303,8	-232,2	92,0	93,7	-8,0	-6,3
2018 y	3396,0	-382,3	-78,5	89,9	97,7	-10,1	-2,3
2019 y	3309,4	-468,9	-86,6	87,6	97,4	-12,4	-2,6
2020 y	3396,1	-382,2	86,7	89,9	102,6	-10,1	2,6
2021 y	3260,7	-517,6	-135,4	86,3	96,0	-13,7	-4,0

⁹⁶ Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanib muallif xisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 2021 yilda qishloq xo‘jaligida mavjud ekin maydonlari 2000 yilga nisbatan 517,6 ming gektarga, ya’ni -13,7 foizga kamaygan bo‘alib, bu o‘tgan 2020 yilga nisbatan 135,4 ming gektar, ya’ni -4,0% ga kamayganligini ko‘rimiz mumkin bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosiy ko‘rsatkichlarining dinamikasini modellashtirish asosiy tendensiya, trend-mavsumiy qatorlar va dinamikaning bog‘langan qatorlari kabi turli modellarning yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ko‘rsatilgan usullarning har birini amalga oshirilishi faqat konkret axborot bazaning mavjudligidagina mumkin.

Asosiy tendensiya modellarini tuzish dinamikaning bir o‘lchamli qatorlarini, ya’ni mahsulotning alohida olingan turini ishlab chiqarishni xarakterlovchi konkret statistik ko‘rsatkichlar dinamikasining qatorlarini tahlil qilishga asoslangan. Bu modellarni tuzish, dinamikaning har qanday qatori nazariy jihatdan ajratish mumkin bo‘lgan bir qancha omillar ta’siriga uchraydi, degan nuqtai nazarga asoslanadi.

Ilmiy adabiyotlarda bu omillar dinamika qatorlarining komponentlari deyiladi. Dinamika qatorlarini komponentlarga ajratish nuqtai nazaridan bu–nazariy abstraksiyadir, chunki bu ajratish sof matematik protsedura bo‘lib, statistik usullar bazasida amalga oshiriladi. Lekin, dinamika qatorlarining faktik darajalarini bo‘lib-bo‘lib yuborishning shartliligiga qaramay, bu usul tahlil qilish va prognozlashtirishning turli muammolarini hal qilishda yetarlicha foydali bo‘lishi mumkin. Dinamika qatorlarining barcha komponentlari bir-birlari bilan o‘zaro bog‘langan va modellarning quyidagi ko‘rinishida keltirilishi mumkin:

$$\text{Additiv model:} \quad Y = T + K + S + E \quad (3.15)$$

$$\text{Multiplikativ model:} \quad Y = T \cdot K \cdot S \cdot E \quad (3.16)$$

$$\text{Kombinatsiyalangan model:} \quad Y = T \cdot K \cdot S + E \quad (3.17)$$

bunda T-qatorning umumiy tendensiyasini xarakterlovchi asosiy komponenta (trend); K-davriy tendensiya; S – mavsumiylik komponentasi; E-tasodifiy komponenta.

Mavsumiy komponentli modellarni tuzish faqat dinamikaning boshlang'ich qatori o'ziga oyma-oy yoki chorakma-chorak keltirilgan ma'lumotlarni qamrab olgan holdagina mumkin. Agar dinamikaning boshlang'ich qatori yilma-yil keltirilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan bo'lsa, model faqat trendni va tasodifiy komponentni qamrab oladi. Dinamikaning nomavsumiy komponentli bir o'lchamli qatorlarining trend modelini tuzish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1. Dinamika qatorlarini aprior (tajribaga asoslanmagan) tahlil qilish.
2. Dinamikaning tadqiq etilayotgan qatorida asosiy tendensiyaning mavjudligi haqidagi gipotezani tekshirib ko'rish.
3. Tegishli modelning asosiy tendensiyasini hamda parametrlarini aniqlash.
4. Tasodifiy komponentni tahlil qilish.
5. Umumlashtiruvchi modelni tuzish.

Olib borilgan tadqiqotlarimizga ko'ra, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarini ishlab chiqarish hajmining 2000-2021 yillardagi dinamikasi tahlil qilingan. 2000 yilni tahlilning boshlang'ich nuqtasi sifatida tanlab olinishiga sabab, bu paytga kelib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'rganilayotgan turlarini ishlab chiqarish hajmining tendensiya yo'nalishida ijobiy o'zgarish yuz bera boshlagan.

Birinchi bosqichda dinamikaning tadqiq etilayotgan qatorlarini aprior tahlil qilishni va dinamika qatorlarining analitik hamda o'rtacha ko'rsatkichlarini tahlil qilishni amalga oshiramiz. Sotsial-iqtisodiy hodisalar dinamikasini va hodisalar jarayonini baholash uchun quyidagi analitik ko'rsatkichlar qo'llanadi: mutlaq qo'shimchaa o'sish (kamayish) miqdori; nisbiy o'sish (kamayish) sur'atlari; qo'shimcha o'sish (kamayish) sur'atlari; bir foiz qo'shimcha o'sishning mutlaq qiymati.

Ushbu ko'rsatkichlarning har biri uch ko'rinishda bo'ladi: zanjirli; bazisli; o'rtacha. Dinamikaning bu ko'rsatkichlarini hisoblash asosida davriy qator darajalarini taqqoslash yotadi. Agar taqqoslash taqqoslashning bazasi sifatida qabul qilingan bitta darajaning o'zi bilan amalga oshirilsa, bu ko'rsatkichlar bazis

ko'rsatkichlar deb ataladi. Taqqoslashning bazasi sifatida yoki dinamik qatorning boshlang'ich darajasi, yoki rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadigan daraja tanlab olinadi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili o'rtacha va analitik ko'rsatkichlar 3.3-jadvalda hisoblandi.

3.3-jadval

O'zbekistonda 2000-2021 yillarda don va dukkakli don ekinlari dinamikasi, ming tonna⁹⁷

Yillar	Don va dukkakli ekinlar	Mutlaq qo'shimcha o'zgarish		Nisbiy o'zgarish sur'atlari, %		Qo'shimcha o'zgarish sur'ati, %	
		Bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli	bazisli	Zanjirli
2000 y	4101,4	-	-	100	100	-	-
2001 y	4240,1	138,7	138,7	103,4	103,4	3,4	3,4
2002 y	5792,5	1691,1	1552,4	141,2	136,6	41,2	36,6
2003 y	6319,2	2217,8	526,7	154,1	109,1	54,1	9,1
2004 y	6008,8	1907,4	-310,4	146,5	95,1	46,5	-4,9
2005 y	6540,9	2439,5	532,1	159,5	108,9	59,5	8,9
2006 y	6655,1	2553,7	114,2	162,3	101,7	62,3	1,7
2007 y	6771,0	2669,6	115,9	165,1	101,7	65,1	1,7
2008 y	6735,1	2633,7	-35,9	164,2	99,5	64,2	-0,5
2009 y	7394,8	3293,4	659,7	180,3	109,8	80,3	9,8
2010 y	7504,3	3402,9	109,5	183,0	101,5	83,0	1,5
2011 y	7140,7	3039,3	-363,6	174,1	95,2	74,1	-4,8
2012 y	7519,5	3418,1	378,8	183,3	105,3	83,3	5,3
2013 y	7807,8	3706,4	288,3	190,4	103,8	90,4	3,8
2014 y	8050,5	3949,1	242,7	196,3	103,1	96,3	3,1
2015 y	8173,5	4072,1	123,0	199,3	101,5	99,3	1,5
2016 y	8261,3	4159,9	87,8	201,4	101,1	101,4	1,1
2017 y	7288,5	3187,1	-972,8	177,7	88,2	77,7	-11,8
2018 y	6535,5	2434,1	-753,0	159,3	89,7	59,3	-10,3
2019 y	7437,8	3336,4	902,3	181,3	113,8	81,3	13,8
2020 y	7636,0	3534,6	198,2	186,2	102,7	86,2	2,7
2021 y	7634,6	3533,2	-1,4	186,1	100,0	86,1	0,0

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 2021 yilda qishloq xo'jaligi tarmog'ida don va dukkakli ekinlar 2000 yilga nisbatan 3533,2 ming tonnaga ortib,

⁹⁷ Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanib muallif xisob-kitoblari asosida tuzilgan.

86,1 foizga oshgan bo'lsa, o'tgan 2020 yilga nisbatan -1,4 ming tonna kamaygan ko'rimiz mumkin bo'ladi.

3.4-jadval

O'zbekistonda 2000-2021 yillarda yetishtirilgan kartoshka hosili dinamikasi, ming tonna⁹⁸

Yillar	Kartoshka	Mutlaq qo'shimcha o'zgarish		Nisbiy o'zgarish sur'atlari, %		Qo'shimcha o'zgarish sur'ati, %	
		bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli	bazisli	Zanjirli
2000 y	731,1	-	-	100	100	-	-
2001 y	744,4	13,3	13,3	101,8	101,8	1,8	1,8
2002 y	777,2	46,1	32,8	106,3	104,4	6,3	4,4
2003 y	834,4	103,3	57,2	114,1	107,4	14,1	7,4
2004 y	895,7	164,6	61,3	122,5	107,3	22,5	7,3
2005 y	924,2	193,1	28,5	126,4	103,2	26,4	3,2
2006 y	1021,0	289,9	96,8	139,7	110,5	39,7	10,5
2007 y	1188,9	457,8	167,9	162,6	116,4	62,6	16,4
2008 y	1398,7	667,6	209,8	191,3	117,6	91,3	17,6
2009 y	1530,9	799,8	132,2	209,4	109,5	109,4	9,5
2010 y	1694,8	963,7	163,9	231,8	110,7	131,8	10,7
2011 y	1855,1	1124,0	160,3	253,7	109,5	153,7	9,5
2012 y	2036,3	1305,2	181,2	278,5	109,8	178,5	9,8
2013 y	2216,5	1485,4	180,2	303,2	108,8	203,2	8,8
2014 y	2399,2	1668,1	182,7	328,2	108,2	228,2	8,2
2015 y	2586,8	1855,7	187,6	353,8	107,8	253,8	7,8
2016 y	2789,5	2058,4	202,7	381,5	107,8	281,5	7,8
2017 y	2793,7	2062,6	4,2	382,1	100,2	282,1	0,2
2018 y	2911,9	2180,8	118,2	398,3	104,2	298,3	4,2
2019 y	3089,7	2358,6	177,8	422,6	106,1	322,6	6,1
2020 y	3143,8	2412,7	54,1	430,0	101,8	330,0	1,8
2021 y	3285,6	2554,5	141,8	449,4	104,5	349,4	4,5

Yuqoridagi 3.4-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 2021 yilda qishloq xo'jaligi tarmog'ida yetishtirilgan kartoshka 2000 yilga nisbatan 2554,5 ming tonnaga

⁹⁸ Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanib muallif xisob-kitoblari asosida tuzilgan.

kamaygan, 86,1 foizni tashkil qilgan, bu o'tgan 2020 yilga nisbatan 141,8 ming tonna ortganligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

3.5-jadval

O'zbekistonda 2000-2021 yillarda yetishtirilgan sabzavot dinamikasi, ming tonna⁹⁹

Yillar	Sabzavot	Mutlaq qo'shimcha o'zgarish		Nisbiy o'zgarish sur'atlari, %		Qo'shimcha o'zgarish sur'ati, %	
		bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli
2000 y	2 644,7	-	-	100	100	-	-
2001 y	2 777,8	133,1	133,1	105,0	105,0	5,0	5,0
2002 y	2 935,6	290,9	157,8	111,0	105,7	11,0	5,7
2003 y	3 301,4	656,7	365,8	124,8	112,5	24,8	12,5
2004 y	3 336,1	691,4	34,7	126,1	101,1	26,1	1,1
2005 y	3 517,5	872,8	181,4	133,0	105,4	33,0	5,4
2006 y	4 294,1	1649,4	776,6	162,4	122,1	62,4	22,1
2007 y	4 691,9	2047,2	397,8	177,4	109,3	77,4	9,3
2008 y	5 221,3	2576,6	529,4	197,4	111,3	97,4	11,3
2009 y	5 698,2	3053,5	476,9	215,5	109,1	115,5	9,1
2010 y	6 262,4	3617,7	564,2	236,8	109,9	136,8	9,9
2011 y	6 828,8	4184,1	566,4	258,2	109,0	158,2	9,0
2012 y	7 459,1	4814,4	630,3	282,0	109,2	182,0	9,2
2013 y	8 087,9	5443,2	628,8	305,8	108,4	205,8	8,4
2014 y	8 753,9	6109,2	666,0	331,0	108,2	231,0	8,2
2015 y	9 390,0	6745,3	636,1	355,0	107,3	255,0	7,3
2016 y	10 184,0	7539,3	794,0	385,1	108,5	285,1	8,5
2017 y	10 219,9	7575,2	35,9	386,4	100,4	286,4	0,4
2018 y	9 760,3	7115,6	-459,6	369,1	95,5	269,1	-4,5
2019 y	10 215,1	7570,4	454,8	386,2	104,7	286,2	4,7
2020 y	10 431,4	7786,7	216,3	394,4	102,1	294,4	2,1
2021 y	10 850,2	8205,5	418,8	410,3	104,0	310,3	4,0

Yuqoridagi 3.5-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 2000 yilni bazis davr qilib oliinganda, 2021 yilda qishloq xo'jaligi tarmog'ida yetishtirilgan sabzavotlar bazis

⁹⁹ Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanib muallif xisob-kitoblari asosida tuzilgan.

yilga nisbatan nisbatan 8205,5 ming tonnaga, o'tgan 2020 yilga nisbatan esa 410,3 ming tonna ortganligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

3.6-jadval

**O'zbekistonda 2000-2021 yillarda yetishtirilgan poliz va meva dinamikasi,
ming tonna¹⁰⁰**

Yillar	Poliz va meva	Mutlaq o'zgarish		Nisbiy o'zgarish, %		Qo'shimcha o'zgarish sur'ati, %	
		bazisli	zanjirli	Bazisli	zanjirli	bazisli	Zanjirli
2000 y	1242,3	-	-	100	100	-	-
2001 y	1267,4	25,1	25,1	102,0	102,0	2,0	2,0
2002 y	1322	79,7	54,6	106,4	104,3	6,4	4,3
2003 y	1353,1	110,8	31,1	108,9	102,4	8,9	2,4
2004 y	1424,2	181,9	71,1	114,6	105,3	14,6	5,3
2005 y	1564,6	322,3	140,4	125,9	109,9	25,9	9,9
2006 y	1926,3	684,0	361,7	155,1	123,1	55,1	23,1
2007 y	2110,9	868,6	184,6	169,9	109,6	69,9	9,6
2008 y	2384	1141,7	273,1	191,9	112,9	91,9	12,9
2009 y	2592,3	1350,0	208,3	208,7	108,7	108,7	8,7
2010 y	2858,7	1616,4	266,4	230,1	110,3	130,1	10,3
2011 y	3115,4	1873,1	256,7	250,8	109,0	150,8	9,0
2012 y	3400,1	2157,8	284,7	273,7	109,1	173,7	9,1
2013 y	3702,2	2459,9	302,1	298,0	108,9	198,0	8,9
2014 y	4002,6	2760,3	300,4	322,2	108,1	222,2	8,1
2015 y	4321,5	3079,2	318,9	347,9	108,0	247,9	8,0
2016 y	4657,8	3415,5	336,3	374,9	107,8	274,9	7,8
2017 y	4645,9	3403,6	-11,9	374,0	99,7	274,0	-0,3
2018 y	4543,2	3300,9	-102,7	365,7	97,8	265,7	-2,2
2019 y	4821,4	3579,1	278,2	388,1	106,1	288,1	6,1
2020 y	4947	3704,7	125,6	398,2	102,6	298,2	2,6
2021 y	5137,9	3895,6	190,9	413,6	103,9	313,6	3,9

Tahlil o'tkazishning keyingi bosqichida (3.6-jadval) tendensiyani o'rganishga o'tish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda trendning mavjudligi haqidagi gipoteza (faraz) oldinga suriladi va tekshiriladi. Hozirgi vaqtda tendensiyaning mavjudligini tekshirish uchun matematik apparatning quvvati va

¹⁰⁰ Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanib muallif xisob-kitoblari asosida tuzilgan.

murakkabligi bo'yicha farqlanuvchi ko'plab mezonlar mavjud. Bu usullar qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy ko'rsatkichlarining ham vaqtda rivojlanishidagi umumiy tendensiyani, ham turlar bo'yicha tendensiya–o'rtacha va dispersion tendensiyani belgilashga imkon beradi.

Tendensiyaning umuman mavjudligini ochib berishga va uning moddiy ifodalanishi – trendni aniqlashga imkon beruvchi usullardan biri – kumulyativ T-mezondir. Bu usul o'z asosida Y_1 qator darajalarining Y ning o'rtacha darajasidan og'ishlarning to'plangan summalari va shu og'ishlarning o'zlari o'rtasidagi nisbat bilan hisoblab chiqiladigan statistik tavsifini hisoblash va tahlilini qamrab oladi. Dinamikaning o'rganilayotgan qatorida T-kriteriy asosida tekshiriladigan tendensiya bo'lmasligi mumkin, degan gipoteza ilgari surilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi qatorlarida tendensiyaning borligi isbotlanganidan keyin, matematik funksiya yordamida trendni tavsiflash amalga oshiriladi. O'rganilayotgan ko'rsatkichlar dinamikasi boshlang'ich qatorlarining empirik darajalari o'rtasidan o'tkazilgan egri chiziqni qo'llagan holda analitik tekislash ko'proq tarqalgan usul hisoblanadi. Trend tenglamasi shunday tanlab olinadiki, u, qishloq xo'jaligi dagi o'rganilayotgan voqea yoki jarayonlar rivojlanishining real mavjud bo'lgan tendensiya va qonuniyatlarini eng yaxshi tarzda approksimatsiya qilsin. Buning uchun turli darajadagi matematik ko'p hadli funksiyalar qo'llaniladi:

$$\bar{y}_1 = a_0 + a_1 \cdot t - \text{birinchi darajali}; \quad (3.18)$$

$$\bar{y}_1 = a_0 + a_1 \cdot t + a_2 \cdot t^2 - \text{ikkinchi darajali}; \quad (3.19)$$

$$\bar{y}_1 = a_0 + a_1 \cdot t + a_2 \cdot t^2 + a_3 \cdot t^3 - \text{uchinchi darajali}; \quad (3.20)$$

$$\bar{y}_1 = a_0 + a_1 \cdot t + \dots + a_k \cdot t^k - k - \text{darajali}, \quad (3.21)$$

bunda: a_0, a_1, \dots, a_k – ko'phadlarning parametrlari; t-vaqtni shartli belgilanishi.

Hozirgi kunda respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlari xizmat ko'rsatish xususiyatlari va ishlab chiqarish yo'nalishlari doirasida quyidagi yirik guruhlar bo'yicha ko'rib chiqiladi. Ya'ni:

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga texnik xizmatlar ko‘rsatuvchi infratuzilma obyektlari – mashina-traktor parklari AJ, muqobil mashina-traktor parklari, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish tuzilmalari va boshqalar;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga moddiy-texnik resurslar yetkazib berish (sotish) infratuzilmasi obyektlari ya’ni, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun mineral o‘g‘it, o‘simliklarni himoyalash vositalari va neft mahsulotlari yetkazib berish hamda ehtiyot qismlar sotish shahobchalari va shu kabilar;

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ozuqa bazasini shakllantiruvchi infratuzilma obyektlari – yem-xashak sotish va yetkazib berish shahobchalari;

- zooveterinariya xizmatlari infratuzilmasi-chorva mollarini saqlash binolari va yer maydonlari bilan ta’minlash, o‘simlik va chorva mollarining epidemik kasalliklariga qarshi kurashish, emlash ishlarini olib borish kabi xizmatlarni o‘z ichiga oladi;

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini moliyalashtirish va sug‘urtalash infratuzilmasi – banklar, moliyaviy jamg‘armalar, sug‘urta tashkilotlari xizmatlari, investitsion kompaniyalar va boshqa moliyaviy institutlar xizmatlari;

- qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, sotish xizmatlari infratuzilmasi – agrofimlar, turli mulkchilik shaklidagi qayta ishlash korxonalari, savdo sohasi korxonalari, mahsulotlarni tayyorlash, qadoqlash va transport sohasi xizmatlari;

- axborot-konsalting xizmatlari infratuzilmasi (axborotlar ta’minoti, huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, marketing, injiniring va boshqalar);

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘i uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha xizmatlar – biznes maktablar, kasb-xunar texnikumlari va malaka oshirish markazlari kabi tuzilmalar faoliyati;

- innovatsion infratuzilma – qishloq xo‘jaligida innovatsion markazlar xizmatlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, seleksiya xizmatlari va boshqalar.

Ko'rsatib o'tilgan infratuzilma obyektlari respublikada qishloq xo'jaligi tarmog'ini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

3.3. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini prognozlashtirish

Qishloq xo'jaligi maxsulotini hajmini o'zgarishi bir nechta omillarga bog'liq bo'lib, ularning o'zgarishini qishloq xo'jaligiga ta'sirini miqdoriy jihatdan aniqlash qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlanish istiqbollarini belgilash mumkin. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlanish yo'nalishini aniqlashda ishlab chiqarish modelidan foydalanildi. Bunda qishloq xo'jaligi maxsulotini o'zgarishiga quyidagi omillardan foydalanildi:

K – qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd so'm;

L – qishloq xo'jaligi tarmog'ida bandlar soni, ming kishi;

S – qishloq xo'jaligi ekin maydoni, ming ga.

Endogen omil va unga ta'sir etuvchi ekzogen omil ko'rsatkichlarining mohiyati ko'riladigan bo'lsa, ta'sir etuvchi omillar sifatida kapital, mehnat hamda yer resurslarini ifodalovchi omil ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqarish modeli ko'rinishidagi modelga yaqin bo'lgan bog'lanishga ega bo'linadi.

3.7-jadval

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsuloti hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari¹⁰¹

Yillar	Qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi, mlrd. so'm (Q)	Milliy iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm (K)	Qishloq xo'jaligida bandlar soni, ming kishi (L)	Qishloq xo'jaligi ekin maydoni, ming ga (S)
2005 y.	90227,8	4531,0	2967,4	3647,5
2006 y.	92196,5	4016,3	2935,9	3637,4
2007 y.	93376,5	4142,4	2998,2	3560,3
2008 y.	89499,5	4380,0	3036,6	3609,7
2009 y.	92007,8	5260,8	2888,4	3608,6
2010 y.	178876,6	7236,4	3138,5	3590,3
2011 y.	225198,5	9425,5	3229,4	3601,6
2012 y.	244608,9	9170,4	3251,7	3628,1

¹⁰¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan..

2013 y.	255553,7	9330,3	3402,6	3658,6
2014 y.	279356,7	10231,2	3528,9	3678,2
2015 y.	310535,0	11004,9	3601,7	3694,2
2016 y.	334074,6	10641,3	3646,7	3706,7
2017 y.	360817,6	11495,8	3671,3	3474,5
2018 y.	293202,4	11343,7	3537,2	3396,0
2019 y.	284469,5	15162,1	3544,6	3309,0
2020 y.	295008,4	16366,0	3499,2	3396,1
2021 y.	317782,0	18934,9	3420,4	3340,5

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish modelidan foydalanilganligi uchun o'zgaruvchilarni dastlab logarifmlab keyin, modeldagi mustaqil o'zgaruvchilarni qishloq xo'jaligi maxsulotiga ta'siri EViews10 dasturidan foydalangan holda aniqlandi (3.8-jadval).

3.8-jadval

Omllarning bog'lanish xususiyatlari va tuzilgan omilli model sifatining asosiy ko'rsatkichlari¹⁰²

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
qishloq ho'jaligida bandlar soni <i>LnL</i>	3,12	0,79	3,95	0,00
iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi <i>LnK</i>	0,67	0,16	4,26	0,00
qishloq xo'jaligi ekin maydoni <i>LnS</i>	2,42	1,14	2,13	0,05
Tasodifiy omillar ta'sirini e'tiborga oluvchi qiymat <i>LnS</i>	-32,00	7,19	-4,46	0,00
R-squared	0,97	Mean dependent var	19,11	
Adjusted R-squared	0,96	S,D, dependent var	0,54	
S,E, of regression	0,10	Akaike info criterion	-1,47	
Sum squared resid	0,14	Schwarz criterion	-1,27	
Log likelihood	16,49	Hannan-Quinn criter,	-1,45	
		Durbin-Watson stat	1,88	

Tuzilgan model vaqtli qator ma'lumotlari asosida tuzilgani uchun modelni qoldiqlarida birinchi tartibli avtokorrelatsiyasi mavjudligini Darbin -Uotson (DW) me'zonini bo'yicha tekshirildi, Darbin-Uotson (DW) mezonini statistik qiymati 1,88 ga teng bo'lishi, modelni qoldiqlaridan birinchi tartibli avtokorrelatsiya mavjud emasligini ko'rsatmoqda, Qishloq xo'jaligi maxsulotiga mustaqil o'zgaruvchilarning ta'siri ishlab chiqarish modeli asosida aniqlandi. Modeldagi t-

¹⁰²Muallif tomonidan EViews10 dasturidan foydalanib bajarilgan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan.

Statistic qiymati kritik qiymati oralig'ida bo'lmaganligi uchun modelni baholangan koeffitsientlari statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Biroq, ekin maydonlarini qishloq xo'jaligiga ta'siri 10 %li ahamiyatsizlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Qishloq xo'jaligi maxsulotiga ta'sirini ifodalovchi ekonometrik modelni statistik testlarga tekshirish natijalari modelni real jarayon uchun qo'llash mumkinligi ko'rsatdi, 3.8-jadvalda keltirilgan modelni chiziqli logarifmik model sifatida keltirish mumkin.

$$\ln(Q) = 3,12 \cdot \ln(L) + 0,67 \cdot \ln(K) + 2,42 \cdot \ln(S) - 32,0 \quad (3.22)$$

omil qiymatining qo'shilgan bir birligi hisobiga natijaviy omil qiymatining qanchaga o'zgarishini aniqlashimiz mumkin bo'ladi. Jumladan, qishloq xo'jaligida band bo'lganlar sonini 1 foizga oshishi qishloq xo'jaligi maxsulotini o'rtacha 3,12 foizga, iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning 1 foizga oshishm qishloq xo'jaligini maxsulotini o'rtacha 0,67 foizga, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini 1 foizga oshishi esa qishloq xo'jaligi maxsulotini 2,42 foizga oshishiga olib keladi.

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2022-2026 yillarda hududiy qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi o'zgarishining istiqboldagi ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar ro'yxati keltirildi (3.9-jadval).

Yuqoridagi omilli bog'lanishlar asosida biz O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishida eng muhim deb topilgan ko'rsatkichlarning natijaviy ko'rsatkich hisoblangan hududiy qishloq xo'jalik tarmog'i tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot yalpi hajmiga ta'siri asosidagi rivojlanish ssenariysi ishlab chiqdik.

Ko'p omilli bog'lanish asosida aniqlangan trend modellari iqtisodiy ko'rsatkichlarning kelgusi davrda tanlangan omillar ta'sirida ma'lum bir chegaradagi xatoliklarni hisobga olgan holda o'zgarishini oldindan prognozlash hamda asoslangan ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu jihatdan bizning fikrimizcha, tadqiqot olib borish jarayonida qishloq xo'jaligi tarmog'i tomonidan yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'zgarishi ham 3 ta

asosiy omil ta'sirida kelgusi davr uchun prognoz qiymatlarni aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi maxsulotlarni keyingi davrdagi qiymatini prognozlashtirishda mustaqil o'zgaruvchilarni vaqtga nisbatan o'zgarish qonuniyatini ifodalovchi modellar tuziladi. 3.8-jadvaldagi (3.22) model iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning o'zgarish qonuniyatini ifodalovchi trend modeli bo'lib, modelni determinatsiya koeffitsientini 0,93 ga tengligi va Fisher mezonining statistik qiymatini 189,1 ga teng bo'lishi tuzilgan model real jarayon uchun mosligini ifodalaydi. (2) modelni Fisher mezonini statistik qiymati 44,5 teng bo'lishi, jadval qiymati 4,54 ni tashkil qilishi tuzilgan modelni adekvat ekanligi va model natijasiga ko'ra qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni yiligi o'rtacha 46,63 ming kishiga ko'payishi aniqlandi. (3) model ham Fisher mezoniga ko'ra kritik qiymati 3,7 va statistik qiymati 15,0 bo'lishi tuzilgan modelni real jarayonga mos ekanligi ifodaladi (3.9-jadval).

3.9-jadval

Ishlab chiqarish modelidagi mustaqil o'zgaruvchilarning trend modeli¹⁰³

№	Ko'rsatkich nomi	Model	R ²	F _{stat}
1	Hududiy iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	$\ln(K) = 0.09 \cdot t + 8.21$	0.93	189.1
2	Qishloq xo'jaligida bandlar soni, ming kishi	$L = 46.63 \cdot t + 2891.99$	0.75	44.5
3	Qishloq xo'jaligi ekin maydoni, ming ga	$S = -2.98 \cdot t^2 + 37.26 \cdot t + 3538.43$	0.68	15.0

Quyida keltirilgan 3.10-jadvalda qishloq xo'jaligi maxsuloti va ishlab chiqarish omillari prognozlashtirilgan. Prognoz natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligi ekin maydoni 2026 yilga kelib 2916 ming gektarni, qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni 3654 ming kishi, iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar esa 29278,2 mlrd. so'mni tashkil qilishi kutilmoqda.

Ishlab chiqarish omillarini prognoz qiymatlari asosida (2) model asosida hududiy qishloq xo'jaligi mahsuloti prognozlashtirildi. Prognoz natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsuloti 2026 yilda 398363,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2021 yilga nisbatan 1,25 barobarga ko'payishi aniqlandi (3.10-jadval).


¹⁰³Muallif tomonidan hisob-kitoblardan olingan natijalar asosida tuzilgan.

3.10-jadval

Qishloq xo‘jaligi maxsulotini va unga ta’sir qiluvchi ishlab chiqarish omillari prognoz qiymatlari¹⁰⁴

Yillar	Hududiy qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m (Q)	Hududiy iqtisodiyotda kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m (K)	Hudud qishloq xo‘jaligida bandlar soni, ming kishi (L)	Hududning qishloq xo‘jaligi ekin maydoni, ming ga (S)
2021 yil haqiqiy qiymat	317782,0	18934,9	3420	3341
2022 yil	339703,1	20070,4	3467	3244
2023 yil	357196,6	22057,3	3514	3171
2024 yil	372831,4	24241,0	3560	3092
2025 yil	386814,2	26640,8	3607	3007
2026 yil	398363,8	29278,2	3654	2916

Ko‘p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda hududiy qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining o‘rta muddatda, ya’ni 2005-2026 yillarda o‘zgarishi qiymatlarini grafikda ko‘rinishi ifodalandi (3.2-rasm).



3.2-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining o‘zgarishi (2022-2026 yillar uchun prognoz), mlrd.so‘m¹⁰⁵

¹⁰⁴ Muallif tomonidan hisob-kitoblardan olingan natijalar asosida tuzilgan.

¹⁰⁵ Muallif tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar asosida tuzilgan.

Umumlashtirib aytganda, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini iqtisodiy rivojlanishini strategik rejalashtirish jarayonida aniqlangan trendlardan foydalanish hududiy qishloq xo‘jaligiga kiritilayotgan resurs hajmini to‘g‘ri taqsimlagan holda resurs birligidan olinadigan samarani optimallashtirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini innovatsion rivojlantirish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi oshadi va bu jarayonni tezlashtirish maqsadida ishlanma va intensivlashtirishning yangi vositalarini qo‘llashni rag‘batlantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni ta‘minlash zarur. Tarmoqni innovatsion rivojlantirishda foydalaniladigan samaradorlik ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi.

Agrar tarmoq rivojlanishi, albatta uni rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar rivojlanishiga bog‘liq hisoblanadi. Shu sababli, tarmoqda asosiy omillardan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligi sohasiga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma obyektlarini tadqiq qilish zaruriy hol hisoblanadi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosa

1. Dinamikaning nomavsumiy komponentli bir o‘lchamli qatorlarining trend modelini tuzish bir necha bosqichda amalga oshiriladi: dinamika qatorlarini aprior (tajribaga asoslanmagan) tahlil qilish; dinamikaning tadqiq etilayotgan qatorida asosiy tendensiyaning mavjudligi haqidagi gipotezani tekshirib ko‘rish; tegishli modelning asosiy tendensiyasini hamda parametrlarini aniqlash; tasodifiy komponentni tahlil qilish; umumlashtiruvchi modelni tuzish.

2. Olib borilgan tadqiqotlarimizga ko‘ra, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosiy turlarini ishlab chiqarish hajmining 2000-2021 yillardagi dinamikasi tahlil qilingan. 2000 yilni tahlilning boshlang‘ich nuqtasi sifatida tanlab olinishiga sabab, bu paytga kelib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘rganilayotgan turlarini ishlab chiqarish hajmining tendensiya yo‘nalishida ijobiy o‘zgarish yuz bera boshlagan.

3. Qishloq xo'jaligi statistikasining asosiy yo'nalishi tarmoqning iqtisodiy rivojlanishini tizimli va kompleks qiyosiy o'rganish usullari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari holati, hajmi, tuzilishi, sifati, yer resurslarining salmog'i, hosildorlik kabi ko'rsatkichlarni umumlashtirgan holda statistik o'rganib, istiqbolda tarmoqni samarali boshqarish maqsadida qabul qilinadigan qarorlar samardorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4. Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligi tarmog'ida statistik ma'lumotlarni olishga imkon beruvchi samarali axborotlar tizimi to'la shakllanmaganligi, mazkur xo'jaliklarni statistik baholashda qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Statistik axborot tizimi nafaqat tarmoqni ahvolini aniqlash, balki tadqiq etilayotgan jarayonlarni statistik prognozlash uchun asos bo'lib, qishloq xo'jaligi ahvolini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

5. Qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishidagi mavjud muammolar yechimini topish va 2022-2026 yillarda istiqbolashtirilgan parametrlar ijrosini ta'minlash, ushbu sohadagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va ular bo'yicha chora-tadbirlar belgilashni talab etadi.

XULOSA

Qishloq xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlilini amalga oshirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Bizning fikrimizcha, “qishloq xo‘jaligi statistikasi – tarmoqning hozirgi holati, rivojlanishi, tendensiyalari va istiqbollarini tavsiflovchi miqdoriy ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va statistik tahlil etish hamda ularni sifat jihatlarini bilan ajralmagan holda statistik baholash bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar majmuasidir”.

2. Qishloq xo‘jaligi statistikasining asosiy yo‘nalishi tarmoqning iqtisodiy rivojlanishini tizimli va kompleks qiyosiy o‘rganish usullari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari holati, hajmi, tuzilishi, sifati, yer resurslarining salmog‘i, hosildorlik kabi ko‘rsatkichlarni umumlashtirgan holda statistik o‘rganib, istiqbolda tarmoqni samarali boshqarish maqsadida qabul qilinadigan qarorlar samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

3. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida dehqonchilik statistikasi ekin maydoni va ekinlar navlari, ko‘p yillik o‘simliklar ko‘rsatkichlarini, agrotexnik tadbirlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yalpi hosili, hosildorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining statistik tadqiqoti o‘z navbatida ekin maydonlarning holati va darajasini hisoblashda, pirovardida, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Xalqaro statistikada statistik tasniflash usuli keng qo‘llanilib, uning yordamida tarmoqlar va sohalarning, xususan qishloq xo‘jaligi faoliyat turlarini aniqlash mumkin. Bizning fikrimizcha, ushbu tasniflash belgilari orqali qishloq xo‘jaligida ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi korxonalarida samarali biznes muhitini shakllantirish, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, qulay infratuzilmani yaratish muhim o‘rin egallaydi.

5. Tahlillarimizga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida statistik axborotlarning bazasi quyidagilardan iborat bo‘lishligi lozim. Ya’ni: rasmiy statistika idoralarining

maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuv ma'lumotlari; fermer xo'jaliklarining 1-FX yillik va choraklik davlat statistika hisoboti shakllari; fermer xo'jaliklarining moliyaviy hisobotlari.

Shuningdek, bizning fikrimizcha, statistik axborot tizimi hal etadigan masalalar quyidagilarni o'z ichiga olishi tavsiya etiladi:

statistik ma'lumotning mazmunini aniqlash, ya'ni qaysi axborot zarurligini belgilash;

tarmoqqa oid qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tanlab olishda yordam berish;

statistik axborotning tezkorligi, uning ishonchliligi hamda kerakli ma'lumotlarni olish xarajatlari o'rtasida eng qulay nisbatni aniqlash;

statistik ma'lumotlarni olish tartibi reglamentini ishlab chiqish;

statistik ma'lumotlarga ishlov berish, ularni tahlil qilish, saqlash, yig'ish, nazorat qilish va tarqatish usullarini belgilash.

6. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni statistik o'rganishda qisman statistik kuzatish (tanlanma kuzatish, anketa orqali kuzatish, monografik kuzatish) usullarini keng yo'lga qo'yish, bozor va iste'molchilar to'g'risida zarur statistik ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchilarga yetkazish, statistik mutaxassislar va rahbar xodimlarda bozor ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalar qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

7. Statistik axborot tizimi nafaqat tarmoqni ahvolini aniqlash, balki tadqiq etilayotgan jarayonlarni statistik prognozlash uchun asos bo'lib, qishloq xo'jaligi ahvolini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

8. Raqobat sharoitida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarni tizimli statistik tadqiq etish maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan: respublika (hududlar) darajalarida qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini zamonaviy statistik usullar asosida kompleks tahlil qilish; xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini

modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish asosida ularning raqobatbardoshligini oshirish; qishloq xo‘jaligi tarmog‘i statistika tizimida axborotlar bilan ishlash va ularni tarqatish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mavjud salohiyatlaridan kengroq foydalanish va boshqalar.

9. Tahlillarimizga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ekonometrik modellarni ishlab chiqishda tizimiy yondashuvdan foydalanish zarur. Uning tarkibini iqtisodiy muammolari bo‘yicha turli (soha, tarmoq va tadbirkorlik shakli) guruhlarda statistik tahlil etish, qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligini statistik baholash hamda istiqbolli yo‘nalishlarni asoslash bo‘yicha uslubiyatni tanlash, ekonometrik modellarni qo‘llash tartibini belgilash tashkil etadi. Bunda agrar sektorda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini aks ettirish va tartibga solishda qo‘llaniladigan algoritm (statistik guruhlash, statistik tasniflash, sinergetik samaradorlikni statistik baholash, ko‘p variantli bosqichma-bosqich statistik prognozlash)lar majmui hamda ko‘p omilli regressiya modellari muhim o‘rin tutadi.

10. Istiqbolda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda quyidagi omillarga e‘tibor qaratish lozim: maqsadli dasturlarni amalga oshirish; yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni barpo etish; tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish; qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish hamda bozorni mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlash; ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xorijiy davlatlarga eksport ko‘lamini kengaytirish va boshqalar.

11. Ilmiy ishda respublikamiz qishloq xo‘jaligini iqtisodiy rivojlanish istiqbollari statistik prognozlash uslubiyotini takomillashtirish maqsadida quyidagi vazifalarni hal etilishi zarurligi tavsiya etildi. Bular: qishloq xo‘jaligining rivojlanish maqsadlari, variantlari va parametrlarining ilmiy asoslanishi zarurligi, jarayonga obyektiv ta‘sir ko‘rsatadigan rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarining hisobga olinishi kerakligi, tovar va xizmatlar bozori, mehnat bozori, kapital va moliya bozorining istiqbolli rivojlanish xususiyatlarini guruhlarga

ajratilishi hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi va x.k.lar.

12. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishi aholining oziq-ovqat hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, sanoat tarmog‘ini esa xom ashyo bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, mamlakat eksport salohiyatini ko‘tarish bilan bog‘liq iqtisodiy masalalarni, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi.

13. Tahlillarimiz ko‘rsatishicha, 1991-2022 yillar davomida tarmoqdagi iqtisodiy samaradorlik fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashuvi, yerga egalik, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarni shakllantirish asosidagi iqtisodiy islohotlar natijasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hisobiga amalga oshiriladi.

14. Qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyatining asosiy turlaridan biri bo‘lgan dehqon va fermer xo‘jaliklarining afzalliklari, mavjud imkoniyatlari bilan bir qatorda bu tarmoqda hali ishga solinmagan katta salohiyat va imkoniyatlar mavjud ekanligi, jumladan, ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni talab etadi. Ilmiy ishda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini modernizatsiyalashning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, texnologik, moliyaviy va tashkiliy omillariga baho berilgan. Bizning fikrimizcha, yuqorida sanab o‘tilgan omillarni to‘g‘ri aniqlash, statistik baholash va hisobga olish kelgusida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

15. Tahlillarimizga ko‘ra, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar asosida erishilgan natija va o‘zgarishlarni statistik tahlil qilishda axborotlarning oshkoraligi, shaffofligi, haqiqiylikini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

16. Tadqiqot ishida qishloq xo‘jaligi faoliyatidagi statistik axborotlarni sifatini oshirish va integral baholashni ta‘minlash maqsadida qishloq xo‘jalik natijaviy faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlarni baholash yuzasidan qo‘shimcha

o'zgartirishlar kiritish taklif etildi.

17. Ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida tanlanma kuzatish usulini maqsadli yo'lga qo'yish zarur bo'lib, bu borada hal etilishi lozim bo'lgan muayyan muammo va amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar mavjud. Jumladan, tahlillarimiz ko'rsatishicha, aksariyat hollarda fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar xaridorgacha yetib bormaydi yoki past baholarda sotilmoqda. Bu muammoni yechish uchun saqlash va tayyorlash, shuningdek, taqsimlash va sotish tizimlarini rivojlantirishning statistik uslublardagi tahlilini tizimli amalga oshirish talab etiladi.

18. Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligi tarmog'ida statistik ma'lumotlarni olishga imkon beruvchi samarali axborotlar tizimi to'la shakllanmaganligi, mazkur xo'jaliklarni statistik baholashda qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Statistik axborot tizimi nafaqat tarmoqni ahvolini aniqlash, balki tadqiq etilayotgan jarayonlarni statistik prognozlash uchun asos bo'lib, qishloq xo'jaligi ahvolini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

19. Statistik tahlil ma'lumotlaridan foydalanib, istiqbolda obyekt sifatida ilmiy tadqiq etilayotgan qishloq xo'jaligi tarmog'idagi xo'jaliklar faoliyatini yanada rivojlantirish va qo'llab quvvatlash uchun quyidagilar tavsiya etiladi: xorijiy investitsiyalar asosida agrofimlar tomonidan mahsulotlarni saqlash omborlarini yangilash; fermerlar uyushmasi, savdo sanoat palatasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda yangi mini texnologiyalarning ko'rgazmalari tashkil etish, ularni sotib olish bo'yicha zaruriy statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish; hududlarda fermer xo'jaliklarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi uchun zaruriy moliyaviy ko'mak (lizing, imtiyozli kredit) berishni qayta ko'rib chiqish; tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar ajratish; tashqi va ichki bozor, qayta ishlash korxonalari, aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabi, narxlari, sotib olish hajmlari kabi ko'rsatkichlarga doir statistik axborotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

20. Bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida tadbirkorlikning rolini oshirish yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- agrar sektorni rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ko‘rish, eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, chet el investitsiyalari hisobidan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, yangi korxonalarni tashkil etish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish;

- xorijiy investitsiyalarni kiritish bo‘yicha xorijiy firma va agroklastlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaradigan texnologiyalarni olib kelish, respublikada tashkil etilayotgan xalqaro yarmarkalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish;

-fermer ho‘jaliklarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yangi imkoniyatlar tug‘dirish, xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalarni rivojlantirish;

-qishloq ho‘jaligi korxonalariga o‘z mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni sotib olishi uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanishga ko‘maklashish choralari ko‘rish;

-qishloq joylarida tashkil etiladigan sanoat korxonalarini xom ashyo, elektr energiyasi, gaz bilan uzluksiz ta‘minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarni qurishni amalga oshirish va boshqalar.

21. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlanishidagi mavjud muammolar yechimini topish va 2022-2026 yillarda istiqbollashtirilgan parametrlar ijrosini ta‘minlash, ushbu sohadagi ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va ular bo‘yicha chora-tadbirlar belgilashni talab etadi.

22. Qishloq xo‘jaligi subyektlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi: tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish samaradorligini intensiv omillar, ishlab chiqarishning ilg‘or shakllari hisobiga oshirish; tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida yirik milliy va xorijiy kompaniyalarning bo‘limlari, filiallarini joylashtirish va h.k.

23. Hozirgi davrda “Fermer xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida” 1-FX shakldagi yillik hisobot yuritilmoqda. U 18 bo‘limdan iborat bo‘lib, 1-bo‘limda qishloq xo‘jalik ekinlarining yalpi hosili to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud bo‘lsada, lekin sifat ko‘rsatkichi bo‘lgan hosildorlik aniqlanmagan. “Ishlab chiqarish xarajatlari” nomli 14 bo‘limda har bir mahsulot turi bo‘yicha xarajat moddalari berilmagan, bu esa mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishga imkoniyat yaratmaydi. Qayd qilingan ko‘rsatkichlarni hisobotning tegishli bo‘limlariga kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

24. Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotining asosiy qismini yetishtiradigan dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida statistik hisobot mavjud bo‘lsada, ammo u bu soha faoliyatining barcha jihatlarini to‘liq aks ettirmaydi. Shunga ko‘ra dehqon xo‘jaliklariga yuridik shaxs maqomini berib, ular tomonidan yetishtiriladigan mahsulotlar miqdori va samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradigan ravishda “Dehqon xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida”gi statistik hisobotni takomillashtirish zarur. Buning uchun moliyaviy natijalarning hisobiga tegishli bo‘lgan bo‘limni kiritishni taklif etamiz.

Tadqiqot natijasida olingan xulosalar, berilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2015-40 b.

1.2.O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. // Oliy majlis axborotnomasi. – T., 2004. №9. – B. 22-35.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi qonuni. Qonunlar va farmonlar. –T.: O‘zbekiston, 1992 yil, -328 b.

1.4.“Mulkchilik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasi: qonunlar va farmonlar-T:O‘zbekiston, 1992-382 b.

1.5.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”. Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me‘yoriy hujjatlar to‘plami.-T.:“Sharq” nashriyot-matbaa konserni. 1998. 1-tom. 416 b.

1.7.«Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi PF–4354-son Farmoni. – T., 2011 yil 24 avgust

1.8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlar chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 3226-sonli Farmoni. 2003 yil 24 mart. // Oliy majlis axborotnomasi. – T., 2003 №. 3-4. – B. 65-69.

1.9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlari optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4041-sonli Farmoni. 2008 yil 20 oktyabr. // Xalq so‘zi. – T., 2008 yil 22 oktyabr.

1.10.«Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni.

30.04.1998 y. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi va qishloq xo‘jaligiga oid qonun hujjatlari - T.: «Adolat», 1999. 117-132 b.

1.11.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishkerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yilda 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y. – 104 b.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi online. // 23 dekabr 2017 yil.

1.13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.// Xalq so‘zi // Shanba, 8 fevral 2017 yil.

II. Monografiyalar, ilmiy maqolalar, patentlar, ilmiy to‘plamlar

2.1.Abdullaev Yo.A. Statistika nazariyasi. Darslik.–T.: “O‘qituvchi”, 2003,- 214 b.

2.2.Abduraxmonov K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk shakllarining rivojlanib borishi. -T.: Fan, 2002. – 144 b.

2.3.Агаркова Л.В. Эффективность функционирования предприятий плодоовощеконсервного производства АПК. – Ставрополь: Ставропольское книжное издательство, 2004. – 250 с.

2.4.Агаркова Л.В. Формирование механизма устойчивого развития плодоовощного подкомплекса: теория и практика. – Ставрополь: Ставролит, 2007. – 168 с.

2.5.Антонов Г.М. и др. Предприятия АПК в условиях самостоятельности.- М.: Агропромиздат, 2001. – 158с.

2.6.Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlaridan yuqori

hosil olish usullari.-T. : 2008– 43 b.

2.7.Ayubjonov A.X. va boshq. Qishloq xo‘jaligi statistikasi (O‘quv qo‘llanma).-T.: TDIU, 2007. - 124 b.

2.9.Буддалов И.Н., Хатамов К.Х.Эффективность и качество производства сельскохозяйственной продукции.“Узбекистан”-Т.:2003.–148 с.

2.10.Zakirova U.M. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi tarkibiy o‘zgarishlar va ularni iqtisodiy-statistik tahlili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy electron jurnali.-Toshkent, 2022 yil, №2-son.

2.11.Zakirova U.M. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi tarkibiy o‘zgarishlar va ularni iqtisodiy-statistik tahlili. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy electron jurnali. Toshkent, 2022 yil, 2-son, 168-178-betlar.

2.12.Zakirova U.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi tarkibiy o‘zgarishlar va ularni statistik baholash. // “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning statistik tahlilini takomillashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. Toshkent, 27 may 2022y. 673-675 betlar.

2.13.Zakirova U.M. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holati va dinamikasini statistik tahlili. // Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 1-son. 8 bet.

2.14. Zakirova U.M. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi tarkibiy o‘zgarishlarning statistik tahlili. // Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 2-son. 12 bet.

2.15.Zakirova U.M. Agrar sektorda tarkibiy-tuzilmaviy o‘zgarishlarni statistik baholash. // Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 3-son. 15 bet.

2.16.Zakirova U.M. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishini statistik baholash. //“Xalqaro moliyaviy xisobot standartlariga o‘tish va xalqaro tajribani O‘zbekistonda qo‘llashning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami.Toshkent-“Iqtisodiyot” 2022 y. 497-499-betlar.

2.17.Zakirova U.M. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida tarkibiy-tuzilmaviy o‘zgarishlar va ularni statistik baholash. // Collection of materials of the international conference on: “Actual tasks of the effective use of modern marketing concepts in the development of the national economy” Volume1. Toshkent 25 oktyabr. 218-226-betlar.

2.18.Zakirova U.M. O‘zbekistonda agrar sektorni rivojlanish holati va ulardagi tendensiyalarni statistik tahlili. //“O‘zbekiston tadbirkor-biznesmenlarini Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining tovarlar va xizmatlar bozorlariga moslashishlaridagi marketing muammolari” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari to‘plami. Aprel 2022 yil. 346-349-betlar.

2.19.Zakirova U.M. Mamlakatimizda agrar sektorning iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini statistik tahlili. //Statistikaning zamonaviy muammolari: nazariya, uslubiyot va amaliyot” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent, 2022 yil 26 noyabr. 3 bet.

2.20. Минаков И.А., Сабетова Л.А., Куликов Н.И./Под.ред.И.А. Минаков. Экономика сельского хозяйства / – М.: Колос, 2002. – 328 с.

2.21.Mirzaev E.T. Sabzavotchilikda mahsulotlarni ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish.-T.:“FAN”, 2008. - 127 s.

2.22.Мухитдинова У.С. Рынок плодоовощной и виноградной продукции и эффективность его функционирования в условиях либерализации экономических отношений. Монография.-Т.: “ФАН”, 2008.

2.23. Огарков С. Причины кризиса в сельском хозяйстве и направления его оздоровления.// АПК: экономика, управление. –М.: 2004. – № 4.–С 21- 26.

2.24.Оптимальное планирование производства и переработка овощей и

фруктов.-М.: Агропромиздат, 2005. – 151 с.

2.25. Ochilov S., Ergasheva S. Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. –Т.: 2008.-b.192.

2.26.Смагин Б.И. Экономический анализ и статистическое моделирование аграрного производства. Монография./ – Мичуринск: Изд-во МичГАУ, 2007. – с.153.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1.Агаркова Л.В. Производство и сбыт плодоовощеконсервов // Экономика сельского хозяйства России. Москва, 2006. – № 1. – с.56-58

3.2.Агаркова Л.В. Индикаторы оценки использования производственного потенциала // АПК: экономика, управление – 2007. – № 4. – с. 43-50

3.3.Агаркова Л.В. Тенденции развития плодоовощного подкомплекса // Экономический вестник Ростовского государственного университета – Ростов-на-Дону, 2007. – Том 5. – № 1. – Часть 3. – с. 63-65

3.4.Агаркова Л.В. Перспективы развития плодоовощного подкомплекса Ставропольского края// Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий – 2007. – № 7. – с. 78-80

3.5.Berkinov V.B., Ergasheva Sh.T. Mintaqada ekin maydonlarini optimal tarkibini shakllantirish. Voprosy modelirovaniya i informatizatsii ekonomiki. Sbornik nauchnx trudov. Institut kibernetiki – Т.: 2000, № 19. b. 88-91

3.6.Bolobolov A., Sidorenko V., Gosudarstvennoe regulirovanie agrarnoy sfery ekonomiki. // Mejdunarodnyy selskoxozyaystvennyy jurnal - 2002. - № 6. – s.10-13.

3.7.Burobkin I.N., Popova Ye.A. Ekonomicheskie otnosheniya v sisteme agropromyshlennoy integratsii. // Ekonomika selskoxozyaystvennyx i pererabatyvayushchix predpriyatiy. – 2004. - № 1. – s. 21-24

3.13.Murodov Ch. Osobennosti liberalizatsii selskogo xozyaystva Uzbekistana.

// Dostijeniya nauka i texniki APK. –2001.– №5.41–42 b.

3.15.Xalilova G.U. Strukturnye izmeneniya v ekonomike selskogo khozyaystva Respubliki Tatarstan // Sank-Peterburg. Shestoy mejdunarodnyy MRG. AGRI po selskoxozyaystvennoy statistike. 1998. 29 iyunya – 3 iyulya.

IV. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

4.1.Афанасьева А.В. Статистическая оценка динамики производства сельскохозяйственной продукции в системе государственного регулирования продовольственного рынка. Автореф. Дисс. на соис.канд. экон. наук. – Самара.2008. –с.26.

4.2.Burxonov A.X. Turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish. Dis. iqt. fan. nom. – Toshkent: O‘zBIITI, 2000. –117 b.

4.3.Murodov Ch. O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasini rivojlantirish. Iqt.fan. dokt. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T.: – 2001. – b.46.

4.4.Muxitdinova U.S.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mevasabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqt.fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozilgan dis.avtoref.-T.:2010.-b36.

4.5.Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O‘zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis.– T.:–2001.-b.290.

4.6.Umurzakov U.P. Puti povыsheniya effektivnosti ispolzovaniya resursnogo potentsiala agrarnogo sektora ekonomiki (na materialax Respubliki Uzbekistan). Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. Toshkent: –2003. –43 b.

V. Statistika to‘plamlari

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. Toshkent, 2000-2020 yillar.

5.2. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2018-2021 yy” statistik to‘plami. - Toshkent: 2020.

VI. Internet manbalari

6.1. <http://www.prezident.uz>–O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.

6.2. www.stat.uz–O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

6.3. www.norma.uz–O‘zbekiston Respublikasi huquqiy me’yoriy xujjatlar to‘plami

6.4. <http://www.natlib.uz/> – Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona

6.5. <http://diss.rsl.ru/diss>– Rosiya Federatsiyasi dissertatsiyalari elektron kutubxonasi

6.6. <http://www.dissercat.com>–dissertatsiyalar elektron kutubxonasi

6.7. http://www.raf.org.ru/magazine_old/sta220~8.htm– Agrar islohotlar va qishloq taraqqiyoti fondi

ILOVALAR

ILOVALAR

1-ilova

O‘zbekistonda chorva mollarining bosh soni va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2000 yil			2010 yil			2020 yil			2020 yil 2000 yilga nisbatan, %		
	Jami	shu jumladan		Jami	shu jumladan		Jami	shu jumladan		Jami	shu jumladan	
		fermer xo‘jaligi	dehqon xo‘jaligi		fermer xo‘jaligi	dehqon xo‘jaligi		fermer xo‘jaligi	dehqon xo‘jaligi		fermer xo‘jaligi	dehqon xo‘jaligi
Chorcha mollarining bosh soni, ming bosh (yil oxiriga)												
Yirik shoxli qoramollar	5353,4	198,1	4613,3	9094,7	501,7	8497,1	13154,3	784,5	12169,2	2,4 m.	3,9 m.	2,6 m.
sh.j.: sigirlar	2343,4	56,8	2107,3	3758,1	171,2	3557,4	4729,4	293,8	4373,1	2,0 m.	5,1 m.	2,1 m.
Qo‘y va echkilar	8932,5	195,8	6021,3	15340,9	1149,9	12146,7	22458,8	3032,2	18091,3	2,5 m.	15,4 m.	3,0 m.
Parrandalar	14510,0	423,7	8990,6	37733,3	3958,6	22561,0	89589,7	13295,1	52005,5	6,1 m.	31,1 m.	5,8 m.
Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish												
Go‘sh (tirik vaznda), ming.tn	841,8	11,1	766,9	1461,5	37,9	1389,2	2519,6	112,2	2302,7	2,9 m.	10,1 m.	3,0 m.
Sut, ming tn.	3632,5	54,1	3401,9	6169,0	205,0	5927,8	10976,9	519,8	10372,2	3,0 m.	9,6 m.	13,8 m.
Tuxum, mln.dona	1254,4	12,0	751,8	3061,3	288,1	1775,6	7781,2	1048,9	4819,9	6,2 m.	87,4 m.	6,4 m.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

O'zbekistonda qishloq xo'jalik ekinlari yalpi hosili va hosildorligi dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2000 yil			2010 yil			2020 yil			2020 yil 2000 yilga nisbatan, %		
	Jami	shu jumladan		Jami	shu jumladan		Jami	shu jumladan		Jami	shu jumladan	
		fermer xo'jaligi	dehqon xo'jaligi		fermer xo'jaligi	dehqon xo'jaligi		fermer xo'jaligi	dehqon xo'jaligi		fermer xo'jaligi	dehqon xo'jaligi
Qishloq xo'jalik ekinlari yalpi hosili, ming tonna												
Don jami	3929,4	568,9	758,6	7404,1	6032,7	1278,8	7636,0	6256,2	788,3	194,3	10,9 m.	103,9
shundan: bug'doy	3532,0	520,8	620,4	6657,2	5586,0	1002,1	6157,8	5244,8	429,2	170,1	10,1 m.	69,2
Kartoshka	731,1	30,8	585,5	1694,8	337,2	1346,4	3143,8	633,5	2438,8	4,3 m.	20,5 m.	4,2 m.
Sabzavot	2644,7	129,4	1982,7	6346,6	2215,8	4086,2	10431,4	3674,3	6507,3	3,9 m.	28,4 m.	3,3 m.
Poliz	451,4	50,5	286,8	1182,4	595,9	566,6	2134,2	1035,7	1051,9	4,7 m.	20,5 m.	3,7 m.
Meva	888,5	33,6	466,1	1699,4	816,4	875,3	2812,6	1140,1	1579,3	3,2 m.	33,9 m.	3,4 m.
Uzum	235,4	29,6	205,8	979,5	556,6	422,9	1606	663,9	906,2	6,8 m.	22,4 m.	4,4 m.
Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi, s/ga												
Don jami	27,0	25,2	39,9	43,6	42,5	53,5	41,8	43,3	37,4	154,8	171,8	93,7
shundan: bug'doy	27,6	25,8	41,1	45,9	44,7	56,6	45,4	47,3	38,1	164,5	183,3	92,7
Kartoshka	129,3	112,0	133,3	194,9	152,2	207,2	213,4	178,5	218,3	165,0	159,3	163,7
Sabzavot	183,8	156,8	196,2	252,5	239,8	260,1	234,4	207,6	245,6	127,5	132,4	125,2
Poliz	132,4	97,0	170,5	192,6	178,3	214,1	168,3	140,0	208,1	127,1	144,3	122,0
Meva	56,9	36,9	91,5	92,6	76,2	125,1	116,7	83,7	188,2	2,1 m.	2,2 m	2,0 m.
Uzum	63,1	56,3	87,9	90,8	79,7	116,4	152,0	108,2	229,2	2,4 m.	192,2	2,6 m.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

O'zbekiston fermer xo'jaliklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar									2021y. 2005y.gan nis., foizda
		2005	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
Fermer xo'jaliklari soni, yil oxiriga	birlikda	125 668	71030	96081	132356	146618	151099	92554	102992	107622	85,6
Fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan jami yer maydoni	ming gektar	3775,3	5826,8	5812,8	5806,2	6207,6	6310,2	6313,6	6102,9	5650,5	149,7
Fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan jami ekin maydoni	ming gektar	2140,7	3143	3129,1	3137,8	29113,4	2773,9	2623,2	2545,6	2439,9	114,0
Jami ekin maydonida fermer xo'jaliklari ulushi	%	58,7	84,8	84,7	84,7	83,8	81,7	79,3	75,0	73,0	-
Bir fermer xo'jaligiga to'g'ri kelgan o'rtacha umumiy yer maydoni	gektar	30,0	82,0	60,5	43,9	42,3	41,8	68,2	59,3	52,5	175,0
Bir fermer xo'jaligiga to'g'ri kelgan o'rtacha ekin maydoni	gektar	17,0	44,2	32,6	23,7	198,6	18,4	28,3	24,7	22,7	133,1
Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotida fermer xo'jaliklarining ulushi	%	24,3	36,3	30,7	29,7	29,3	26,0	27,9	28,2	29,3	-
Jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarida fermer xo'jaliklari ulushi	%	41,6	59,1	52,0	52,0	49,2	45,3	49,2	52,0	53,1	-
Jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarida fermer xo'jaliklari ulushi	%	2,7	3,9	4,0	3,9	3,7	4,6	5,1	4,9	5,3	-

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2018-2021 yy. Statistik to'plam. Toshkent, 288 b.

**O‘zbekiston Respublikasining 2010-2021 yillarda paxta, don va dukkakli don ekinlari, sabzavot ekinlari, mevalar va uzumning hosildorligi bo‘yicha taqqoslama jadval
(barcha toifadagi xo‘jaliklarda) sent/ga**

Hududlar	Paxta			Don va dukkakli don ekinlari			shu jumladan, boshqoli don ekinlari			Sabzavot ekinlari			Mevalar va rezavorlar			Uzum		
	2010y.	2021y.	farqi, +/-	2010y.	2021y.	farqi, +/-	2010y.	2021y.	farqi, +/-	2010y.	2021y.	farqi, +/-	2010y.	2021y.	farqi, +/-	2010y.	2021y.	farqi, +/-
O‘zbekiston Respublikasi	25,4	30,7	5,3	44,2	40,9	-3,3	45,1	42,1	-3,0	252,5	236	-16,5	92,6	122,1	29,5	90,8	154,7	63,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	18,6	26,5	7,9	28,4	24,9	-3,5	30,2	23,3	-6,9	143,8	147,5	3,7	63,3	98,6	35,3	70,9	68,9	-2,0
Viloyatlar:																		
Andijon	29,2	35,3	6,1	61,7	64,8	3,1	62,8	67,5	4,7	272,4	294,4	22,0	144,7	228,1	83,4	109,8	243,9	134,1
Buxoro	31,0	33,7	2,7	59,4	56,2	-3,2	59,4	60,4	1,0	248,9	229,8	-19,1	148,8	192,7	43,9	120,6	236,8	116,2
Jizzax	22,0	31,5	9,5	25,6	28,5	2,9	25,9	30,4	4,5	199,2	213,7	14,5	63,9	82,1	18,2	53,4	73,1	19,7
Qashqadaryo	25,9	23,7	-2,2	40,0	32,2	-7,8	40,5	32,8	-7,7	220,3	241,9	21,6	68,4	104,8	36,4	72,5	128	55,5
Navoiy	29,1	34,9	5,8	48,7	48,8	0,1	48,4	48,8	0,4	252,4	281	28,6	116,9	161	44,1	72,5	160,1	87,6
Namangan	27,4	34,0	6,6	49,3	45,6	-3,7	50,5	47,9	-2,6	228,5	283,3	54,8	59,4	115,9	56,5	65,0	198	133,0
Samarqand	24,5	28,6	4,1	44,4	39,9	-4,5	44,9	38,1	-6,8	340,8	226,5	-114,3	96,2	117	20,8	105,4	147,9	42,5
Surxondaryo	26,8	32,7	5,9	51,3	49,9	-1,4	51,3	51,5	0,2	217,2	282,8	65,6	75,6	97,8	22,2	62,4	98,6	36,2
Sirdaryo	19,8	31,5	11,7	42,7	42,2	-0,5	43,0	39,8	-3,2	257,7	201,2	-56,5	44,1	90,3	46,2	58,4	119,3	60,9
Toshkent	24,2	28,2	4,0	45,1	33,7	-11,4	45,4	34,9	-10,5	265,7	259,8	-5,9	74,9	62,3	-12,6	87,4	99,6	12,2
Farg‘ona	28,0	33,9	5,9	57,2	57	-0,2	57,3	56	-1,3	234,2	178,7	-55,5	83,9	84,3	0,4	154,4	271,6	117,2
Xorazm	25,1	31,6	6,5	46,5	45,8	-0,7	48,6	49,8	1,2	234,4	244,8	10,4	120,2	137,4	17,2	119,8	168,7	48,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2018-2021 yy. Statistik to‘plam. Toshkent, 288 b.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasini baholovchi ko'rsatkichlar (indikatorlar) tizimi

Qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari	Hisoblash metodikasi
Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning absolyut qiymati, mln. so'm	BAMQX – davlat byudjetidan qishloq xo'jaligiga ajratilgan jami mablag'lar qiymati yig'indisi
Davlat byudjetidan qishloq xo'jaligiga ajratilgan jami mablag'lar qiymatining:	
mamlakat yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) nisbatan salmog'i, %da	$QQDYaIM = BAMQX / YaIM \times 100$ Bu yerda: QQDYaIM – mamlakat YaIMga nisbatan qo'llab-quvvatlash darajasi; YaIM – yalpi ichki mahsulot qiymati
qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotiga nisbatan salmog'i, %da	$QQDQXYaM = BAMQX / QXYaM \times 100$ Bu yerda: QQDQXYaM – qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymatiga nisbatan qo'llab-quvvatlash darajasi; QXYaM – qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymati
davlat byudjetining maqsadli fondlarsiz jami xarajatlariga nisbatan salmog'i, %da	$QQDDBJX = BAMQX / DBJX \times 100$ Bu yerda: QQDDBJX – davlat byudjetining maqsadli fondlarsiz jami xarajatlariga nisbatan qo'llab-quvvatlash darajasi; DBJX – davlat byudjetining maqsadli fondlarsiz jami xarajatlari qiymati
davlat byudjetining iqtisodiyatga xarajatlar qismiga nisbatan salmog'i, %da	$QQDDBIX = BAMQX / DBIX \times 100$ Bu yerda: QQDDBIX – davlat byudjetining iqtisodiyatga xarajatlar qismiga nisbatan qo'llab-quvvatlash darajasi; DBIX – davlat byudjetining iqtisodiyatga xarajatlari qiymati
bir gektar qishloq xo'jaligi ekin maydoniga* nisbatan qiymati, ming so'm/ga	$QQDEM = BAMQX / EMQX$ Bu yerda: QQDEM – ekin maydonlariga nisbatan qo'llab-quvvatlash darajasi; EMQX – qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni
qishloq xo'jaligida band bo'lgan bir xodimga nisbatan qiymati, ming	$QQDBX = BAMQX / BXQX$ Bu yerda: QQDBX – band xodimlar soniga
Qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari	Hisoblash metodikasi
so'm/kishi	nisbatan qo'llab-quvvatlash darajasi; BXQX – agrar tarmoqda band xodimlar soni
Qishloq xo'jaligida davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi (SDBMF), so'm/so'm	$SDBMF = QXYaM / BAMQX$ Bu yerda: QXYaM – qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymati
Qishloq xo'jaligiga asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarda markazlashgan davlat investitsiyalari salmog'i (MDISQX), %	$MDISQX = MDIQX / JIQQX \times 100$ Bu yerda: MDIQX – qishloq xo'jaligiga asosiy kapitalga kiritilgan markazlashgan davlat investitsiyalari qiymati; JIQQX – barcha manbalardan qishloq xo'jaligiga asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalar qiymati.

*ekin maydoniga hosil beradigan mevazor va tokzorlar ham kiritilgan. Manba: muallif tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan

**O‘zbekistonda YaIM va qishloq , o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining
hajmi va dinamikasi**

Yillar	YaIM hajmi, mlrd, so‘m		Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi yalpi qo‘shilgan qiymati, mlrd, so‘m		Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd so‘m		Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd, so‘m		Qishloq xo‘jaligi mahsulotining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotidagi ulushi, foizda
	Joriy narhda	2020 yil narhida	Joriy narhda	2020 yil narhida	Joriy narhda	2020 yil narhida	Joriy narhda	2020 yil narhida	
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9
2010	78936,6	338906,0	21251,3	97372,9	32746,5	168252,0	30856,7	160197,9	94,2
2011	103232,6	364324,0	30658,6	103312,7	48068,3	178851,9	45285,9	170130,2	94,2
2012	127590,2	390191,0	36954,7	110544,6	58549,3	191192,7	55750,0	182379,6	95,2
2013	153311,3	418674,9	42636,8	117619,4	69391,3	203620,2	66435,3	194416,6	95,7
2014	186829,5	447563,5	53613,2	124676,6	85101,7	216041,1	81794,3	206664,8	96,1
2015	221350,9	479788,1	64680,3	132281,9	103302,0	229219,6	99604,6	219271,4	96,4
2016	255421,9	508095,6	74779,0	140483,4	119726,7	243202,0	115599,2	233085,5	96,6
2017	317476,4	530451,8	90983,9	142169,2	154369,4	246120,4	148199,3	235416,4	96,0
2018	424728,7	559096,2	113660,7	142595,7	195095,6	246858,7	187425,6	235887,2	96,1
2019	529391,4	590964,7	130306,9	147016,1	224265,9	254511,4	216283,1	243671,5	96,4
2020	602193,0	602193,0	151279,6	151279,6	261892,2	261892,2	250250,6	250250,6	95,6
2021	734587,7	646755,3	183518,5	157330,8	317781,6	272367,9	303415,5	260010,4	95,2

Manba. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Qishloq xo‘jaligining tarmoq tuzilmasi (ITUT bo‘yicha)*



*Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий веб-сайти маълумотлари асосида тайёрланган.

Qishloq xo‘jaligining tarmoq tuzilmasi (IFUT-2) bo‘yicha*



*Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий веб-сайти маълумотлари асосида тайёрланган.